

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

**Muassis:**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

**PUBLIC EDUCATION**

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2017**

**4-son**  
(iyul-avgust)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

4 Yoshlar – yurt tayanchi, kelajagimiz vorislaridir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- |               |    |  |
|---------------|----|--|
| I. Otabayev   | 7  | Modulli o'qitishni ta'limgarayoniga qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari                            |
| F. Azimova    | 12 | O'quvchilarning epik asarlar tahliliga doir kompetensiyalarini rivojlantirish                        |
| F. Jumayeva   | 20 | Ta'limgarayoniga qo'llashda didaktik o'yinlarning o'rni  |
| Z. Yulchiyeva | 24 | Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda asosiy tushuncha va atamalardan foydalanishning ahamiyati     |
| B. Ma'murov   | 27 | Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini akmeologik darajada o'zlashtirish imkoniyatlari |



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- |              |    |   |
|--------------|----|---|
| M. Jumayev   | 31 | Matematika fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishda tarixiy materiallardan foydalanish                             |
| N. Narziyeva | 37 | O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini integrativ yondashuv asosida shakkllantirishda muammoli ta'limgarayoniga qo'llash |



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

- |             |    |  |
|-------------|----|--|
| B. Jo'rayev | 43 | Ta'limgarayonida pedagogik texnologiyalar asosida identifikatsiyalashgan o'quv maqsadlarni belgilash tamoyillari |
|-------------|----|--|



ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI

- |             |    |  |
|-------------|----|--|
| D. Ismatova | 47 | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda chet tillarni o'qitish metodlari |
|-------------|----|--|



TA'LIMDA MONITORING

- |             |    |  |
|-------------|----|--|
| G. Karimova | 52 | Shaxsga yo'naltirilgan ta'limgarayonida pedagogik monitoringning muhim jihatlari |
|-------------|----|--|



KASB-HUNARGA YO'NALТИРISH

- |             |    |   |
|-------------|----|---|
| I. Haydarov | 56 | Ta'limgarayonida o'smir yoshdagagi o'quvchilarni kasbhunarga yo'naltirishning psixologik omillari |
|-------------|----|---|



HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA

- |              |    |  |
|--------------|----|--|
| D. Davronova | 61 | Oilada yoshlarning ijtimoiy-siyosiy madaniyatini shakkllantirishda ota-onaning o'rni |
|--------------|----|--|



JISMONIY TARBIYA VA SPORT

- |               |    |   |
|---------------|----|---|
| A. Abdullayev | 65 | Ta'limgarayoniga qo'llashda milliy xalq harakatini o'ynilarning ahamiyati |
|---------------|----|---|



MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

- |            |    |  |
|------------|----|--|
| M. Soipova | 69 | Umumbashariy qadriyatlarni o'rgatish jarayonida tasviriy san'at darslarining sifat va samaradorligini oshirish texnologiyasi |
|------------|----|--|

	<b>MAKTABGACHA TA'LIM</b>	
	G. Nazirova <b>74</b>	Maktabgacha ta'lismuassasalarida tashkil etiladigan ta'limgartarbiya jarayonlari pedagogik tizim sifatida
	<b>EKOLOGIK TA'LIM</b>	
	A. Raximov <b>80</b>	Uzluksiz ta'limgarbiya jarayonida biologiya fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari
	<b>TA'LIMDA INNOVATSIYALAR</b>	
	K. Karimov <b>84</b>	Ta'limgarbiya innovatsion axborot-didaktik shakllarini ilmiy tadqiq qilish dolzarb vazifa
	<b>TA'LIMDA AXBOROT RESURSLARI</b>	
	K. Mamadaliyev, F. Bekchanov <b>92</b>	Elektron o'quv qo'llanmalar yaratishning asosiy vositalari va ularga qo'yiladigan umumiy talablar
	<b>PSIXOLOGIYA</b>	
	M. Akramov <b>98</b>	O'quvchi tasavvurini kengaytirishda psixologik fenomenining ahamiyati
	X. Tojiboyeva <b>102</b>	O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayonining pedagogik-psixologik mohiyati
	<b>ILMIY NASHRLAR ORQALI AXBOROT XAVFSIZLIGI</b>	
	D. Musayeva, M. Qosimova <b>107</b>	Informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashda "Oila – mahalla – ta'limgarbiya" hamkorligidan samarali foydalanish zarurati
	<b>MUSTAQILLIK YILLARI PEDAGOGIKASI</b>	
	G. Fayzullayeva <b>111</b>	Adabiy ta'limgarbiya milliy istiqlol g'oyasi va uni uzluksiz shakllantirish omillari
	<b>ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ</b>	
	P. Медетова <b>117</b>	Межкультурная толерантность как важный фактор конструктивного взаимодействия в поликультурном пространстве
	<b>ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ОРИЕНТАЦИЯ</b>	
	O. Абдуллаева, З. Абдуллаев <b>122</b>	Важность и значимость повышения эффективности процесса подготовки студентов к педагогической деятельности
	<b>ОРГАНИЗАЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ НАУЧНЫХ ИЗДАНИЙ</b>	
	N. Исраилова <b>128</b>	Профилактика социальной дезадаптации и обеспечение информационной безопасности детей группы риска
	<b>МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ИНТЕГРАЦИЯ</b>	
	Д. Мунхжаргал <b>136</b>	Образование для устойчивого развития и традиционное мышление монголов

## YOSHLAR – YURT TAYANCHI, KELAJAGIMIZ VORISLARIDIR

**N**avqiron avlod har bir mamlakatning ertangi kuni, jamiyatda o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, bунyodkorlik g'oyalarini hayotga tatbiq etuvchi, bir so'z bilan aytganda, kelajak bунyodkorlaridir. Shu bois yoshlar masalasi barcha davrlarda eng dolzarb bo'lib kelgan. Albatta, yoshlarni ijtimoiy, ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, huquq hamda majburiyatlarini to'la-to'kis ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, jamiyatda munosib o'rin egallashlariga qulay sharoit yaratish orqali ularni yurt taqdiri va kelajagini hal qiluvchi katta kuchga aylantirish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki oylaridan yangi davlat hamda jamiyatni barpo etish bilan bog'liq kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri sifatida yoshlarga oid davlat siyosati va uni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

2016-yil "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi talablari asosida ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun ushbu yo'naliishdagi ishlarimizning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur hujjatning hayotga tatbiq qilinishi yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning mas'uliyatini kuchaytirish, sohada ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini yuksaltirish imkonini beradi.

Lekin shunga qaramay, bugungi shiddatkor davr yoshlarni yagona maqsad va g'oya atrofida birlashtirish, ular uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berishni taqozo etayotgan edi. Shu bois joriy yilning 30-iyun kuni "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyi bo'lib o'tdi.

Unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Bugun sizlarning qalbingiz, yuragingizdagi o'y-fikrlar, maqsad-muddaolar, kerak bo'lsa, ushalmay turgan niyatlar bilan yaqindan tanishish, shu asosda yoshlar siyosati bo'yicha olib borayotgan ishlarimizni tanqidiy baholab, tegishli qarorlar qabul qilishni men o'z faoliyatim uchun g'oyat muhim deb hisoblayman", degan so'zları barcha yoshlarni to'lg'inqrantirib yubordi.

Mamlakatimiz rahbari yoshlar tashkiloti qanday bo'lishi kerakligi, bu borada jahon tajribasi haqida to'xtalar ekan, rivojlangan, demokratik mamlakatlarda yoshlar tashkilotlari dabdabali, balandparvoz tadbirlar o'tkazish emas, balki yoshlar bilan bevosita ishlash, ular bilan amaliy muloqot qilish, ularni o'ylantirayotgan hayotiy muammolarni hal etishga asosiy e'tiborni qaratayotganini qayd etdi.

Joriy yilning 5-iyul kuni esa, Prezidentimizning "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilingani bu borada yangi davrni boshlab berdi.

Ushbu hujjatga asosan, yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish belgilab qo'yildi.

---

Buncha sa'y-harakatlar, ezgu maqsadlar faqat bitta: u ham bo'lsa, kelajagimizni yanada farovon qilishga yo'naltirilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, bugungi tahlikali davrda yoshlarni "ommaviy madaniyat", diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash juda dolzarb vazifa ekanini unutmaslik lozim.

Aslida, yoshlar ong-u shuuriga tahdidlar avvaldan bo'lgan va bundan keyin ham yangi ko'rinish, nom hamda ta'sir vositalari talqinida davom etadi. Ularning faqat maqsadi o'zgarmaydi: ertaning bunyodkori bo'lgan avlod ongini zaharlash, uning qalbidagi milliy ma'naviyat ildizlarini tag-tomiri bilan qo'porib tashlashdir.

Xo'sh, shunday axborotlar xuruji avj organ qaltis vaziyatda millat ma'naviyatini saqlab qolish uchun nima qilmoq kerak? Axir texnologiyalar sivilizatsiyasi asrida internetsiz hayotni, qo'yingki, bir kunni tasavvur etib bo'lmaydi-ku?

Mamlakatimizda ertangi kunimiz egalarining har jihatdan sog'lom kamol topishi, za-monaviy bilimlarni egallashi, o'z iqtidor va qobiliyatini ro'yobga chiqarishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati, ularga qarshi qaratilgan yot g'oya va ma'naviy tahdidlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan tadbirlar yoshlarni hushyorlikka, hayotga teran nigoh bilan boqishga chorlamoqda.

Bugun ommaviy axborot vositalari orqali internetning faqat salbiy jihatlari haqida bong urilmoqda. Natijada ko'pgina ota-onalar bu kabi ta'sirlardan himoya qilish uchun farzandining internetdan foydalanishini cheklab qo'ymoqda. Qarabsizki, bola global tarmoqning foydali jihatlari, ya'ni bilimini boyitish, o'zini qiziqtirgan mavzularda tajriba almashish va ma'lumotlar olish, bu yo'nalishdagi jahon hamda mahalliy miqyosidagi so'nggi yangiliklar bilan tanishish, shuningdek, iqtidorini namoyish etishga xizmat qiladigan ta'lif manbayi – elektron kutubxonalardan foydalanish imkoniyatidan chegaralamoqda.

Ajdodlarimiz farzand ta'lif-tarbiyasiga millat kelajagi uchun qayg'urish, baxtli-sodatli umr kechirish, o'zgalarga tobe bo'lishdan himoyalanish, bir so'z bilan aytganda, hayot-mamot masalasi sifatida qaragan. Buning natijasida ma'rifat va ma'naviyat, maddaniyat tarbiyaning metindek mustahkam qobig'iga aylanib, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan.

Darhaqiqat, bugungi dunyoda kechayotgan integratsiyalashuv jarayonida axborot oqimlari shu qadar ko'payib ketdiki, o'smirlar u yoqda tursin, hatto aqlo hushini yig'ib olgan kishilar ham internetdagagi xabarlarning qaysi to'g'ri-yu qaysisi noto'g'ri ekanini ajratishga qiyinalishyapti. Bunday sharoitda katta tajribaga ega kishilar yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishlari maqsadga muvofiqdir.

Demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini yanada oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiyaga, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega tashabbuskor, shijoatli, el-yurt manfaati yo'lida bor kuch-g'ayrati, bilim va salohiyatini safarbar qiladigan, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yoshlar safini kengaytirish mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda yaqqol ko'za tashlanmoqda.

So'nggi paytlarda tez-tez qulog'imizga "uyushmagan yoshlar", degan ibora chalinyapti. Bu so'z qayerdan paydo bo'ldi? Axir yoshlar maktabgacha ta'lif muassasasida, maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlariда hamda oliy ta'lif muassasalarida uyushgan bo'ladi-yu, nega ular keyinchalik uyushmay qoladi?

Prezidentimizning joriy 30-iyun kuni "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qu'rultoyidagi ma'rzasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar ijrosi izchil ta'minlansa,

"uyushmagan yoshlar" iborasi o'rnini "faol yoshlar, "ixtirochi yoshlar", "intellektual salohiyati yuksak yoshlar", "kelajak bunyodkorlari" kabi atamalar egallashiga shubha yo'q.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilib, hayotga izchil tatbiq etilayotgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh-ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizni yanada demok-lashtirish, aholining huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotni farovonlashtirishga qaratilgan ulkan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan, keng qamrovli taraqqiyot va yangilanish modelidir. Shunday ekan, har birimizning hayotimiz, kelajagimiz bilan bog'lik bo'lgan mazkur Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyatini chuqr tushunib yetishimiz, uni amalga tatbiq etishda bevosita daxldorlik hissini tuyib, zimmamizdagi mas'uliyatni his etib yashashimiz lozim. Shundagina Harakatlar strategiyasi to'la ro'yoga chiqib, mamlakatimizni rivojlangan, xalqparvar demokratik davlatga aylantirish yo'lida mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Albatta, Harakatlar strategiyasida yosh avlod tarbiyasiga ham juda katta e'tibor qaratilgan. Xususan, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faoliygini oshirish; o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish; yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish; yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharotlarni yaratish; yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish vazifalari bosqichma-bosqich hal etilsa, O'zbekistonda har jihatdan mukammal, Vatan taraqqiyoti uchun mas'ul yoshlar voyaga yetadi. Buning uchun yoshlar masalasiga daxldor barcha darajadagi idora va tashkilotlar o'zaro hamkorlikda ish olib borishi, uzviy va izchil chora-tadbirlarni qat'iy tartibda amalga oshishi maqsadga muvofiqidir.

Hozirgi davrdagi jadal taraqqiyot tendensiyalari mamlakatimizni industrial rivojlantirishda shaxs salohiyati, ma'nnaviy-intellektual omil rivojiga ustuvor ahamiyat qaratishni dolzarb masalaga aylantirdi. Vatanimizning barqaror taraqqiyoti uchun mayjud intellektual salohiyatni samarali ishga solish, mutaxassislarning o'z faoliyatiga ongli yondashuvini shakllantirish, ularning shaxsiy mas'uliyat va tashabbuskorlik fazilatlarini kuchaytirish katta ahamiyatga ega. Insonning shaxsiy mas'uliyat, tashabbuskorlik hamda fidoyilik fazilatlari esa, Vatanni chin dildan sevishdan, vatanparvarlikdan kuch oladi. Shu boisdan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Har qanday davlat siyosatining asosini vatanparvarlik tarbiyasi tashkil etadi", deb alohida ta'kidlaydi. Vatanparvarlikning harakatlantiruvchi kuchi esa, odamlarning o'z ma'nnaviy bisotlari, intellektual mulklarini nechog'lik boyitishlari, kitob mutolaasiga nechog'lik kirishishlari bilan o'chanadi. Shu sababli Prezidentimiz kitob mutolaasini rivojlantirish masalasini davlatimizning ustuvor siyosati darajasiga olib chiqdilar.

**Iskandar OTABAYEV,**  
O'MKHTKMO va UQT instituti mustaqil izlanuvchisi

## **MODULLI O'QITISHNI TA'LIM JARAYONIGA QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada samarali o'qitish texnologiyalaridan biri bo'lgan modulli o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Shuningdek, modulli o'qitish orqali ta'limdi individualashtirish, o'qitish mazmunining variativligini aniqlash, o'quvchilarni amaliy faoliyatga o'rgatish kabi masalalar keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Ishlab chiqarish ta'limi, modulli o'qitish texnologiyasi, modul, tizimli yondashuv, individualashtirish, modul dasturi, o'quv paketi, o'quv elementi, o'rgatuvchi modul.

В статье раскрыты особенности системно-деятельностного подхода на основе использования технологии модульного обучения, а также обоснованы возможности данной технологии в процессе производственного обучения и формирования необходимых умений и навыков у учащихся профессиональных колледжей.

**Ключевые слова.** Производственное обучение, технологии модульного обучения, модуль, системный подход, индивидуализация, модульная программа, учебный пакет, учебный элемент, обучающий модуль.

The article describes the possibilities for system-active approach, particularly the use of modular technology training as well as the reasonably possible technology in the form of vocational training and skills of students of professional colleges.

**Key words.** Industrial training, modular training technology, module, system approach, individualization, modular program, training package, educational element, training modules.

**H**ozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. O'qituvchi bu jarayonda bevosita va bilvosita ishtirok etib, ta'lim-tarbiya jarayonida boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Shu bois ta'lim muassasalarida zamonaviy interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli nihoyatda katta.

Ayniqsa, modulli o'qitish texnologiyasi jahondagi turli mamlakatlarda tez tarqalmoqda. Modulli o'qitish asoschisi amerikalik tadqiqotchi J.Rassel bo'lib, u o'quv modullini "o'quv materialining konseptual birligini va ta'lim oluvchiga belgilangan harakatlarni qamrab oluvchi o'quv paketi" sifatida birinchi bor ta'rifladi.

Mamlakatimizda ham ta'lim jarayoniga modulli o'qitishni tatbiq etish borasida bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Biroq shuni ta'kidlash mumkinki, hozirgi vaqtda pedagogik tadqiqotlarning mualiflari o'rtasida o'qitishning modulli texnologiyalari mohiyatini yoritishga yagona yonda-

shuv qaror topmagan. M.G. Davletshin, F.I. Haydarov va R.I. Sunnatovlarning fikricha, modul – bu ishlab chiqilgan qoidalar asosida o’quv fanining bitta yoki bir nechta asosiy tushunchalarni o’rganishga yo’naltirilgan, o’quv materialini mantiqan tugallangan qismi deb qaraladi.<sup>1</sup>

B. Nuriddinov esa, modul – ma’lum o’quv predmeti bo'yicha aniq maqsadni ko'zda tutib, obyektlarning muhim jihatlarini mantiqan tugal va mukammal holda yorituvchi o’quv materialining didaktik birligi deb tushunadi.<sup>2</sup>

D.Fayzullayeva esa, modulli o’quv axboroti bu – ta’lim maqsadini belgilash va rejalashtirilgan natijalar bilan chegaralangan, fanlararo va fan ichidagi bog’liqlikni hisobga olib tuzilgan va yakuniy nazoratni darajali tizimini qamrab oluvchi, o’quv fani mazmunini mantiqan va tugallangan qismidir.

“Modul” tushunchasi modulli o’qitish tizimining markaziy tushunchasi hisoblanadi, biroq uni aniqlashga bo’lgan yondashuvlar ham qiymatli emas.

Mualliflarning ta’kidlashicha, modulli o’qitish jarayonini “funksional bog’lanishlar” tizimiga – kasbiy ahamiyatli atamalar va operatsiyalar tizimiga bo’lish yo’li bilan amalga oshirishni ifodalaydi, ular ta’lim oluvchilar tomonidan ko’proq yoki ozroq bir qiymatli bajariladi, bu esa o’qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishishga imkon beradi. Dastur mazmunining o’zlashtirilishini nazorat qilish tizimli loyihalanadi (kirish, joriy, oraliq, yakuniy), bu o’qitish jarayonining borishi to’g’risida ma’lumotlarni tezkor ravishda olishga va shu asosda zaruriy tuzatishni amalga oshirishga imkon beradi.

Modulli o’qitish texnologiyasining fan bo'yicha faoliyatga asoslangan yondashuvi modullarni o’quv rejasi va dasturlar tahlili natijasidan kelib chiqib tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida modullar bloki mutaxassisning kasbiy faoliyati tahlili asosida shakllantiriladi.

Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi ta’limning fanli tizimida modulli o’qitish texnologiyasini qo’llashni anglatadi. Bunday modulli o’qitish texnologiyasini oly ta’lim tizimida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari, pedagog va muhandis-pedagoglar mala-kasini oshirish tizimlarida qo’llash maqsadga muvofiqdir.

Modulli o’qitishning tizimli yondashuvi, asosan kasb-hunar ta’limi tizimida qo’llaniladi. Bu yondashuv doirasida modul bloklardan tashkil topadi, bunda kasbiy faoliyatning bir qismi tushuniladi va ular ketma-ket bajariluvchi, o’z navbatida, kasbiy ko’nikma va malakalarni shakllantirishga imkon beruvchi ishlab chiqarish amallaridan (ishlar qadami) iborat bo’ladi.

Bunday “Mehnat malakalari moduli” (MMM – o’qitish konsepsiyalari) Yevropa o’qitish konsepsiyasining asosiy qoidalariga mos keladi, u ko’pgina mamlakatlarda ta’lim jarayonida qo’llaniladi. MMMDa – modul bloki deganda “qat’iy belgilangan boshlanish va oxiriga ega bo’lgan faoliyatning qismi” tushuniladi, O’quv elementi deganda – faoliyatning har bir elementini bajarish bilimi, ko’nikmalari va malakalarini shakllantirish uchun zarur o’quv materialni o’z ichiga olgan risola tushuniladi.

MMM konsepsiyasini talablarga muvofiq modul dasturi avtonom modul blokining ketma-ket qatoridan tuziladi, modulli blok mazmun va funksional jihatdan yakunlangan kasbiy faoliyat birligidan iborat bo’ladi.

Tadqiqotimiz doirasida modul texnologiyasi “Mehnat malakalari modullari” Yevropa konsepsiyasining talablariga muvofiq modulli yondashuv asosida ishlab chiqiladi.

<sup>1</sup> Ashurova S. Y. Yengil sanoat yo’nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlashda maxsus fanlarni modulli o’qitishning ilmiy-uslubiy asoslari: diss. ... ped. fan. nom. – T., 2005. 137-b.

<sup>2</sup> Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o’qitishda bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy bilim va ko’nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: diss. ... ped. fan. nom. – T., 2006. 182-b.

---

Bu tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi bo'lib, uning quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etish mumkin:

– o'qitish mazmuni, kichik mutaxassis faoliyatining tizimli tahlili asosida shakllan-tiriladi;

– modulli dastur tarkibi kichik mutaxassisning kasbiy faoliyatiga uyg'un tarzda tu-ziladi. O'qitish dasturi alohida modullardan, modul bloklaridan, o'quv elementlaridan iborat bo'ladi. Modul bloki o'qitish dasturining tarkibiy qismi bo'lib, "boshlanishi va oxiri" kichik mutaxassis ishi va harakatining aniq ko'rsatilgan, tugallangan bo'lagidir;

– har qaysi modul blokini o'rganish, "O'quv elementi" yoki "O'rgatuvchi modul" deb ataluvchi maxsus ishlangan turli uslubiy qo'llanmalar bo'yicha amalga oshiriladi. Zururiyat tug'ilganda, har qaysi o'quvchi uchun individual o'qitish dasturlari tuziladi. "O'quv elementi" (O'rgatuvchi modul) o'quvchiga, mustaqil ravishda o'quv materialini o'zlashtirishga imkon beradi;

– o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabati teng huquqlilik va o'quv elementla-ri ("O'rgatuvchi modul")ni o'rganish jarayoniga o'zaro bog'liq holda kechadi.

Tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish – o'qitish mazmunini tanlab olishni (maz-mun darajasi) va o'qitish texnologiyasini ishlab chiqishni (texnologik daraja) o'z ichiga oladi.

Modul dasturini ishlab chiqish quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1) tayyorlanadigan mutaxassislar kasbiy faoliyatini tahlil qilish;

2) modul bloklarini ajratish;

3) modul bloklarini tahlil qilish;

4) o'quv elementlarini ishlab chiqish;

5) o'quv elementlarini o'rganish ketma-ketligini ishlab chiqish.

Modulli o'qitishda o'quvchilarni o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olishi uchun shart-sha-roitlar yaratiladi.

O'qitishning modul tizimiga o'tish quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

– o'quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;

– professor-o'qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;

– ko'zlangan natijalarni baholash;

– didaktik materiallar ishlab chiqish;

– natijalarning tahlili va modullarni optimallashtirish.

Shuningdek, o'qitishning modul tizimining afzalliklari quyidagilar:

– fanlar, fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzlusizligi ta'minlanadi;

– har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligi o'rgatiladi;

– o'quvchilar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinadi;

– informatsiyani "siqib" berish natijasida, o'qishni jadallashtirish, auditoriya so-atlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqtini tarkibini, ma'ruzaviy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlarni uchun ajratilgan soatlar optimallashtiriladi.

Buning natijasida o'quvchi yetarli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladi.

Modulli o'qitishdan foydalanib kichik mutaxassisni tayyorlash quyidagilar asosida ta'minlanadi:

– o'qitishning uzlusizligi (bunda fanlarni o'zlashtirish samaradorligi oshadi);

– o'qitishni jadallashtirish (buning natijasida informatsiyaning ko'p qismi individual va mustaqil ishlangan paytida kompyuter tarmoqlari orqali o'zlashtiriladi);

– o’qishni individuallashtirish (o’quvchi qobiliyatiga ko’ra bilim olish imkoniyatiga ega bo’ladi).

O’qitishning modulli ta’lim texnologiyalarining asosiy o’quv maqsadlari quyida-gilar:

- ta’lim oluvchining o’ziga mos sur’atda ishlashi;
- ta’lim mazmunini o’zgaruvchan tarzda qurish;
- uning turlari va shakllarini integratsiyalash;
- o’quvchilarda mustaqil ravishda ta’lim olish ko’nikmalarini shakllantirish va ularni yuqori darajadagi natijalarga erishtirish. Bundan ko’rinadiki, yuqoridagi bayon qilingan maqsadlarning oxirgisi modulli o’qitishning bosh, yetakchi maqsadi hisoblanadi.

Modulli ta’limning mohiyati shundan iboratki, bunda o’quvchi modul bilan ishlashda o’quv-biluv faoliyatining aniq maqsadlariga mustaqil ravishda (yoki o’qituvchi yordamida) erishiladi.

Modulli ta’limning o’ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Modulli ta’limning mazmuni tugallangan mustaqil komplekslarda ifodalanadi. Har bir kompleks o’quv materiali shunday qurilishi kerakki, u har bir o’quvchi tomonidan uni oldiga qo’ylgan didaktik maqsadlarga erishishiga imkon yaratishi kerak.

Bunda o’quvchi uchun o’quv maqsadi shunday ifodalanishi kerakki, u shaxsiy ahamiyat va kutilgan natija sifatida tushunish va anglash imkoniga ega bo’lsin. Didaktik maqsad o’z ichiga o’rganilayotgan material hajmiga va uni o’zlashtirish darajasiga oid ko’rsatmani oladi. Bundan tashqari har bir o’quvchi o’qituvchidan samarali faoliyat ko’rsatish uchun o’quv materialni qayerdan topish bo’yicha yozma ravishda maslahatlar olishi kerak.

2. Modulli ta’lim o’qituvchini o’quvchilar bilan bo’ladigan muloqot shakllarini o’zgarishini ko’zda tutadi. U o’quvchilar bilan modular orqali ham bevosita – har bir o’quvchi bilan individual tarzda muomala qiladi. Modulli ta’limgina o’qish-o’qitishni subyekt-subyekt asosga, ya’ni o’quvchini faol bo’lishga, o’quv jarayonida subyekt holatiga o’tkazishga imkon yaratadi. O’qituvchi har bir o’quvchiga individual yondashuv asosida maslahat – koordinatsiyalashuvchi funksiyani bajaradi. Bu esa, pedagog va ta’lim oluvchiga o’qish-o’qitishni optimal yo’llarini birgalikda tanlashga imkon beradi. Natijada ta’lim jarayonida o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi munosabatlar teng huquqlik bo’lib boraveradi.

3. O’quvchining o’quv-biluv faoliyatini yuqori darajada o’zini o’zi tashkil etilishi. U o’quv maqsadlarni mustaqil qo’yishga, faoliyat usullarini tanlash ko’nikmasiga, o’z harakati va munosabatlarini boshqalar bilan moslashtirish va muvofiqlashtirishga asoslangan. Modulli o’qitish sharoitida o’quvchi mustaqil ishlaydi, o’quv-biluv faoliyati ularning anglangan predmeti va idroki bo’lib qoladi.

O’quvchi maqsad qo’yishni, o’z faoliyatini tashkil etishni, nazorat qilishni va baholashni o’rganadi. Natijada har bir kishi o’zining bilimlari va ko’nikmalaridagi mavjud kamchiliklarni ko’rishi mumkin.

4. Bosma materialga asoslangan modullarning mavjudligi o’qituvchiga o’quvchilar bilan ishlashni individuallashtirishga, ya’ni o’quvchiga alohida e’tibor qaratgan holda ularning har biriga maslahat berishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, o’qitishning modul texnologiyasi qator afzallikkлага ega: dastur mazmuni ta’lim oluvchining imkoniyat va ehtiyojlari, ishlab chiqarish korxonasing mutaxassislar kasbiy malakasiga qo’ydigan talablardan kelib chiqqan holda belgilanadi, zarurat tug’ilganda dasturga tuzatish kiritiladi, mavjud dasturlar asosida

---

yangilar yaratiladi. O'qituvchi va ta'lif oluvchining teng huquqli munosabatlari shakllantiriladi, turli o'quv fanlari bilimlarini bitta ixtisoslik doirasida integratsiyalab o'rganiladi, eng muhimmi, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ko'nikma va malakalar bosqicha ma-bosqich shakllantiriladi.

Bundan tashqari, kasb-hunar kollejlarida o'quv amaliyoti jarayonida modulli o'qitish texnologiyasini qo'llash kasbiy motivatsiya asosida ta'lifni individuallashtirish, o'qitish mazmunining variativligini ta'minlash, o'quvchilarni amaliy faoliyatga o'rgatish, o'qitish natijalarini tezkor nazorat qilishga imkon beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ashurova S.Y. *Yengil sanoat yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlashda maxsus fanlarni modulli o'qitishning ilmiy-uslubiy asoslari: dis. ... ped. fan. nom. – T., 2005. 137-b.*
2. Abdullayeva Q.M. *Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: dis. ... ped. fan. nom. – T., 2006. 182-b.*
3. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. *Kasb-hunar kollejlarida kasbiy fanlarning modulli o'qitish texnologiyalari. – T.: Yangi asr avlod, 2003. 88-b.*
4. Кроше Э. Руководство по модульной системе профессионально-технического обучения. – Женева: Бюро проф.- тех обучения Международной организации труда, 1998. – С. 124.
5. Черноглазкин С. Ю. О деятельности основах профессионального образования // Специалист. 2001. № 1. – С. 27-29.
6. Шамова Т.И. Управление образовательными системами. – М.: Владос, 2002. – С. 320.

---

**Tahririyat:** Ushbu mustaqil izlanuvchining bosh maqsadi ta'limda samarali o'qitish texnologiyalaridan biri bo'lgan modulli o'qitish orqali ta'lifni individuallashtirish, o'qitish mazmunining variativligini aniqlash va modulli o'qitish texnologiyasini – modul-larning o'quv rejasi va dasturlar tahlili natijasidan kelib chiqib tuzishdir.

Muallifning ushbu mavzu yuzasidan nazariy fikrlari asoslangan, biroq texnologiya berilmagan. Demak, tadqiqot va izlanishlar davom ettirilsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi.

**Feruza AZIMOVA,**  
Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi

## O’QUVCHILARNING EPIK ASARLAR TAHLILIGA DOIR KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

### **Annotation**

Mazkur maqolada adabiy ta’limda badiiy asarlarni tahlil qilishning nazariy-metodik asoslari hamda pedagogik ahamiyati yuzasidan mulohazalar bildirilgan. Xususan, epik asarlarni tahlil qilishning o’ziga xos xususiyatlari va o’quvchilarning epik asarlar tahliliga doir kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning samarali usullari yoritib berilgan. Epik asarlar tahlili vositasida o’quvchilarning adabiy va tayanch kompetensiyalarini takomillashtirish yuzasidan muhim ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar.** Adabiyot dasturi, badiiy matn, badiiy tahlil, tur, janr, epik asar tahlili, badiiy estetik mohiyat, poetik mahorat, pedagogik maqsad, adabiy kompetensiya, tayanch kompetensiyalar, kitobxonlik madaniyati.

В данной статье приводятся доводы по проблемам теоретически-методических основ и педагогического значения интерпретации художественных произведений в литературном образовании. А также рассматривается эффективные методы формирования и развития у учащихся компетенции по интерпретации эпических произведений. Имеются важные данные по совершенствованию литературных и ключевых компетенций учащихся посредством интерпретации эпических произведений.

**Ключевые слова.** Программа литературы, литературный текст, художественный анализ, вид, жанр, анализ эпического произведения, художественно-эстетическая сущность, поэтическое мастерство, педагогическая цель, литературная компетенция, ключевые компетенции, культура чтения книг.

Article gives reflections on the problems of the theoretical and methodological foundations and the pedagogical significance of the interpretation of art works in literary education. Also described the effective methods of forming and developing students' competence to interpret epic works. There are important data on improving the literary and key competencies of students through the interpretation of epic works.

**Key words.** Literature program, literary text, artistic interpretation, view, genre, interpretation of an epic work, artistic and aesthetic essence, poetic skill, pedagogical goal, literary competence, key competences, reading culture.

**B**adiiy matn tahlilida uning turi va janriga xos jihatlarni e’tiborga olib o’rganish undagi adabiy-ma’rifiy mazmunni to’la anglashga imkon beradi, emotsiunal ta’sirchanlikni oshirishga turtki bo’ladi. Zero, “Adabiy asarning badiiy-estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, ya’ni undagi turli-tuman qahramonlar, bir-biriga o’xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialog-

---

lar, o'y, xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash orqali o'zlashtiriladi". Badiiy asar matniga xos bu komponentlar tarkibi va tartibi o'z navbatida uning tur va janr xususiyatlarini ham namoyon qiladi. Jumladan, epik turga mansub asarlar tabiatida mazmuniy ko'lamdorlik, qahramonlarning voqeahodisalar og'ushida suzib yurishi, obraz va personajlar salmog'i, hayotiy sharoit va vaziyat tasvirlarining rang-barangligi, "har qanday hissiyot voqealar qa'riga berkitilgan bo'lishi", insonning ming bir qiyofa kasb etuvchi murakkab ruhiy dunyosi hayotiy ziddiyatlar, ijtimoiy muammolar va munosabatlar zamirida tasvirlanishi singari jihatlar asosiy o'rinda turadi. Shu bois, epik asarlarni o'rganish ham o'ziga xos tahlil va tal-qinni talab qiladi.

O'quv tahliliida adabiy ta'lif samaradorligini, pedagogik maqsad muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omil dasturiy talablarga amal qilish ekanligi hamisha adabiyot o'qituvchisining diqqat markazida turishi lozim. Adabiyot fani o'quvchilarda tahlil yo'nalishini to'g'ri tanlashga, vaqtidan samarali foydalanishga, o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga, ularning adabiy-nutqiy va tayanch kompetensiyalarini takomillashtirishga keng imkon yaratadi. Bu ayniqsa, ham hajman, ham mazmunan anchayin salmoqdur bo'lgan epik asarlarni o'rganishda nihoyatda ijobiy mohiyat kasb etadi. Xususan, Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasini badiiy tahlil qilishda dasturga murojaat qilish, tahlil jarayonini rejalashtirib amalga oshirish talabi ancha baland. Chunki asar trilogiya bo'lgani bois uning voqealar ko'lami nihoyatda keng va shiddatkor, obrazlarining xarakter-xususiyati, psixologiyasi rang-barang va betakror. O'qituvchi pedagogik maqsadni aniq belgilagan holda darslikda berilgan parchani dasturiy talablarga muvoofiq poetik tahlil qilishni to'g'ri yo'lg'a qo'ya olsa, o'quvchini mazkur asarning to'liq variantiga, romanning har uchala kitobiga chuqurroq qiziqtirishi, hattoki, Said Ahmad ijodiga, umuman nasr janriga e'tiborini oshirishga erishishi ehtimoldan xoli emas.

Asarni o'rganishdan oldin o'qituvchi trilogiya haqida, uning tarkibiga kirgan uch roman ("Qirq besh kun", "Hijron kunlarida", "Ufq bo'sag'asida" romanlari) haqida, uning tuzilishi, o'ziga xos yirik nasriy asar ekanligi haqida, asarning til xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot beradi. Shuningdek, o'qituvchi yozuvchining "Qadrdon dalalar", "Hukm", "Sud", "G'ildirak", "Kiprikda qolgan tong", "Umrim bayoni" kabi qissalarning yaratilish tarixi, bu asarlarning syujeti, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida ham fikrmulohazalar bildiradi.

Umumiyligi o'rta ta'lif hamda o'rta maxsus ta'lifning Adabiyot fani o'quv dasturlarida mazkur romanini o'rganish yuzasidan tavsiyalar berilgan va darsliklarga asardan muayyan parchalar kiritilgan. Chunonchi, "Ufq" trilogiyasi umumiyligi ta'lifning 8-sinfida, akademik litseylarning uchinchi bosqichida o'rganiladi. Maktab darsligida roman dan "Qochoq" parchasi, akademik litseylarning Adabiyot majmuasida esa, asarning uchinchi bo'limidan parchalar keltirilgan. Bu ikkala parcha aslida bir-birining mantiqiy davomi. Ular asosan bir kitob ("Hijron kunlarida")dan olingan. Mazkur parchalar mazmunidan ularning o'quv dasturlarida berilgan tavsiyalar asosida tanlanganligi sezilib turadi. Adabiyot fani o'quv dasturlarida asarni quyidagi jihatlarga ko'ra o'rganish va tahlil qilish mumkin:

Umumiyo'rta ta'limganing 8-sinfida	O'rta maxsus ta'limgining III bosqichida
<p>Yozuvchining “Ufq” trilogiyasi haqida ma'lumot.</p> <p>Romanda ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek xalqi hayotining haqqoniy tasvir etilishi. “Hijron kunlarida” kitobining bosh qahramoni Ikromjon – murakkab taqdirli shaxs. Beshaftaqat urushning asar qahramonlari taqdiridagi izlari. Erka farzand – qochoq Tursunboy qismati. Yozuvchining xarakter yaratishdagi milliy o'ziga xosligi. Asardagi tabiiylik va ruhiy tahlil. Roman tilining jozibadorligi. Asarning tarbiyaviy ahamiyati.</p>	<p>“Ufq” trilogiyasi adibning yirik prozadagi ulkan yutug'i. Unda o'zbek xalqining boshidan kechirgan ulkan ijtimoiy-siyosiy voqealar, inson va uning vatan, ota-onva jamiyat oldidagi burchi, sadoqat va xiyonat kabi axloqiy-ma'naviy muammolarining badiiy talqini.</p>

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rindan, har ikkala dastur mualliflari ham asarni o'rganishda, avvalo, o'quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlarga, intellektual salohiyatlariga jiddiy e'tibor qaratishgan. Bundagi asosiy farqli jihat 8-sinflarda “Ufq” trilogiyasini o'rganish orqali o'quvchilarning poetik tahlil malakalarini rivojlantirish, nazariy tushunchalarini kengaytirishga yo'naltirilganligida va didaktik prinsiplarga chuqurroq tayanilganligida ko'rindi. Chunki “qochoq” Tursunboyning ayanchli qismati o'quvchilarni turli o'zanga burib yuboradi. Ikromjonning, Jannat xolaning murakkab taqdirlari, iztirobl holat va kechinmalari befarq qoldirmaydi. Bu davrda o'quvchilarning hissiy ta'sirchanligi bir qadar yuqori bo'ladi, ular taqdirning turli qismatiga, hodisalarga kuchli hayrat bilan boqishadi. Shuningdek, salbiy oqibatlarning tub ildizlarini aniqlashga qiziqishadi. Asar qahramonlarining taqdiridan muayyan xulosalar chiqara olishadi. Akademik litsey ta'lim bosqichidagi talabalar esa anchayin ulg'aygan, mustaqil shaxs sifatida shakllangan, intellektual salohiyati ham ancha mukammallahashgan. Bu davrda hissiy ta'sirchanlik burch va mas'uliyat tuyg'ulari bilan uyg'unlashadi. Ayni shu jihatlarni e'tiborga olib, adabiyot o'qituvchisi “Ufq” trilogiyasi tahlilida, albatta, dasturdan chetlashmasligi lozim. Unga qayta-qayta murojaat qilib, uning har bir ko'rsatmasini mukammal ado etish adabiy ta'lim samaradorligini oshiradi. O'qituvchi tahlil jarayonida dasturda belgilab berilgan muammolarni oydinlashtirishga jiddiy ahamiyat bermog'i joiz.

Xususan, 8-sinf Adabiyotfani o'quv dasturida ikromjon va Tursunboy obrazlarining murakkab qismatini, ruhiy olamini tahlil qilish ko'zda tutilgan. Shunga ko'ra, asardan bu ikki obrazning ma'naviy qiyofasi, ichki kechinmalarini aniq va ta'sirchan yorituvchi o'rirlarni tanlab, ularni o'quvchilar e'tiboriga havola qilish lozim. Darslikda berilgan parchadagi ikromjonning Tursunboyni to'qayda uchratib qolish jarayonlari va o'g'liga nisbatan ham nafratli, ham muhabbatli munosabati, ayanchli kechinmalar ana shunday nihoyatda hayajon bilan o'qiladigan, nihoyatda chuqur iztirob bilan qabul qilinadigan o'rirlar hisoblanadi. Ayni shu hodisalar og'ushida qahramonlar o'rtasida, ularning ruhiy olamida sodir bo'ladigan konfliktlar asarning emotSIONAL ta'sir kuchini oshirishga hissa qo'shgan. O'qituvchi ushbu jihatlar tahliliiga keng e'tibor qaratishi natijasida o'quvchilarini Tursunboyning ayanchli qismatidan ibratli xulosa chiqarishga undash, asar badiiyatiga oshno qilish orqali uni to'liq o'qishga intilishlarini kuchaytira olish imkoniga ega bo'ladi. Bunda quyidagi topshiriqli jadvaldan tarqatma vosita sifatida foydalanim, o'quvchilar faoliigini ta'minlash, asar bilan yaqindan tanishishlariga imkon yaratish mumkin:

Ikromjon o'g'li Tursunboy bilan ilk uchrashganda o'zini qanday tutdi?	Nima sababdan Ikromjonning Tursunboyga g'azabi jo'shib ketdi?	Tursunboy otasining ta'na dashnomlari, kaltaklariga qarshilik ko'rsatdimi? Nima uchun?	Asarda Tursunboyning qilmishlarini oqlaydigan sabablar ko'zga tashlanadimi?	Tursunboyning o'rniда bo'lganiningizda qanday ish tutar edingiz? Ikromjonning o'rnidachi?

Mazkur savollar yechimini hal qilish uchun o'quvchi, albatta, bevosita asarga murojaat qiladi, uni uyida o'qimagan bo'lsa, dars jarayonida tanishadi, natijada obrazlarning keyingi taqdiriga qiziqib, mazkur trilogiyaning barcha kitoblarini o'qib chiqishga ehtiyoj sezadi. Epik asarlar tahlilida murakkab taqdirli, murakkab xarakterga ega qahramonlar o'mniga o'zini qo'yib ko'rib, mushohada yuritishga undovchi savollar o'quvchining dunyoqarashini kengaytirish bilan bir qatorda uning shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga, insoniy sifatlarini sayqallashtirishga munosib zamin yaratadi. Ulardagi kommunikativ, ijtimoiy faol fuqarolik va shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kabi tayanch kompetensiyalarning tarkib topishi va takomillashishini ta'minlaydi. Savol, topshiriqlar asosida muammoli vaziyatlar yaratish o'quvchini tabiiy ravishda kitobga, adabiy asarga oshno qila oladi. Buning uchun faqatgina asardan o'quvchi sezgilarga nihoyatda tez va qattiq ta'sir qiladigan, mulohazakor o'rnlarni tanlash kifoya. "Ufq" trilogiyasida ota va o'g'il o'tasidagi keskin vaziyatlar, konfliktli munosabatlarni yozuvchi ham tabiiy, ham badiiy jihatdan ancha mukammal yoritib bera olganki, ular o'quvchi sezgilariiga oson ta'sir eta oladi, uning xayollarini to'zg'itib, mulohazaga chorlay oladi. Bunda ota va o'g'il xarakterini qiyosiy o'rganish orqali ham o'quvchilarni asarning badiiy-estetik olamiga olib kirish, hayotiy ziddiyatlar, murakkab taqdirlar bilan kengroq tanishtirish imkonи kengayadi:

Obrazlar	Obrazlar ruhiy dunyosini yorituvchi poetik vositalar					
	Portet tasviri	Dialog:	Monolog:	Yozuvchi xarakteristikasi:	Asardagi boshqa obrazlarning shu obraz haqida bildirgan fikrlari:	Mazkur obrazlar haqida sizning fikringiz:
Ikromjon						
Tursunboy						
Jannat xola va h.k.						

Said Ahmadning hayoti va ijodiy faoliyati ("Sobiq", "Qoplon" hikoyalari) bilan o'quvchilar 6-sinfda ancha chuqur tanishganlar. Shuning uchun 8-sinfda adibning "Ufq" trilogiyasining muayyan jihatlarini o'rganish ko'zda tutiladi. Akademik litsey ta'lim bosqichida esa bu imkoniyatlar yanada kengayadi. Shunisi e'tiborlik, amal-dagi Adabiyot fani o'quv dasturlarida mazkur trilogiyani o'rganishga ajratilgan fursat ikkala ta'lim bosqichida ham teng taqsimlangan. Ya'ni, umumiy o'rta ta'linda ham, o'rta maxsus ta'linda ham "Ufq" trilogiyasini o'qib-o'rganish uchun bir xil soat vaqt

ajratilgan. Bu asar epik turning yirik janrida yozilgani, voqealar ko’lami kengligi, obrazlar xilma-xilligiga ega ekanligini e’tiborga olsak, asarni yetarlicha o’rganish va tahlil qilish uchun vaqt va hajm masalasi o’tasida ziddiyatlar kelib chiqishi tabiiy. Shu o’rinda qayd etish joizki, umumiy o’rtta va o’rtta maxsus ta’limning kompetensi-yaviy yondashuv asosida takomillashtirilib, tajriba sinovdan o’tkazilayotgan Adabiyot fani o’quv dasturlarida bu borada muayyan ijobjiy o’zgartirishlar mavjud. Ta’lim bosqichlari o’tasidagi uzviylik va uzlusizlik, izchillikni ta’minlash maqsadida dastur mualliflari umumiy o’rtta ta’lim 8-sinfida va gumanitar yo’nalishdagi akademik litsey-larda Said Ahmad ijodini o’rganishga to’rt soat vaqt ajratishgan. Amaldagi Adabiyot fani o’quv dasturida “Ufq” trilogiyasini o’rganish yuzasidan berilgan tavsiyalar keng qamrovli va pedagogik ahamiyatlari ekanligini inobatga olib, mavjud mazmunni saqlagan holda soatlar miqdorining kengaytirilganligi o’quvchilarga “Ufq” trilogiyasining badiiy-estetik mohiyati, adabiy-ma’rifiy ahamiyati borasida yetarlicha bilim olish imkonini beradi. Bunday yondashuv o’quvchilardagi tayanch va adabiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo’naltirilganligi jihatidan ham xarakterlidir. Shu boisdan, dasturga tayangan holda tahlil usuli va yo’nalishini aniq belgilab, muayyan reja asosida ish ko’rish maqsadga muvofiq. Bunda, avvalo, asardan berilgan parchani o’quvchilar uyda o’qib kelishlari kerak. Dars jarayonida esa tahlilga tortilishi lozim bo’lgan jihatlarni rejalar ketma-ketligi asosida oydinlashtirib borish samarali faoliyat kasb etadi. Shunga ko’ra “Ufq” trilogiyasi tahlili uchun quyidagi rejani tavsiya qilish mumkin:

<b>Umumiy o’rtta ta’limning 8-sinfi uchun:</b>	<b>O’rtta maxsus ta’limning III bosqichi uchun:</b>
<ol style="list-style-type: none"> <li>S.Ahmadning hayoti va ijodi bilan bog’liq muhim jihatlarni savol-javob yordamida o’quvchilarga eslatish.</li> <li>Yozuvchining “Ufq” trilogiyasi haqida ma’lumot berish.</li> <li>Romanda ikkinchi jahon urushi davrida o’zbek xalqi hayotining haqqoniy tasvir etilishini asardan tanlangan misollar orqali tushuntirish.</li> <li>Bosh qahramon Ikromjon – murakkab taqdirli shaxs. Uning taqdiridagi murakkab vaziyatlarga, konfliktlarga to’xtalish.</li> <li>Beshafqat urushning asar qahramonlari taqdiridagi izlarini o’rganish.</li> <li>Qochoq Tursunboy – erka farzand. Uning ayanchli qismatiga sabab bo’lgan omillar.</li> <li>Yozuvchining xarakter yaratishdagi milliy o’ziga xosligi.</li> <li>Asardagi tabiiylik va obrazlar ruhiyatining badiiy-estetik ifodasi.</li> <li>Romanning badiiy til imkoniyatlari.</li> <li>Asarning ma’naviy-axloqiy ahamiyati, badiiy qimmati.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>S.Ahmadning ijodiy merosini yorituvchi muammoli savollar asosida o’quvchilarning mavzuga tegishli bilimlarini aniqlashtirish.</li> <li>“Ufq” trilogiyasiga adibning yirik prozadagi ulkan yutug’i sifatida munosabat bildirish.</li> <li>Asarda o’zbek xalqining boshidan kechirgan ulkan ijtimoiy-siyosiy voqealarning badiiy ifoda topishi.</li> <li>Nizomjon obrazining voqealar rivojidagi, asar badiiyatidagi, Ikromjon va Jannat xola hayotidagi va ularning xarakter qirralarini yoritishdagi o’rni.</li> <li>Romanda inson va uning vatan, ota-onasi va jamiyat oldidagi burchi, sadoqat va xiyonat kabi axloqiy-ma’naviy muammolarning badiiy talqini.</li> <li>“Ufq” trilogiyasining badiiy-estetik ahamiyati, ma’naviy-ma’rifiy mohiyati.</li> <li>Said Ahmadning poetik mahorati.</li> </ol>

---

To'g'ri, bir qaraganda, asarni mazkur rejalar asosida o'rganish uchun vaqt chegarasi yetarlicha imkon bermasligi mumkinday tuyuladi. Bu muammoni yechish uchun bizga adabiy tahlilning "Tadqiqot usullariga tayanib, adabiy asarlarni o'rganish va tahlil qilish" usuli yordamga keladi. Bunda yuqorida tavsiya qilingan rejaning eng muhim sanalgan qismlarini dars jarayonida tahlil qilib, qolgan qismlarini o'quvchilarga *mustaqil ish, referat, adabiy taqriz* shaklida uyg'a vazifa sifatida topshirish mumkin. Bu jarayonda asarning o'rganilmagan qismlarini tadqiqot usulida tahlil qilib kelish vazifasini o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyati, qiziqish doirasi, individual xususiyatlari, intellektual salohiyatini e'tiborga olgan holda yuklash o'rinnlidir. Zero, badiiy tahlilga yo'naltirilgan darslarni tadqiqot usulida tashkil etganda, mavzuni o'zlashtirish o'quvchi-talabalar uchun "ham qiziqarli, ham maroqli kechadi, chunki o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan mavzu doirasida mustaqil ish olib boradilar. O'quvchilarning izlanishlarini esa o'qituvchi tashkil etadi va boshqaradi"<sup>1</sup>. Badiiy tahlil jarayonida tadqiqot metodidan foydalanish talablarini aniq ko'rsatib bergen olima M.Mirqosimovaning fikrlariga qo'shimcha qilish mumkin.

Tadqiqot metodiga tayanilgan tahlillarni amalga oshirishda, shuningdek, quyidagi jihatlarga ham e'tibor qaratish lozim:

- a) mustaqil ish mavzusi va shaklini (referat, adabiy taqriz) o'quvchining intellektual salohiyati, individual xususiyatlarini nazarda tutib, ulardagi tayanch va adabiy kompetensiyalarni takomillashtirishga yo'naltirigan holda belgilash;
- b) tahlil uchun tanlangan asarning badiiy-estetik jihatlariga keng o'rin ajratish;
- c) muayyan reja asosida tizimli ish olib borish;
- d) yozuvchining poetik mahorati, individual uslubini yorituvchi jihatlarga chuqurroq to'xtalish va h.k.

Badiiy asarni tadqiqot metodi asosida tahlil qilish umumiy ta'limming, asosan, 8-, 9-sinflarida, ayniqsa, akademik litseylar adabiy ta'limalda samarador kechadi. Chunki bu davrda o'quvchilar muayyan adabiy tahlil malakasiga, badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalariga ega bo'lishadi, yosh xususiyatlari ham bunday tahlillarni amalga oshirish uchun murakkablik tug'dirmaydi. Bu kabi tahlillar o'quvchilarni o'rganiladigan asar ustida chuqqurroq izlanishga, shu asar matni bilan to'laligicha tanishib chiqishlariga undaydi; yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi tushunchalarini boyitib, adabiy-nazariy ma'lumotlarini kengaytiradi. Muhibi esa, ularda adabiy tanqidchiga xos malakalar kurtak otadi, badiiyatga yanada mustahkam oshno bo'ladi, kitobxonlik madaniyati, tayanch va adabiy kompetensiyalari takomillashadi.

Epik asarlarni o'rganish va uning poetik tahlilini amalga oshirishda dasturiy ko'rsatmalarga muvofiq ish yuritish jarayonida o'quvchilarda quyidagi *adabiy-nutqiy* (predmetga oid) kompetensiyalar shakllanadi va rivojlanadi:

- muayyan *adabiy asarni o'qib-o'zlashtirish* (badiiy matnni ifodali o'qish, rollarga bo'lib o'qish), uning mazmun-mohiyatini anglash;
- o'z *fikrini og'zaki va yozma bayon qilish* (berilayotgan savol va topshiriqlarga og'zaki munosabat bildirish jarayonida fikrini aniq va asosli bayon qilish, yozma ish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. Adabiyot fani bo'yicha uzlucksiz majburiy ta'limumning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari loyihasi. – T., 2016.

(bayon, insho, taqriz, referat)lar yozish jarayonida adabiy nutq me’yorlariga riosa qilish, chuqur va mulohazali fikr yuritish, poetik til va poetik tasvir vositalaridan sermahsul va o’rinli foydalana olish);

– *asar qahramonlariga munosabat bildirish* (asar ishtirokchilari xatti-harakatiga, xarakter-xususiyatiga, ijodkor mahoratiga baho berish);

– *poetik tahlil qilish* (o’rganilayotgan asarning badiiy-estetik mohiyatini teran tahlil (analiz va sintez) qilish, asarning tur va janr xususiyatlarini hisobga olish; ijodkorning individual uslubini farqlash);

– *yuksak didli kitobxonlik* (ta’lim jarayonida o’rganilayotgan asarning badiiy-estetik mohiyatini yetarlicha anglashga erishish, badiiy puxta va pishiq asarlarni sayoz asarlardan farqlay olish, badiiy asarlarni muntazam ravishda o’qib, o’zlashtirib borish va h.k.).

Shuningdek, mazkur adabiy kompetensiyalar bilan parallel ravishda o’quvchilarda quyidagi tayanch (metapredmetli, shaxsiyatga oid) kompetensiyalar ham takomillashadi:

– *kommunikativ* lingvistik savodxonlik, adabiy va ilmiy uslub qoidalarini o’zlashtirish, verbal va noverbal nutq ko’nikmalarini o’zlashtirish, o’zaro fikr almashish, voqelikni tahlil etishda erkin muloqotga kirishish, tarixiy va zamonaviy jarayonlarga o’zining xolisona munosabatini bildirish, fikrni tinglash va semantik xususiyatlarini tahlil etish;

– *axborotlar bilan ishlash* (media resurslari va vositalaridan o’z shaxsiy va intellektual takomiliga ijobiy ta’sir etuvchi axborot manbalari, adabiy materiallarni tanlash va saralash, ularga ongli ravishda munosabat bildirish, ulardan munosib foydalanish va yetkazib berish, kundalik faoliyatida uchraydigan hujjatlar bilan ishlay bilish);

– *shaxs sifatida o’z-o’zini rivojlantirish* (ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni o’zining doimiy hayotiy-ma’naviy ehtiyojiga aylantirish, hayoti davomida turli yo’nalishdagi (badiiy, publisistik, ilmiy, ilmiy-ommabop, fan va texnika, san’at va boshqalarga doir) kitoblarni muntazam o’qish va o’rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish);

– *ma’naviy-axloqiy* jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlarini o’zlashtirish va amal qilish, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni o’zlashtirish va o’z hayotiy faoliyatni mezoniga aylantirish, ma’naviy tahdidlarga qarshi kurasha olish, ma’naviy targ’ibot va tashviqot ishlarida faol ishtirok etish;

– *estetik borliqning* mohiyatini go’zallik bilan uyg’unlashgan yuksak kechinmalar asosida o’zlashtirish, o’z his-tuyg’u va ehtiroslarini boshqarish, voqeа-hodisalardan hayajonlanish, quvonish, iztirob chekish, nafratlanish, badiiy-estetik reallik, uning jamiyat ma’naviyatidagi o’ziga xos xususiyati, chegaralari, yangilanish jarayonidagi o’rnini tushunish;

– *ijtimoiy faol fuqarolik* (jamiyatda bo’layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his qilish va faol ishtirok etish, ta’lim maskani va ta’lim maskanidan tashqari tadbirlarda (turli mavzudagi ko’rik-tanlovlар, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo’lish, badiiy asarlarda aks etgan yuksak ma’naviy fazilatlar, shuningdek, yuksak badiiyat namunalarini anglash, his etish va boshqalarga yetkazishga intilish). O’zida yuksak ma’naviyatli, fuqarolik pozitsiyasiga ega o’quvchi shaxsini tarkib toptirishga qo’yilayotgan ijtimoiy talabni

---

to'liq aks ettirishi;

– *umummadaniy* (badiiy adabiyot va san'atda aks etgan vatanparvarlik, inson-parvarlik g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash, ulardan ta'sirlanish, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish, badiiy asarlarda aks etgan tarixiy, ma'naviy va madaniy hodisalar mohiyatini to'g'ri tushunish va talqin qila olish, ulardagi estetik jihatlarni ilg'ash hamda tushuntirib bera olish);

– *matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish* (aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, inson hayoti va mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish va h.k.).

Ko'rindaniki, epik asarlar jamiyat va inson hayotining turli qatlamlarini, inson ruhiyatining turli qiyofalarini qamrab olganligi bois ularni tahliliy asosda o'rganish, bunda didaktik prinsiplarga tayanish adabiy ta'lif samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Badiiy asar matniga, o'rganiladigan mavzu va undan ko'zlangan pedagogik maqsadga qarab tahlil o'zanlari ham turli oqimga burilib boraveradi. Bir xil janrdagi yoki bir xil mavzudagi asar uchun tahlil turli ko'rinishda, turli shakl va mazmunga ega bo'lishi mumkin. Ammo adabiy ta'lif jarayonidagi tahlillar uchun, albatta, pedagogik maqsadga yo'naltirilganlik (bunda o'quvchilarda adabiy va tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirish, yuksak badiiy didli kitobxonni tarbiyalash) tamoyili ustuvor maqsadga aylanishi lozim. Ana shunda dasturiy talablar ham yetarlicha bajariladi, poetik tahlil esa amaliy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lif markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi markazi. Adabiyot fani bo'yicha uzluksiz majburiy ta'lifning Davlat ta'lif standarti va o'quv dasturlari loyihasi.* – T., 2016.
2. *Adabiyot. Uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim-mavzu rejalar (5-, 9-sinflar).* Tuzuvchilar: N.G'ulomova, N.Abdullayeva. – T.: Sharq, 2010.
3. *To'xliyev B., Sarimsoqov B. Adabiyot. Akademik litseylar uchun namunaviy o'quv dasturi.* – T., 2000.
4. *B.To'xliyev. Adabiyot o'qitish metodikasi.* – T.: A.Navoiy nomidagi O'zb.MK. nashriyoti, 2010.
5. *Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari.* – T.: Fan, 2006.
6. *To'xliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot. Majmua. Akademik litsey-larning uchinchi bosqichlari uchun. Ikkinchisi nashr.* – T.: Cho'lpion, 2010.
7. *Olim S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan uchinchi nashr.* – T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2014.

Feruza JUMAYEVA,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O’zPFITI mustaqil izlanuvchisi

## TA’LIM SIFATINI TA’MINLASHDA DIDAKTIK O’YINLARNING O’RNI

### Annotation

Ushbu maqolada o’yinning pedagogik-psixologik jihatlari, turlari, tarkibi, o’qituvchi va o’quvchilarning imkoniyatlarini kengaytiruvchi funksiyalari ochib berilgan. Shuningdek, o’quvchilarida iqtisodiy bilimdonlikni rivojlantirishda o’yinlarning tutgan o’rni tavsiflangan, o’yin turlari ko’rsatilib, ularning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

**Kalit so’zlar.** Didaktik o’yinlar, ishchan o’yinlar, rivojlantiruvchi o’yinlar, krossvordlar, filvordlar, shifrogrammalar, kriptogrammalar, didaktik domino, yapon krossvordi, rebuslar.

В данной статье освещены психолого-педагогические аспекты игры, определены виды игр, их структура, раскрыты функции игры, влияющие на расширение возможностей учителя и учащихся. Охарактеризовано содержание и значение игр, способствующих повышению экономических знаний учащихся.

**Ключевые слова.** Дидактические игры, деловые игры, развивающие игры, кроссворды, филворды, шифrogramмы, криптограммы, дидактическое домино, японские кроссворды, ребусы.

Article describes the pedagogical-psychological aspects of the games, types, content, and functions of the teacher and students. It also describes the role of games in the development of economic knowledge and their meaning.

**Key words.** Didactic games, work games, developer games, crossword puzzles, filters, encryption, cryptograms, didactic dominoes, Japanese crossword, rebus.

**M**a’lumki, o’quvchilar hayotiy faoliyatining asosiy qismi o’yinlar bilan bog’liq. Mazkur o’yinlar o’quvchilarning bilimlarni o’zlashtirishlari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning mohiyatini anglab yetishlari uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki o’yinlar o’quvchi shaxsining o’z-o’zini tarbiyalashi va rivojlanishi uchun muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham o’yinlar o’quvchilarida foydali ko’nikmalar, odatlar, irodaviy sifatlarni shakllantiradi, ularning xotirasini mustahkamlaydi, sabr-toqat va diqqatni barqarorlashtiradi.

O’yinlarning pedagogik qimmati shunda ko’rinadiki, u bolalar jamoasini shakllantirish, ular orasida hamkorlik va do’stilikni qaror toptirish, muloqot muhitini vujudga keltirishga xizmat qiladigan qulay muhitni yaratadi. Shuning uchun ham, jamoaviy o’yinlarning natijalari ular orasidagi o’zaro munosabatlarni mustahkamlab, do’stona munosabatlarni barqarorlashtirishda namoyon bo’ladi. Shu bilan bir qatorda o’yinlar o’quvchilarida mehnat faoliyatini shakllantirishda, mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ular ongiga yetkazishda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi. O’yinlarning mehnat faoliyati va ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni rivojlantirishdagi mohiyati mutaxassislar tomonidan ham e’tirof etilgan. Ular yaxshi tashkil etilgan o’yin vaziyatlarini samarali tashkil qilingan mehnat

---

jarayonlariga o'xshatadi. Mukammal tashkil etilmagan o'yin jarayonlari esa, to'g'ri tashkillashtirilmagan faoliyat jarayoniga o'xshashini ta'kidlashadi.

Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan o'yin vaziyatlari o'quvchilarda ruhiy sifatlar, mehnat faoliyati ko'nikmalari, jamoaviylik va do'stlik tuyg'ularini shakllantirish imkonini beradi. Pedagogik tajribalar va ilmiy manbalarda o'yinlarning turli xillari mavjudligi o'z ifodasini topgan. Bu o'yinlarning har biri o'zining pedagogik tavsifi va tasnifiga ega.

Iqtisodiy ta'lif jarayonida o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishlariga ko'proq imkoniyat beradigan o'yinlar sirasiga didaktik, rolli, ishchanlik o'yinlarini ko'rsatish mumkin. Iqtisodiy ta'lif jarayonida qo'llaniladigan har bir o'yin qulay hissiy shaklga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga mazkur o'yinlar muayyan maqsadga yo'naltirilishi lozim.

Psiyologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinlar ta'lifning samarali vositasi hisoblanadi. Chunki o'yinlar jarayonida o'quvchilarda ijodiy tafakkur, mustaqillik va boshqa iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish va iqtisodiy munosabatlarga kirishish uchun zarur bo'lgan sifatlar tarkib topadi. Shu bilan bir qatorda, o'yinlar yangi iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish va mazkur sohadagi ko'nikmalarining shakllanishi uchun ham muhim didaktik vosita sifatida xizmat qiladi.

O'yinlardan iqtisod darslarining turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Masalan, yangi iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek, mavjudlarini mustahkamlash bosqichlarida ham didaktik o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'yinlar o'quv jarayonida o'quvchi shaxsining rivojlanishida ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Individual shaklda tashkil etilgan o'yin vaziyatlari har bir o'quvchiga individual yondashishni talab qiladi. Shu bilan bir qatorda, o'yin vaziyatlarni tashkil etishda umumiy qonuniyatlar ham mavjud. O'yinlar pedagogik jihatdan o'zining ijobiylari salbiy jihatlariga ega. Shuning uchun ham, o'yin vaziyatlari o'qituvchidan uni chuqur his etish va ehtiyyotkorona munosabatda bo'lismi talab qiladi. O'yinlar jarayon sifatida o'zining tarkibiy qismlariga ega bo'lib, ularga muayyan pedagogik talablar qo'yiladi.

O'qituvchilar o'quvchilarga taqdim etadigan o'yinlarni tanlashda bir qator talablarga amal qilishlari lozim. Jumladan, o'yin jarayoni ishtiropchilari bo'lgan o'quvchilarning yoshini hisobga olish, o'yin vaziyatini amalga oshiriladigan sinf xonasini tanlash, o'yinlarining o'ziga xos jihatlari va ularni tushuntirish maromini belgilash, o'yin jarayonida bajarijadigan rollarni o'quvchilar orasida taqsimlash, o'qituvchining bu jarayonda bajaradigan ishlarini aniq belgilab olish kabilari. O'qituvchi o'yin jarayonida asosan rahbarlik rolini bajarib, uning amalga oshishi uchun qulay sharoit yaratishi lozim. Shu bilan bir qatorda, o'yin jarayoni o'quvchilarning to'g'ri munosabatda bo'lislari ta'minlash ham o'qituvchi zimmasidagi vazifalar sirasiga kiradi.

O'yinlar nafaqat o'quv jarayoni, balki sinfdan tashqari ta'lif-tarbiya jarayonlarda ham qo'llaniladi. Bunda o'qituvchi o'yinlarni qo'llashni talab qiladigan pedagogik vaziyatlarni aniq belgilab olishi lozim. Shu tariqa, o'yin jiddiy xarakterdagи didaktik vaziyat bo'lib, o'quvchi hayoti, uning iqtisodiy munosabatlarga kirishishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, o'yinlar o'quvchilarning iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishlarini jadallashtirib, ularda iqtisodiy munosabatlar jarayonida axloqiy sifatlarning tarkib topishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham o'yinlarni tashkil etish va ulardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanishda o'ziga xos jihatlar mavjudligini o'qituvchilar ongiga yetkazish talab etiladi.

Shunday qilib, o'yinlarning o'quvchilar bilimlarini boyitish va ularning ruhiy kamolotidagi mohiyati nihoyatda kattadir. Pedagogikada o'yinlar shaxsga yo'naltirilgan rivojlaniruvchi ta'lif jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'yinlar yordamida o'quvchilarda

o'quv faolligi, tashabbuskorlik, mustaqillik rivojlanadi. Biz rivojlantiruvchi o'yinlarning o'quv jarayonidagi ahamiyati haqida fikr yuritar ekanmiz, mazkur didaktik hodisa o'quvchilarning bilish faoliyati, ijtimoiy shakllanishi, kasbiy faolligining rivojlanishida alohida ahamiyatga egaligini ta'kidlash lozim. Shu tariqa, ularda rivojlantiruvchi o'yin jarayonlari va hayotiy vaziyatlarda subyekt sifatida ishtirok etish hamda o'zini namoyon etish imkoniyatlari kengayadi. Iqtisod darslarida o'quvchilarni rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish natijalari yaxlit tarzda o'quvchilarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, o'yin texnologiyalari o'quv jarayoni samaradorligini kamida uch barobar oshirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham o'qituvchilarga iqtisod darslaridan foydalanishlari uchun didaktik o'yinlarni ishlab chiqish va qo'llash tavsiya etiladi.

Didaktik o'yinlar – didaktik jarayonning muhim tushunchalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy ta'lim jarayoniga nisbatan o'yinga asoslangan yondashuv o'quvchilarning ruhiy funksiyalari, hissiyotlarini rivojlantirish asosida ularning o'quv faoliyatlarini faollashirishni taqozo etadi. Shunday o'yinlar sirasiga krossvordlar, filvordlar, shifrogrammalar, kriptogrammalar, didaktik domino, yapon krossvordi hamda rebuslar kiradi.

Krossvordlar iqtisod darslarida o'tilgan barcha mavzularga aloqador bo'lgan so'zlarni o'zida mujassamlashtiradi. Jumladan, o'tilgan mavzular va yangi o'tiladigan mavzulariga oid atamalarni nazarda tutgan holda krossvord shartlari va katakchalari belgilanadi. Krossvordlar yordamida o'quvchilar o'tilgan mavzularga oid atamalar va tushunchalarni takrorlash, qayta eslash imkoniyatiga ega bo'ladi. Krossvord turlari simmetrik xarakterga ega bo'lib, uning estetik ko'rinishlarini orttiradi. Krossvord doirasidagi savollar sifatida rebuslardan ham foydalaniladi. Uning tarkibiga iqtisodchi olimlarning suratlari, iqtisodga oid asbob-uskunalar, jumladan, terminallar, plastik kartochkalar va h.k.

Filvordlar bilan ishlash qoidalari quyidagilardan iborat. Savollardan keyin javobda ishtirok etadigan harflar qavs ichida ko'rsatiladi. Qo'yilgan savolga beriladigan javoblar kvadrat shaklidagi to'rtburchak ichida tartibsiz tarzda berilgan harflar ichidan javob izlashni talab qiladi. Mazkur kvadrat ichidagi so'zlar turli yo'nalishlarda joylashtirilishi mumkin. Diagonal chiziqlardan tashqari siniq chiziqlar shaklida ham ifodalananadi. Savollarga javob bera turib o'quvchilar kvadrat ichidan topilgan so'zni o'chirib tashlashlari kerak. Filvord to'liq yechilgandan keyin kvadrat ichidagi o'chirilmagan harflardan yangi iborani o'qish mumkin.

Shifrogrammalar muayyan usul yordamida shifrlangan iboralardir. Shifrogrammani topish uchun muayyan kalitdan foydalanib shifrni topish talab etiladi.

Kriptogrammalar boshqotirmalarning muayyan shakllaridan bo'lib, unda matnda yozilgan harflar raqamlar bilan almashtirilgan bo'ladi. Kriptogrammani topish uchun unda berilgan tayanch so'zlarni topish lozim. Shundan keyin raqamlarni muvofiq keladigan harflar bilan almashtirish talab etiladi. Natijada shifrlangan iborani o'qish imkoniyati vujudga keladi.

Didaktik dominolar esa, kesma kartochkalardan iborat bo'ladi. Bunday o'yinning maqsadi – mazkur kartochkalardan muayyan izchillikdagi zanjir tuzishni taqozo etadi. Shu tariqa, bir kartochkadagi savolga unga yonma-yon bo'lgan ikkinchi kartochkadan javob topiladi.

Yapon krossvordlari boshqotirmalarning o'ziga xos ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirib shifrlangan rasmlardan iborat bo'ladi. Muayyan turdag'i raqamlar gorizontal qatorlar va ustunchalarda ifodalangan bo'yadigan rasmlar va kataklardan tashkil topadi. Agar o'quvchi ularni xatosiz bo'yasa, barcha zarur kataklar ular ko'z o'ngida rasmlar sifa-

---

tida namoyon bo'ladi. Barcha bo'yalgan rasmlar orasida kamida bitta bo'yalmagan katak qolishi lozim. Ko'rinib turibdiki, ushbu topshiriq bir qadar murakkab bo'lib, o'quvchilarni o'ylash, mantiqiy fikrlashga majbur qiladi. Buning uchun ular qora rangdagi guruhlar orasida nechta oq kataklar borligini aniqlab olishlari kerak.

Rebuslar ham iqtisodiy ta'llim samaradorligini oshirishga munosib hissa qo'shamdi. Bunda uyg'unlashtirilgan raqamlar, belgilar, harflar yordamida muayyan so'z yoki gapni ifodalash imkoniyati vujudga keladi.

Iqtisod darslarida o'yinning ikkita turini farqlash tajribasi mavjud. Ular ochiq qoidalar yordamida amalga oshiriladigan o'yinlar, yashirin qoidalar yordamida amalga oshiriladigan o'yinlardir. Ochiq qoidalar yordamida tashkil etiladigan o'yinlar sirasiga ko'plab didaktik hamda harakatchanlikni ifodalovchi o'yinlarni kiritish mumkin. Jumladan, intellektual o'yinlar, musiqa yordamida o'ynaladigan o'yinlar, vaqtichoqlik qilishga asoslangan o'yinlar va attraksionlar ham shunday o'yinlar sirasiga kiradi. O'yinlarning ikkinchi turiga hayotiy va badiiy tasavvurlar asosida mustaqil, erkin, ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkonini beradigan, moddiy obyektlar bilan aloqa o'rnatishga ko'maklashadigan o'yinlarni kiritish mumkin.

O'quv-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'yinlar o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishlarini nazarda tutgan holda tashkil etilib, jamoaviy munosabatlarning shakllanishida o'ziga xos o'rin egallaydi. Bunday o'yinlar o'quv hamda darsdan tashqari jarayonlarda o'quvchilarda faoliyatning boshqa turlariga nisbatan ham qiziqishni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda ishchanlik ruhidagi pedagogik o'yinlar alohida o'rin egallaydi. Bunday o'yinlar o'qituvchilar uchun ta'limi, o'quvchilar uchun esa tashkiliy xarakter kasb etadi. O'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan pedagogik xarakterdagи harakatlantiruvchi o'yinlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) o'qituvchi uchun zarur bo'lgan pedagogik mahoratning sifatini aniqlash;
- 2) pedagoglarning fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish;
- 3) ziddiyatli vaziyatlarda harakat qilish va mavjud holatlarni tahlil qilish imkonini berish;
- 4) o'qituvchilarga o'zin jarayonlarida o'z faoliyatlarini baholash va o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish imkonini berish;
- 5) pedagogik jarayonning istiqbolini bashorat qilish.

Ko'rinib turibdiki, o'yinlar ham o'qituvchi, ham o'quvchilar faoliyatini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega ekan. Shuning uchun ham, o'qituvchilar darsning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'yinlarni tanlash, loyihalash va qo'llashga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Karimov B. Darslarda iqtisodiy tarbiya. "Boshlang'ich ta'llim" jurnali. 1996. 36-37-b.
2. Xudoqulov X. Iqtisodiy savodxonlik, u yoshlarda qanday shakllantiriladi? Iqtisodiy tarbiya "Ma'rifat" gazetasi. 2002. 13-noyabr.
3. Брунер Д. Иера, мышление и речь // Перспективы. Вопросы образования. 1987. №1. – С. 73 – 81.
4. Жадан Е.А. Социально-игровая контекстность в обучении как средство социализации старшеклассников: дисс... канд. пед. наук. – Волгоград, 1997. – С. 208.

Zulfizar YULCHIYEVA,  
Toshkent Davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR DAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

### Annotation

Maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda asosiy tushuncha va atamalarning o'rni, lug'aviy ma'nosi, mazmun-mohiyati xususida ma'lumot berilishi bilan birga, ularni o'rganishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ba'zi omillar ham bayon qilingan.

**Kalit so'zlar.** Tushuncha, atama, dialektika, sinergetika, xronologiya, globallashuv, idealizm, materializm, ma'naviy tahdidlar, mafkura, immunitet.

В статье показана роль терминов и понятий, а также их анализ и содержание в общественно-гуманитарных науках и изложены некоторые факты обращающие внимание на рассмотрение вопросов.

**Ключевые слова.** Понятие, терминология, диалектика, синергетика, хронология, глобализации, идеализм, материализм, духовные угрозы, идеология, иммунитета.

Article also provides information on the basic concepts and terminology of teaching sociocultural sciences, as well as some of the factors that need to be addressed in their study.

**Key words.** Concepts, terminology, dialectics, synergistics, chronology, globalization, idealism, materialism, spiritual threats, information threats, immunity.

**S**o'nggi yillarda barcha sohalar qatori ta'llim tizimida ham keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Jamiyatni keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hamda iqtisodiy isloh qilish, fuqarolar ongida yangicha g'oyaviy qarashlarni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'z o'rni bor.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar xususida xolis ma'lumotlarga ega bo'lish uchun, avvalo, ularning o'zaro uzviyligi, fanlarning predmeti va obyektini belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Mazkur fanlardagi umumiylilik va aloqadorlik qonuniyatları, barcha hodisa va jarayonlar, har qanday obyektiw va subyektiw voqeliklar, jamiyatda va dunyoda sodir bo'layotgan g'oyaviy o'zgarishlar, yangiliklar, insonning ma'naviy olamiga ta'sir etuvchi umumiylilik va aloqadorlik qonuniyatları ijtimoiy-gumanitar fanlarning predmeti hisoblanadi.

Darslarda mavzuga taalluqli maxsus tushuncha va atamalardan o'z o'rnda foydalan olish muhim ahamiyatga ega. Zero, professor-o'qituvchilar fanlarga oid tushuncha va atamalarning ilmiy, nazariy hamda tahliliy jihatlariga ahamiyat berishsa, mavzu mohiyatini to'laroq yoritish bilan birga, o'quvchi va talabalarning dunyoqarashini har tomonlama o'stirishga erishiladi hamda dars kutilgan natija va samara beradi.

---

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda mavzuga oid, darslarda keng qo'llaniluvchi atamalar ni tahlil qilishda nafaqat mavzu mohiyatini to'liqroq anglash, balki inson, jamiyat haqida kengroq tushunchalarga ega bo'lish mumkin. Bu orqali yoshlar ongida tarixiy xotira, milliy va ma'naviy o'zlik, vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishga erishi-ladi. Shuningdek, ijtimoiy ong, ma'naviy o'zlik, falsafiy dunyoqarash, dialektik aloqadorlik va sinergetik rivojlanish qonuniyatlar haqida zarur tushuncha va ko'nikmalar hosil qilinadi.

Ushbu fanlar negizida keng qo'llaniluvchi ayrim tushuncha va atamalar izohi va tahlili ga to'xtalib o'tish mumkin. Jumladan, ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim sohasi hisoblangan falsafa, tarix, sotsiologiya, psixologiya fanlarida "dialektika" atamani keng qo'llaniladi. Umuman, dialektika so'zi (yunoncha "dialektike" – bahs yuritish san'ati) bu tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining o'zaro aloqadorligini o'rganuvchi falsafiy ta'limotdir. Dialektik olam yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladi gan hodisalar, voqealar umumiyl va o'zaro bog'lanishda, uzlusiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb hisoblana-di. Ijtimoiy-gumanitar fanlarini o'rganishda jamiyat va tabiat hamda insoniyat taraqqiyoti ma'lum dialektik hamda sinergetik qonuniyatlar asosida rivojlanishini to'g'ri anglash zarur. U borliqni bilish nazariyasidir. Dunyoni anglashda bilish nazariysi muhim o'rinn tutadi.

Tarix, falsafa fanlarida keng qo'llaniluvchi "Xronologiya" tushunchasi (yunoncha "xronos" – vaqt, "logos" – fan.) tarixiy taraqqiyot bosqichlari, voqealarning davriy ketma-ketligini o'rganuvchi tarix, sotsiologiya, falsafaning muhim sohasidir. Talabalar fanlarni o'rganish jarayonida davriy (xronologik) nuqtayi nazardan ajodolarimizning hayoti, turmush tarzi, ularning xorij bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashlari, mardligi va jasorati haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lib, xalq qahramonlari, davlat arboblari, olimu fuzalolar faoliyatlarini o'rganishadi. Shu bilan birgalikda talabalar mamlakatimizning mustaqillikka erishishi, mustaqillik yillarda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi, demokratik fuqarolik jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar xususida ma'lumotlarga ega bo'ladi.

"Ma'naviyat asoslari" fanida keng qo'llaniladigan "Ma'naviy tahdid" tushunchasi ikki so'z birikuvidan iborat bo'lib, ya'ni ma'naviy va tahdid so'zlaridan tashkil topgan. "Ma'naviy tahdid" deganda, insonning ichki dunyosi, ongi va qalbiga nisbatan ta'sir o'tkazish, ya'ni tahdid nazarda tutiladi. Shuningdek, hadik, ya'ni tajovuz qilish, yo'ldan chiqarishga asoslangan xavf-xatarlar majmuyi hamdir. Tahdid moddiy xavf-xatarga nisbatan xatarli ekanligi bilan ajralib turadi.

"Mafkuraviy tahdid" esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarni kamsitish, milliy va umuminsoniy axloq qoidalarini inkor qilish, mo'tadil qarashlarni pisand qilmaslik, yot g'oyalarni, dunyoqarashni mutlaq haqiqat sifatida targ'ib qilish hamda ta'sir o'tkazishdir. Ijtimoiy ongda zararli maqsad-muddaolarni, tuyg'u va fikr-mulohazalarni hosil qilish mafkuraviy tahdidlarning negizini tashkil qiladi.

"Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" va "Ma'naviyat asoslari" fanlari terminologiyasida "Globallashuv" so'zi ham keng ishlatalidi. Globallashuv (lot, globus – "shap", "Yer sayyorasi"; ingl. globalization – "ommalushuv") XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartiblar, davlatlar va kishilar o'rtaida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyatning keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushunchadir. Globallashuvning o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari mavjud.

“Axborot xuruji” yoki “axborot xavfi” atamalari ham ushbu fanlar tizimida keng ishlataladigan tushunchalardir, ular fanlar negizida hatto birdek ishlataladi. Aslida axborot muayyan voqeа-hodisalar to‘g’risidagi xabar yoki ma’lumot, ularni tushuntirish, tushunish va idrok etishda qo’llanib kelinayotgan, kibernetika va informatikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtida yangi, keng ma’no kasb etayotgan tushunchadir. Axborot xurujida od-diy urushda qo’llanadigan qирг‘ин vositalari ishlatilmaydi. Uning obyekti – omma yoki alohida shaxslar ongidir. Axborot xuruji vositalari vazifasini ommaviy axborot vositalari, pochta, hatto g‘iybat tarzida tarqatilgan gap-so‘zlar ham bajarishi mumkin. O‘z ichiga maishiy hayot, qiziqishlar (sport, pop-musiqa), ommaviy madaniyat va axborot vositalari kabilarni oladi. “Ommaviy madaniyat” mohiyatiga ko‘ra aholi aksariyat qismining hayotini tashkil etgan voqeа-hodisalar, intilishlar va ehtiyojlarni inobatga oladi. U jamiyat uchun xatarli ekanligi barchaga ayon.

“Mafkuraviy immunitet” tushunchasi bu – shaxs-ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlaridan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimidir. Immunitet (lot, immunitats – ozod bo‘lish, qutilish) tibbiy tushuncha bo‘lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o‘zini turli ta’sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo‘lgan reaksiyalar majmuyi tushuniladi. Sodda qilib aytganda, immunitet – kishi organizmining turli kasallikkaldan himoya qila olish qobiliyatidir. Yuqorida farqli o‘laroq insonning umumiyligi immunitet tizimi tug‘ma bo‘lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur.

Ijtimoiy fanlarni o‘qitishda va ularga xos atamalardan o‘z o‘rnida foydalanish hamda mohiyatini o‘quvchi va talabalarga to‘g’ri yetkazib berish o‘qituvchidan katta mahorat talab etadi. Shu boisdan atamalardan foydalanish, mohiyatini yoritish va tahlil qilishda quyidagi omillarga e’tibor berish muhim:

Birinchidan, fanlarni o‘qitishda va atamalardan o‘z o‘rnida foydalanishda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida o‘qiyotgan talaba va o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘rganishda jamiyat, davlat hamda insoniyat taraqqiyoti ma’lum dialektik hamda sinergetik qonuniyatlar asosida rivojanishini, har qanday o‘zgarishlar zamirida tabiat va jamiyat, inson o‘rtasida qanchalik bog‘liqlik bo‘lsa, atamalar mazmun-mohiyatida ham o‘zaro bir- birini to‘ldiruvchi jihatlar mavjudligini o‘quvchi va talabalarga yetkaza bilish zarur.

Uchinchidan, ta’lim tizimida zamonaviy axborot va multimedia vositalarini rad etmagan holda, darsda mavzuga oid tarqatma materiallar, jumladan, izohli lug‘atlardan o‘z o‘rnida foydalanish yaxshi samara beradi.

To‘rtinchidan, ta’limning barcha bosqichlarida o‘quvchilar va talabalar uchun ushbu fanlardan darslar muzeylar, ziyoratgohlar, qadamjolar va boshqa ma’naviyat maskanlarida tashkil etilsa, darslarning jozibasi ortishi bilan birga, o‘quvchilar mavzuni va undagi tushunchalarni yanada yaxshiroq eslab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo‘yliyev T. Tarix va falsafa fanlarining dialektik aloqadorligida terminologiya masalasi. // Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – T., 2016.
2. Falsafa qisqacha izohli lug‘at. – T.: Sharq, 2004. 326-327-betlar.
3. Choriyev Z. Tarix atamalarining qisqacha izohli lug‘ati. – T., 1999.

---

**Baxodir MA'MUROV,**  
Buxoro Davlat universiteti dekani, p.f.n.

## **BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI AKMEOLOGIK DARAJADA O'ZLASHTIRISH IMKONIYATLARI**

### **Annotatsiya**

Maqola akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, talabalarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibini belgilashda modellashтирish, o'yin, muammoli o'qitish metodlaridan foydalana olish, zamonaviy metodlar, texnologiyalar, o'qitish shakllari vositasida bo'lajak o'qituvchi faoliyati dolszarbigini oshirishga erishish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini berib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Loyihalashtirish, reproduktiv usullar, pedagogik chora-tadbirlar, pedagogik jarayon, kasbiy kompetensiyalar, axborot texnologiyalari, tashxislash, ta'lim shakllari.

В статье изложены вопросы развития профессиональной компетенции будущих учителей на основе акмеологического подхода, определения общих и специальных целей учебного процесса, формирования у студентов навыков определения целевой установки личностно-ориентированного учебно-воспитательного процесса. Особо выделены возможности достижения будущими педагогами профессионального мастерства с учетом индивидуально-личностных особенностей, обогащения опыта моделирования образовательного процесса с использованием проблемных и игровых ситуаций, применения современных методов и технологий обучения.

**Ключевые слова.** Проектирование, репродуктивные методы, педагогические мероприятия, педагогический процесс, профессиональные компетенции, информационные технологии, прогнозистика, формы обучения.

Article focuses on the development of professional competencies of future teachers on the basis of the acmeological approach and the ability to identify the purpose of the individual-focused teaching process in students. In addition, gives remarks and recommendations in identifying the content of the teaching and learning process by modeling, gaming, problem-solving techniques, up-to-date teacher training through modern teaching methods.

**Key words.** Design, reproductive methods, pedagogical measures, pedagogical process, professional competence, pedagogical-psychological mechanisms, information technologies, diagnostics, educational forms.

**B**iz bo'lajak o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga tayyorlik darajasini quyi daraja, ya'ni faol bo'limgan reproduktiv usullar bilan ishlashga moyil talabalarni o'z kasbiga yuqori darajada qadriyatli-iжodiy munosabatda bo'la oladigan o'qituvchi sifatida shakllantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik chora-tadbirlar tizimini qo'llash kerak. Chunki bo'lajak o'qituv-

chi kasbiy tayyorgarligining quiyi darajasidan yuqori darajasiga ko'tarilishi o'ta murakkab va keng qamrovli pedagogik jarayonni tashkil etishni talab qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda tayyor bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarda quyidagi kasbiy kompetensiyalar mujassam bo'lishi kerak:

- bo'lajak o'qituvchilar ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning asosiy parametrlarini yaxshi bilishi;
- ta'limning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda uning xususiy maqsadi va shaxsga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarini to'g'ri belgilay olishlari;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchini rivojlantirish nuqtayi nazaridan yondashgan holda loyihalashtirish va tashkil eta olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- o'zining shaxsiy-kasbiy ehtiyojlarini qondirishga oid bilimlar zaxirasiga ega bo'lishi;
- o'zlarini axloqiy, hissiy, kasbiy jihatdan boshqara olish ko'nikmasiga ega bo'lishlari;
- o'z jamoasida har doim lider sifatida namoyon bo'lishga erishishi;
- qabul qilingan qarorlar uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga ola bilishlari;
- har doim o'zining pedagogik tashabbuslari, fikrlari bilan namoyon bo'la olishi;
- o'quvchining shaxsiy rivojlanishida o'qituvchi hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'rni muhimligini yaxshi anglab yetishi;
- o'z faoliyatlarida muntazam tashxislash metodlaridan foydalanish ko'nikmalarini egallagan bo'lishlari;
- o'z faoliyatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan muntazam, samarali foydalana olishi;
- eng yangi pedagogik-psixologik bilimlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan qurollangan bo'lishi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan pedagogik bilimlarni egallagan bo'lishi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'limning konseptual, nazariy asoslari, tushunchalari, texnologiyalari, uni tashkil etish metodikalarini o'zlashtirgan bo'lishlari lozim.

Bo'lajak o'qituvchilar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash va tashkil etishning pedagogik-psixologik mexanizmlari, vositalari, usul va metodlarini yaxshi bilib olishlari kerak.

Talabalar bilan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash sohasida amalga oshiriladigan ishlar tizimli xarakter kasb etganda ularning kasbiy faoliyatini yaxlit, izchil rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi. Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash va tashkil etish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini tashxislash natijalari shuni ko'satdiki, ularning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tushunchalari, texnologiyalari, mezonlarini o'zlashtirganlik darajalari ancha past. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarga shaxsga yo'naltirilgan ta'limga oid tushunchalar, uning natijalarini baholash mezonlari, bu jarayonni amalga oshirish texnologiyalari haqidagi bilimlarni singdirishga yo'naltirilgan izchil tizim ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun dastlab bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash va tashkil etishga tayyorlashning umumiy va xususiy maqsadlari belgilab olinishi lozim. Bu maqsadlar turli darajadagi tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalar faoliyatining tashxisi natijalariga tayangan holda belgilanishi zarur. Chunonchi:

1. Reproduktiv usullarni egallahsha moyil bo'lgan talabalar uchun o'zlarining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash va tashkil etish sohasidagi nuqtayi nazarlarini ifodalashga o'rgatish maqsadi qo'yilishi kerak.

2. Kreativlik sifatlariga ega, mustaqil fikrlovchi talabalar uchun shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi bilan o'zaro aloqador bo'lgan dialogni yo'lga qo'yish metodikasini o'zlashtirish ustuvor o'rinn egallashi lozim.

3. Ijodkor, o'z ustida ishlaydigan tadqiqotchi talabalar esa o'z faoliyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslagan holda ifodalash darajasiga ko'tarilishlari talab etiladi.

Bunday faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lgan talabalar ta'lim-tarbiya jarayonining mazmunidan kelib chiqqan holda o'z pedagogik faoliyatlarining maqsadini aniq bayon eta olishlari kerak. Buning uchun turli darajadagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan talabalarning saviyasini aniqlashga qaratilgan aniq savol va topshiriqlar tizimi professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilishi zarur.

Bu jarayonda professor-o'qituvchilar quyidagi umumiylar yechishlari lozim:

1. Guruhdagi barcha talabalarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limning g'oyaviy asoslari va asosiy tushunchalarini o'zlashtirishlariga qaratilgan ma'ruzalar va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ularning mazmunini aniqlash.

2. Bo'lajak o'qituvchilarga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar ning rivojlanish dinamikasi, shaxsiy sifatlari, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini tashxislashning eng qulay metodlari va metodikalarini o'rgatishga xizmat qiladigan mashg'ulotlar tizimini tashkil etish va muntazam o'tkazish.

3. Bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni rivojlantirishga qaratilgan o'z faoliyatini muntazam tahlil qilib, kamchiliklarini bartaraf etishga odatlantirish kabilalar.

### **Bo'lajak o'qituvchilar loyihalashtira olishlari kerak bo'lgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining tuzilmasi**



Ko'zda tutilgan birinchi maqsadga erishish uchun bo'lajak o'qituvchilar istiqbolda amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatlarining mavjud qirralarini yaxshi bilib olishlari kerak. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilardagi ruhiy o'ziga xoslik va kasbiy xususiyatlarni markazlashtirish, bir nuqtaga jamlash, pedagogning kasbiy mehnatini integrallashtirish hamda izchil tizimga solish kerak. Bu esa pedagogik mehnatning barcha o'ziga xos qirralari, jihatlari va parametrlarini aniqlashga ko'maklashadi. Xuddi mana shu jihatlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarni akmeologik darajada egallashlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham birinchi guruhga mansub talabalar bilan ularni shaxsga yo'naltirilgan

ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishga tayyorlash ustida ishlash jarayonida quyidagi vazifalar qo'yiladi va hal qilinadi:

1. Bo'lajak o'qituvchilarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish. Bunda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini alohida hisobga olish mahoratiga ega bo'lislarlarga erishish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchining hayotiy ehtiyojlari va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etishga oid nazariy-emperik bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lish.

2. Bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarning rivojanish vaziyatlarini modellashirish tajribasini shakllantirish. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni mazmuniga inson-parvarlikka oid bilimlar, tushunchalar, tajribalarni singdirish mahoratini hosil qilish, o'zi va o'quvchisining tajribalaridan ta'lim mazmunining uzviy qismi sifatida foydalana olishiga erishish, ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibini belgilashda modellashirish, o'yin, muammoli o'qitish metodlaridan foydalana olish.

3. Zamonaviy ta'lim metodlari, texnologiyalari, o'qitish shakllari vositasida bo'lajak o'qituvchi faoliyati dolzarbligini oshirishga erishish, darsning muammoli, o'yin, dialog, loyihalashirish, jamoaviy-ijodiy, munozaraga asoslangan turlaridan keng foydalanish kompetensiyalarini hosil qilish kabilalar.

Bo'lajak o'qituvchilarga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida dialog vaziyatni vujudga keltirish imkonini beradigan o'quv vaziyatlarini loyihalashirish tajribasini ham hosil qilish lozim. Buning uchun talabalarda quyidagi ko'nikmalar shakllantirilishi kerak:

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan o'quv materiallari orasida hamkorlikni ta'minlashni nazarda tutish.

2. O'quv jarayonini munosabatlar pedagogikasi asoslariga tayangan holda loyihalashirish.

3. O'quv vaziyatlarini loyihalashtirganda vujudga keladigan qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar va ularni bartaraf etish yo'llarini nazarda tutish.

4. Bo'lajak o'qituvchilarining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunida mustaqil ravishda o'quvchilarning rivojanishini ta'minlovchi komponentlarni kiritish ko'nikmalarini egallashlariga erishish.

5. Bo'lajak o'qituvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashirish ko'nikmalarini hosil qilishda o'quvchilarning o'quv materiallari yuzasidan mustaqil fikrlay olishlarini ta'minlay oluvchi didaktik vaziyatlarni tanlashlariga e'tibor qaratish.

6. Talabalarning didaktik jarayonlarni loyihalashirishlarida o'quvchilarning uzlusiz rivojlanira oladigan didaktik vositalarni tanlash mahoratlarini oshirish.

7. Talabalar didaktik jarayonlarni loyihalashda mustaqil ish turlari, ta'limi topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borishlariga erishish; bu topshiriqlar o'quvchilarlarda mustaqillik, kreativlik hamda o'quv mayllarini hosil qilishini nazarda tutish kabilalar.

Bularning barchasi akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlanirishga xizmat qiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. 63-b.

2. Колесникова И.А. Теоретико-методологическая подготовка учителя к воспитательной работе в цикле педагогических дисциплин: Автограф. Дис. ... докт. пед. наук. 1991. – С. 37.

**Mamanazar JUMAYEV,**  
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, p.f.n.

## **MATEMATIKA FANINI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHDA TARIXIY MATERIALLARDAN FOYDALANISH**

### **Annotatsiya**

Maqola matematik kompetensiya bilan bog'liq bo'lgan zarur bilim, malakalarni fanga qo'l-  
lay olish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif matematikaga xos mulohaza yuri-  
tish, matematikada isbotni va matematikaning tilini tushunishi hamda buning uchun mos vosi-  
talardan foydalanish malakalariga ega bo'lishi bo'yicha o'z tushunchalarini bergen.

**Kalit so'zlar.** Funksiya, grafik, son, aylana, proporsiya, simmetriya, masala, fan, zarur  
bilimlar, malaka.

В статье рассматриваются навыки применения основных математических правил и способов. А также построение последовательности аргументированных рассуждений и их оценивание. Человек должен уметь рассуждать, иметь понятия о математическом доказательстве и математическом языке и использовать соответствующие средства.

**Ключевые слова.** Функция, график, число, окружность, пропорция, теорема, задача, наука, необходимые знание, навыков.



Article focuses on the application of knowledge, skills and knowledge related to mathematical competence. Author has also given his own understanding of mathematical reasoning and the ability to understand the language of mathematics and in the way to use appropriate tools.

**Key words.** Functions, graphs, numbers, circles, proportions, symmetry, case, lesson, required knowledge, skill.

**M**atematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maq-sadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzdagi tar-tib-intizomililikni ta'minlaydi va tafakkurini kengaytiradi. Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofdagi voqe va hodisalarning o'ziga xos qonuniyat-larini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch shaxs ekanligini inobatga olsak, ingliz fantastik yozuvchisi Gerbert Uellsning taniqli romanida marsliklarning yerga bostirib kirishi hikoya qilinadi. Yerning qarshilik kuchi osongina bartaraf etiladi, chunki ularning qurollari yerda yashovchilarnikidan bir qadar samaraliroq edi. Yerda yashovchilarning baxtiga hammasi yaxshilik bilan tugadi, marsliklar yer virusidan halok bo'lishadi, chunki ularda virusga qarshi imminutet yo'q edi.

Marsliklardan qolgan texnikalardan shu narsa aniq bo'ldiki, ularda g'ildiraklar va umuman aylanadigan detallar yo'q edi. Biz uchun bu ishonarsiz edi, chunki bizning dav-



rimizda salkam butun dunyo g'ildiraklarda harakatlanadi. Lekin assida yerdagi madaniyat, o'tmish g'ildirakka asoslanishdan uzoqroq edi. Masalan, Yevropa madaniyati ularga yetib borguncha amerikalik hindular va ayrim boshqa qabilalar g'ildirakdan bexabar edi. G'ildirakning birinchi marta ixtiro qilinishi qaysi xalqqa tegishli bo'lganligi bir qancha muddat noma'lum qoldi.

Quyidagi rasmlarni taqqoslang: yuqorida g'ildirak, past tomonda esa uning matematik modeli – aylana tasvirlangan. G'ildirakda aylana kabi radius, diametr va markaz bor. G'ildirak ikkita ichki va tashqi aylana bilan chegaralanganligi uchun, ularning ikkita radiuslari qaraladi. G'ildirakdagi ichki va tashqi aylana radiuslarini hisoblash unchalik qiyn emas. Lekin qadimda odamlar oldida g'ildirakdagi aylana uzunligini topish muammo turar edi. Masalan, yog'ochdan yasalgan g'ildirakning uzoq muddat ish berishi uchun, uni temir parchasi bilan qoplash zarurati tug'ilgan. Uni tayyorlash uchun esa, aylana uzunligini bilish kerak bo'lgan. Uni qanday aniqlash mumkin? Tashqi aylana uchun bu murakkab emas: ip bilan g'ildirakni o'rash va uni uzunligini o'chash mumkin. Bu ichki aylana uchun qanday bajariladi? Albatta, biror yoki bir necha usulni o'ylab topish mumkin. Lekin tashqi aylanaga nisbatan buning murakkabligi ravshan. Birinchi bor aylana uzunligini uning diametri bilan taqqoslash, xususan, aylana uzunligini diametrdan qancha kattaligini bilish kimning fikriga kelgani noma'lum.

Diametrni o'chash ma'lum darajada oson, diametr uzunligini bu miqdorga ko'paytirib, aylana uzunligini topish mumkin bo'ladi. Avvaliga har qancha aylananing uzunligi diametrdan 3 marta katta ekanligi aniqlangan. So'ngra bu natijani  $3 \frac{1}{7}$  marta katta ekanligi aniqlandi, o'shanda matematiklar bu sonni aniq emasligini bilishdi. Hisoblashda muammo bo'limasligi uchun qadimgi Grek matematiklari bu sonni grek alifbosining  $\pi$  (pi) harfi bilan belgilashdi.  $\pi$  sonning aniq qiymati oddiy yoki o'nli kasr orqali ifodalash mumkin emasligi isbotlangan. Biz uchun hisoblashda yuzdan birgacha aniqlikdagi qiymatidan foydalanish yetarli:  $\pi \approx 3,14$ . Uning yuz milliarddan bir qiymati  $\pi \approx 3,14159265359$  ga teng.

Endi diqqatni algebraning vujudga kelishga qarataylik. Odamlar ko'p jihat o'xshash bir xil tipdag'i masalalarni yechishga duch kelishdi: maydon yuzini hisoblash, berilgan ma'lum bir shakldagi jismning hajmini topish, foydani bo'lib olish, mahsulot narxini hisoblash, turli birliliklarda massani o'chash va h.k.

Turli mamlakatda turli vaqtarda bir xil tipdag'i masalalarni yechishning umumiyoqidalarini topishga harakat qilindi. Bu qoidalarda o'xshash masalalar guruhi uchun berilgan sonlar orqali noma'lum miqdorni topish o'rganildi. Shu tariqa matematikaning bir bo'limi asosan turli tenglamalarning yechimi qaralgan algebra paydo bo'ldi. Ayrim algebrail tushunchalar va masala yechishning umumiyoq usullari 4000 yil avval qadimgi Vavilon va Misrda bo'lgan.

Algebraning yaratilishida buyuk qadimgi grek matematigi Diofant (III asrda) katta hissa qo'shdi va algebraning otasi nomini oldi. Diofant murakkab masalalarni yechdi, noma'lum uchun harfiy ifodalarni qo'lladi, hisoblash uchun maxsus simvollarni kiritdi. Bizning eramiz boshida grek fani o'z mavqeyini yo'qotdi. Lekin bu vaqtida hind matematiklari muhim natijalarni qo'liga kiritishdi. V asrдан VII asrgacha ular juda ko'p yangiliklar qiliшdi, algebraning negizlari boyidi. Qadimgi hindlarning madaniyati ularning qo'shnisi bo'lgan arablar, o'zbeklar, tojiklar va boshqa xalqlarga ta'sirini o'tkazdi.

IX-XV asrda juda ko'p olim-matematiklarni yetishtirgan fanning jahon markazi O'rta Osiyo bo'ldi. Ularning ishlari Yevropa fanlarining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.


825-yilda al-Xorazmiy “Kitob al-jabr val-muqobala” kitobini yozdi. Bu jahonda birinchi algebra kitobi edi. Shu vaqtidan boshlab algebra mustaqil fan sifatida shakllana boshladı. Algebra so’zi “aljabr” so’zidan olingen bo’lib, rus tilida “восполнение” ma’nosini anglatadi: Al-Xorazmiy manfiy qo’shiluvchilarni tenglamaning bir tomonidan ikkinchi tomoniga qarama-qarshi ishora bilan o’tkazgan. Keyinchalik algebraning rivojlanishiga yevropalik olim Fransua Viyet (1540-1603) va Rene Dekart hissa qo’shdi, ular algebraga harflarni kiritdi va harfiy ifodalar ustida amallar bajarishni ishlab chiqishdi.

Geometriya so’zi greklardan kelib chiqqan bo’lib, Geya qadimgi grek mifologiyasida yerning xudosi, metr uzunlik o’lchov birligi deb atalgan, shuning uchun geometriyanı yer o’lchash deb atash mumkin. Tarjimadan geometriyanı bevosita amaliy talablardan kelib chiqqanligi ma’lum bo’ladi, bu yerda yer maydonini o’lchash masalalari muhim o’rin tutgan. Bu masalalarda yuzani hisoblash zarur bo’lib, demak, birinchi o’rinda kesmani o’lchash kerak bo’lgan.

Shunday qilib, geometriya tarixan o’lchash bilan bog’liq. Lekin geometriyaning keyingi mazmuni kengayishi shunday darajaga yetdiki, endi geometrik figuralar va ularning xossalari birinchi o’ringa chiqdi.

Shu bois boshlang’ich sinfdan boshlab juda ko’p geometrik figuralar bilan tanishamiz. Masalan, nuqtalar, to’g’ri chiziqlar, nur, kesma, to’g’ri to’rtburchak va kvadrat, turli burchaklar, aylana, parallel va perpendikulyar to’g’ri chiziqlar va h.k. Ba’zan hatto juda yaxshi ma’lum bo’lgan matematik tushuncha uchun ta’rif berish zarur bo’ladi, ta’rifda esa figuralarning xossalari o’z aksini topadi, demak, uning asosida matematik muhokamani bajarish mumkin. Jumladan, burchakning xossalarni bilmasdan turib, o’tmas burchakdan kichik bo’lgan o’tkir burchak haqidagi mulohazalarning rostligini muhokama etib bo’lmaydi.

Bizga juda ko’p ta’riflar ma’lum, lekin ularni esga olish, umuman olganda, qog’ozda zarur geometrik figurani tasvirlashga nisbatan oqiyinroq. Masalan, rasmdagi kesmani chizish oson, lekin uchlari A va B nuqtalarda bo’lgan A va B nuqtalar va barcha nuqtalardan tuzilgan to’g’ri chiziqning bo’lagini kesma deyilishini hamma ham aytta olmaydi. Xuddi shunday aylana, burchak, to’g’ri to’rtburchakni tasvirlash, uning ifodasida mavjud xossalarni biliш va ifodalashga nisbatan oson.




Har bir ta’rifda aniqlanadigan biror yangilik bor va eskisi yordamida yangisi aniqlanadi. Masalan, teng tomonli to’g’ri to’rtburchak kvadrat deyiladi ta’rifida, kvadrat – yangi tushuncha, teng tomonli to’g’ri to’rtburchak – eskisi bo’ladi, o’z navbatida har bir ta’rif avvaldan ma’lum bo’lgan zarur tushunchalarga asoslanadi, masalan, to’g’ri to’rtburchak tushunchasi to’g’ri burchakka asoslanadi, bu  $90^\circ$ . Shu tariqa aniq cheksiz jarayon yuz beradi.

Qadimgi grek matematigi Yevklid birinchi bo’lib barcha geometrik figuralarga ta’rif berishning iloji yo’qligini tan olgan va shuning uchun ulardan ba’zilari ta’rifsiz qabul qilinishi kerak deb xulosa chiqargan. Bunday tushunchalar asosiy tushunchalar deyiladi.


Ta’rifsiz qabul qilinadigan tushunchalar tasvir yoki material obraz orqali tez qabul qilinadi. Geometriyaning asosiy tushunchalariga nuqta, to’g’ri chiziq va tekislik kiradi. Rasmdan tushunchaning ta’rifiga o’tish uchun uning bosh xarakteristik xususiyatlarini bilish kerak. Masalan, aylananing ta’rifini berishda, uni sirkul yordamida yasash uchun uchlari orasidagi masofaning o’zgarmasligini esga olish zarur. Shuning uchun aylanani berilgan nuqtadan bir xil masofada yotgan nuqtalar to’plami sifatida aniqlasak bo’ladi. Bu ta’rif nuqta va masoфа tushunchalariga asoslanadi.

Matematikada, odatda, avval yangi tushunchaning ta’ifi beriladi, so’ngra mos rasmlar chiziladi. Lekin teskari yo’l ham juda muhim. Ta’rif ba’zan unutilishi mumkin, ularni eslash esa




zarur, muhokama qilish uchun ularga murojaat qilamiz. Tushunchaning ta'rifini so'zli ifodasiga nisbatan bir umr esda saqlash, geometrik obraziga, rasmiga nisbatan eslab qolish qulay bo'ladi.

Real obyektlarning go'zalligi va turli-tumanligi figuralarning simmetrik xossasiga bevosita bog'liq, ya'ni to'g'ri, tartiblangan, takroriylik, garmoniya, va aksincha, noto'g'ri, nosimmetriklik, tartibning buzilishi va h.k. Simmetriklik va nosimmetriklik insonning tabiatni idrok qilish va buniyodkorlikning yuzaga kelish estetikasini yaratish asosini tashkil etadi. Gul va kapalak, mushuk va dengiz yulduzi, antik Parfenon va zamonaviy Termiz universiteti, gul solingan ro'mollar va h.k. Ularni sinchiklab taqqoslasangiz mutlaq simmetrik elementga ega bo'lgan go'zallikni tarannum etuvchi obyektlarni ko'rasiz.



Demak, tabiat algebra va geometriya bilan go'zaldir. Shunday qilib, poeziya va musiqada, me'morchilik va arxitektura, tirik va jonsiz tabiatda bir-biri bilan bog'langan aniq qonun-qoidalari mavjud. Bu qonun-qoidalarni yozish uchun geometriyada maxsus tushunchalar yaratilgan, masalan, simmetriya tushunchasi. Turli-tuman simmetriyalar mavjud. Eng soddasi o'q simmetriyasidir. Rasmida biror / to'g'ri chiziqqa nisbatan  $F$  figuraning ikkita yarimta qismi birlashadi, yoki ikkita turli  $F_1$  va  $F_2$  figuralar sifatida tasvirlanadi. Bunda / simmetriya o'qi,  $F_1$  va  $F_2$  esa simmetrik figuralar deyiladi.



Simmetriyaning ikkinchi bir ko'rinishi burishdir. Burishni tasavvur qilish uchun plastmassadan qilingan figuralardan iborat qolipni qog'oz varagiiga qo'yib bo'yaymiz va chapga yoki o'ngga qolipni mahkamlangan biror  $O$  nuqta atrofida buramiz.

180° ga burish maxsus nom bilan markaziy simmetriya deyiladi. Markaziy simmetrik figuralarga to'g'ri chiziq, parallelogram va aylana misol bo'la oladi. Bu misollardan ko'rini turibdiki, simmetriya markazi turlicha bo'lishi mumkin: to'g'ri chiziqda cheksiz ko'p, parallelogram va aylanada bitta.

Simmetriyaning yana bir ko'rinishi bu parallel ko'chirishdir. Bunda qolipni biror / chiziqqa nisbatan  $d$  masofaga siljitamiz. Biz asosida go'zallik yotgan turli simmetriyalar bilan tanishdik. Bu go'zallik simmetriya qonunlari mahorat va ijodkorlik bilan amalga oshirilgandagina paydo bo'ladi.

Manfiy sonlar bir qancha vaqt o'tgach (natural sondan so'ng) paydo bo'lgan. Manfiy sonlar haqidagi birinchi ma'lumotlarni eramizgacha bo'lgan II asrda xitoy matematiklari aytishgan. U vaqtida musbat sonlar biror narsa sifatida, manfiy sonlar esa qarz, yetishmovchilik sifatida qaralgan. Misrliklar ham, vavilonliklar ham, qadimgi greklar ham manfiy sonlarni bilishmagan. VII asrda hind matematiklari manfiy sonlarga ishonchhsizlik bilan qarashdi. Yevropada manfiy sonlardan foydalanish XII–XIII asrga to'g'ri kelib, ularga ham qarz sifatida qaralgan.

Manfiy sonlarni tan olish fransuz matematigi, fizik va faylasuf Rene Dekartning (1596–1650) ishlaridan jonlandi. U musbat va manfiy sonlarning geometrik obrazini yaratdi, ya'ni fanga koordinata to'g'ri chizig'ini (1637-yil) kiritdi. XVIII asrga kelib, umuman, manfiy son to'liq tan olindi va ular uchun zamonaviy belgilashlar tasdiqlandi.

---

Tarixchilar qadimgi Gretsiyada matematika demokratiyaning rivojlanishi bilan paydo bo'lgan deb hisoblashadi. Mantiq qonuniyati erta yoshdan til orqali qabul qilinadi, matematika esa ularni faoliyat orqali qabul qiladi. Mantiqiy mushohada qonuniyatlarini birinchi bo'lib qadimgi grek faylasufi Aristotel ta'rifladi. Bu taxminan 2500 yil oldin yuz bergen edi. Bu qoidani shakllantirishda Aristotel oddiy tilda inson amaliyotiga suyandi.

Mantiqiy xulosa chiqarish qoidalari aniq tushunchalarga emas, balki ular orasidagi mantiqiy bog'lanishlarga bog'liq bo'ladi, ana shuning uchun ularni har qanday fanga va insонning turli faoliyatida qo'llash mumkin. Sherlok Xolmsning mantiqiy qoidalarni muvaffaqiyatli qo'llaganini esga olaylik.

Haqiqatdan ham tan olish kerakki, hozirgacha darsliklarda matematika mantig'iga qarshi bordik, asoslanmagan induksiyada mantiqiy xatoga yo'l qo'ydir, bir yoki bir necha misollar dan umumiy ko'rinishga o'tidi. Bu yo'lni matematikaning o'zi bosib o'tdi: kuzatish yo'li, turli qonunlarning vujudga kelishi, g'oyalarning ilgari surilishi va ularni isbotlash yo'llarini izlash.

Matematika tarixida buyuk kashfiyot aksiomatik metod bo'ldi, bundan 2300 yil avval yashagan yunonistonlik geometrik Yevklid uni yorqin ifodaladi. O'zining "Negizlar" nomli asarida har qanday muhokama mantiqiy asoslangan xulosalar orqali qurilishini ko'rsatuvchi geometriyani yaratdi. Bu Yevklid geometriyasi bo'lib, zamонавија geometriya kursining asosini tashkil etadi.

G'oya isbotlanishining keyingi bosqichi deduksiyadir. Bugungi kunda deduktiv metod nafaqat geometriyada, balki matematikaning barcha bo'limlarda, shuningdek, algebrada foydaliladi. Shunga qaramasdan geometriya va algebra turli predmetlar bo'lib, geometriya bizni o'rab turgan olamning fazoviy shaklini o'rganadi, algebra esa ular orasidagi sonli munosabatini o'rganadi, har ikkala predmet uchun umumiy poydevor *mantiq qonuni* bo'ladi.

Sonlarning xossalari va ular ustida bajariladigan amallarni o'rganadigan fan sonlar nazariyasi deyiladi. Sonlar nazariyasi fanining assoschilari Pifagor, Yevklid, Eratosfen va boshqalar shular jumlasidandir. Sonlar nazariyasining ayrim muammolari sodda ifodalansa-da, ularni yechish ba'zan murakkab, unga ancha vaqt ketadi, ayrimlari esa hozirgacha o'z yechimini topmagan. Masalan, qadimgi grek matematiklarida hammasi bo'lib bo'luvchilarining yig'indisi bir-biriga teng bo'lgan ikkita son (sonning o'zi kirmaydi) 220 va 284 mavjud bo'lgan. XVIII asrda buyuk matematik, Peterburg akademiyasining a'zosi Leonard Eyler yana bunday sonlarning 65 juftini topdi (ulardan biri 17 296 va 18 416). Lekin hozirgacha bunday sonlarni topishning umumiy usuli noma'lum. 250 yil avval Peterburg akademiyasining a'zosi Xristian Goldbach 5 dan katta har qanday toq sonni uchta tup sonning yig'indisi ko'rinishida ifodalash mumkin deb aytgan.

Masalan,  $21 = 3 + 7 + 11$ ,  $23 = 5 + 7 + 11$  va h.k. Buni 200 yildan so'ng rus matematiqi, akademik Ivan Matveyevich Vinogradov (1891-1983) isbotlashga erishgan. Lekin "2 dan katta har qanday juft sonni ikkita tub son ko'rinishida yozish mumkinligi" hozirgacha o'z isbotini topmagan (masalan,  $28 = 11 + 17$ ,  $56 = 19 + 37$ ,  $924 = 311 + 613$  va h.k.).

Qadimgi grek va qadimgi hind matematiklarini biror geometrik shakl, masalan, uchburchak, kvadratga mos keladigan sonlar qiziqtingan. Bunday sonlar figurali sonlar deb atalgan. Masalan, 10 sonini uchburchak, 16 sonini kvadrat deb ataganlar. Bunday tasvir greklarni sonlarning xossalari o'rganishga yordam bergen. Rasmdan foydalanim, yana bir nechta uchburchak va kvadrat sonlarni topish mumkinmi? Bu sonlar qanday xossalarga ega?

O'zbekistonda matematikaning asoslari birinchi sinfdan o'qitiladi, Matematiklar hisoblash mashinasini o'rganib, she'rlar va musiqalar yozishadi, atomning o'lchamini hi-

soblashadi va elektr stansiyalarning modellarini tuzishadi.

Demak, zamonaviy inson mustaqil qaror qabul qila oladigan, jamoada ishlay oladigan, tashabbuskor, yangiliklarga moslasha oladigan, mashaqqatli va asabiy holatlarga chidamli, bu holatlardan chiqa oladigan bo‘lishi kerak. Hamma bunday sifatlarga matematika ta’limida kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanish asosida erishish mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda kompetensiyaviy yondashuv ta’lim mazmunini modernizatsiya qilib, yangicha o‘qitish yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu davlatlardagi umumiy ta’limning yangicha mazmuni asosini o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni hosil qilish va rivojlantirish tashkil etadi.

Ta’limga kompetensiyaviy yondashuv eskirib qolgan “bilim, ko‘nikma va malakanı o‘zlashtirish” konsepsiyasiga qarshi o‘larоq, kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagи kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko‘rinishdagi malakalarни o‘quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta’limning asosini amaliy, tatbiqiy yo‘nalishlarni kuchaytirishga qaratiladi.

Bundan tashqari, tuzilayotgan ta’lim standartlari o‘quvchilarning oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olishlari, turli kasb egalari bo‘lishlari va har tomonlama faol fuqaro bo‘lishlari uchun zarur bo‘ladigan sifatlarni aks ettirishi kerak.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa mamlakatimiz ta’lim tizimiga matematikani o‘rgatish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta’minlanadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. *Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.* – T., 1997.
2. *Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘ta va o‘ta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.* 2017-yil 6-aprel.
3. Jumayev M.E. *Matematika o‘qitish metodikasi.* – T.: Turon iqbol. 2016, 426-b.
4. *Bolalarda boshlang‘ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi.* – T.: Ilm Ziyo. 2012, 240-b.
5. Жумаев Э.Э. Особенности решения задач по изучению геометрии в школьной практике. // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. Ежемесячный научный журнал. – М., 2015, март, № 03(74), – С.10-12.

---

**Nargiza NARZIYEVA,**  
T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI mustaqil izlanuvchisi

## **O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIMNING O'RNI**

### **Annotatsiya**

Maqolada ta'lif jarayonida o'quvchilarda integrativ yondashuv asosida tadqiqotchilik elementlarining ilmiy asoslari hamda ularda tadqiqotchilik ko'nikmalarini muammoli ta'lif orqali shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'quvchi fan mazmunini tayyor holda emas, balki o'zi kashf etib o'zlashtirishi va unda yaratuvchilik qobiliyatini o'stirish omillari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Tadqiqotchilik elementlari, tadqiqotchilik ko'nikmalari, ijodiy fikrlash, inson tafakkuri, yangilangan pedagogik tafakkur, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari.

В статье отражены идеи применения элементов исследования в образовательном процессе учащихся через проблемное обучение на основе интегративного подхода, научных основ, формирования у них навыков исследования. Также готовый материал не заучивается, а осваивается студентом самостоятельно путём обработки данных, способствуя повышению креативных способностей учащегося.

**Ключевые слова.** Элементы исследований, исследовательская практика, творческое мышление, идеология человека, обновлённая педагогическая идеология, основные характеристики учеников.

Article discusses the teaching process of students through the integrative approach to the formation of scientific bases of research elements and their research skills on the basis of an integrated approach. In addition, student should not to memorize the completed context of subject, he must master this material himself by processing data and improve his creative abilities.

**Key words.** Research elements, integrative approach, research skills, creative thinking, human thought, updated pedagogical thinking, personal characteristics of student.

**P**edagog olimlar tomonidan uzlusiz ta'lif jarayonini faollashtirish, integrativ yondashuvlar asosidagi usullarni izlab topish maqsadida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar zamirida muammoli ta'lif tizimi alohida o'rin tutadi.

Muammoli ta'larning asosiy maqsadi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining sifat bosqichi talablari asosida o'quvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlanish, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir.<sup>1</sup>

Pedagogik adabiyotlarda muammoli ta'larning ilmiy-nazariy asoslari haqida gap borganda, uni ta'larning metodi, prinsipi yoki alohida tizim deb hisoblash holatlari

<sup>1</sup> Haydarova O. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lif jarayoniga integrativ yondashuvga tayyorlash. Ped. fan.nom. diss... – Qarshi. 2004. 159-b.

uchraydi. Muammoli ta'limga qanday nomlashdan qat'i nazar, uning asosiy xususiyati – bilim oluvchining aqliy faolligini oshirish, mustaqil, ilmiy, ijodiy izlanish, integrativ yondashuv asosida o'zi uchun yangi bilim, ko'nikma va malakalarni kashf etishdan iboratdir.<sup>2</sup>

Demak, muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo'li bilan egallanadigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisiga muammoli ta'limga deyiladi.

Muammoli ta'limga o'zining maxsus tushunchalariga ega bo'lib, ularning mohiyatini bilmasdan turib, mashg'uotlarni muammoli tarzda tashkil etib bo'lmaydi. Muammoli ta'limga quyidagi asosiy tushunchalarga ega: muammo, muammoli savol, muammoli vazifa, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat.

Muammoli ta'limga asosiy tushunchalariga izoh berishdan oldin, tayyor bilimlarining o'qituvchi tomonidan berilishi yoki o'quvchining mustaqil egallashining izohli-ko'r-gazmali metodi natijasi sifatida aniq tasavvurlar hosil qiladigan, ongda saqlanadigan, zarur bo'lganda qayta tiklanishini aniqlaydigan axborot shaklidagi savolni tushunish o'rinnidir.

Axborot shaklidagi savol: tayyor javobi bo'lgan, xotiradagi bilimlarga tayanib yechimi topiladigan holat bo'lib, Kim? Nima? Qachon? Qayerda? Qanday? Qancha? Qaysi? kabi so'roqlar asosida javobi aniqlanadi.

Muammoli ta'limga dastlabki tushunchasi – muammo hisoblanadi. Muammo yu-noncha "problem" so'zidan olingan bo'lib, "vazifa", "topshiriq" degan ma'noni anglatadi.

Tayyor javobi bo'lmagan, o'rganish, tadqiq etishni talab qiladigan nazariy yoki amaliy masala muammo hisoblanadi.

Inson hayoti va faoliyati jarayonida cheksiz muammolarga duch keladi. Shaxsiy muammolar, ijtimoiy muammolar, turmush muammolari, ta'limga-tarbiya muammolari va boshqalar. Bularning har biri o'ziga xos yechim yo'llariga ega. Ta'limga muammolar bilim oluvchidan aqliy operatsiyalarni bajarishni talab etadi. Bu operatsiyalar muammoli holatning xususiyatidan kelib chiqib, bir-biridan farq qiladi.

Muammoli ta'limga keyingi asosiy tushunchasi muammoli savol sanaladi. Muammoli savol axborot shaklidagi savoldan farqli o'laroq tafakkur qilish yo'li bilan izlangan noma'lumni topishni ta'minlaydigan so'roq bo'lib, alohida holda, muammoli vaziyat va vazifalarning tarkibida bo'lishi mumkin. Muammoli savolga fikr yuritish orqali javob topiladi.

"Nima uchun, nima sababdan, buni qanday tushunsa bo'ladi, bundan qanday xulosha chiqarish mumkin ...?" kabi so'roqlar muammoli savol paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Bir nechta yechimini kutayotgan muammoli savolning bir-biriga bog'liq holda qo'yilishi muammoli vazifani keltirib chiqaradi. Muammoli vazifa sharti aniq bo'lgan, kimdir tomonidan hosil qilingan, javobini topish doirasi cheklangan didaktik tushunchadir.

Muammoli vazifaning mazmuni bilim oluvchiga aniq bo'lgan masalaning noanig'i bilan ziddiyatlashuvidan iboratdir. Noaniq topilishi zarur bo'lib, izlanishni, fikrlashni, mantiqiy xulosalar chiqarishni ta'minlaydi. Muammoli vazifa, albatta, vazifa beruvchi tomonidan hosil qilinadi.

Muammoli savol va vazifalar birgalikda muammoli topshiriqning tarkibida keliishi mumkin. Muammoli topshiriq – o'qituvchi, ta'limga beruvchi, kitob muallifi tomonidan muammoli savol va vazifa shaklida bilim oluvchini muammoli vaziyatga tushiradigan o'quv topshirig'idir.

<sup>2</sup> Djurayev R.H., Rahimov B.X., Xolmatov Sh.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv-metodik qo'llanma. – T.: Fan, 2005. 66-b.

---

Muammoli topshiriqda muammoli savol va vazifalarning elementlari mavjud bo'la-di. Shuning uchun ham muammoli vaziyatga olib keladi. Muammoli topshiriqning yechimini hal etishda uning qo'yilish sharti muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, muammoli savol, vazifalarning elementlari birgali-kda muammoli topshiriqni tashkil etadi va muammoli topshiriq esa, o'z navbatida muammoli vaziyatga olib keladi.

Muammoli vaziyat subyektning psixologik holati bo'lib, muammo bilan duch kelganda aqliy qiyinchilikning paydo bo'lishi, zudlik bilan hal qilishga halaqit beradigan yangi bilim va harakat usullarni izlash, ularni topib, hosil bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta'minlaydi. Muammoli holat shaxsni yangi bilimlar olishga da'vat etadi.

O'quv jarayonini muammoli tarzda tashkil etish o'quv xonasiga o'ziga xos psixologik jihatdan yondashuvni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'rta-sida hech qanday psixologik to'siq bo'imasligi, iliq psixologik muhit yaratilishi lozim. Psixologik to'siqning oldini olish uchun tanishuv treningini o'tkazish tavsiya etiladi. Tanishuv treningida har bir o'quvchilar ismini, ismining ma'nosini aytishi yoki ismini aytib, o'zida mavjud bo'lgan biror fazilatni ifoda etishi lozim. So'ngra bugungi mashg'ulotni samarali o'tkazish qoidasi qabul qilinadi. Ushbu jarayon o'quvchilar bilan birqalikda amalga oshiriladi. O'qituvchi bugungi mashg'ulotning samaradorligini ta'minlash uchun o'quvchilar qanday qoidalarga amal qilishi lozimligini sinfdan so'raydi. Mashg'ulotning samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi qoidalarga amal qilinishi tavsiya etiladi: gapni bo'imaslik; bir-birini eshita bilish, tinglay olish ko'nikmasi; navbat bilan gapirish ko'nikmasi; qo'l ko'tarish qoidasiga amal qilish; sabr-toqatli bo'lish va o'zaro hurmat.

Darsni muammoli tarzda tashkil qilish uchun birinchi galda o'quvchilar bahs-munoza ra yuritishga, fikrlarini erkin bayon etishga, tanqidiy munosabat bildirishga tayyor bo'lishi lozim. Buning uchun qo'yiladigan muammolarga bog'liq bo'lgan tushunchalar yuzaga keltiriladi. So'ngra muammoga aniqlik kiritilib, ma'lum xulosalar chiqariladi. Bu jarayon fikr-mulohazalarda ifodalanadi.

Muammoni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida bu jarayonni shartli ravishda quyidagi uch fazaga ajratish mumkin: chaqiruv; anglash; fikrlash fazasi.

Birinchi fazfa chaqiruv fazasi bo'lib, o'quvchilarda mavjud tushunchalar aniqlab olinadi va ularning diqqati muammoga jalb qilinadi. Chaqiruv fazasini tashkil etish uchun quyidagi savollardan unumli foydalanish mumkin:

Bu haqda qanday ma'lumotlarga egasiz? Bu xususida nimani bilishni xohlaysiz? Nima uchun bu muhim?...

Anglash fazasida qo'yilgan muammoni anglab yetish va hal etish nazarda tutiladi. Bunda turli interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Jumladan, kichik guruuhlar tuzish, munozara tashkil etish va quyidagi tartibda savollar qo'yish mumkin:

Siz uchun yangi ma'lumotlar bormi? Ushbu masala yuzasidan sizning fikringiz qanday? Sizda qaysi jihat eng katta taassurot qoldirdi? Buning ahamiyati nimada deb o'ylaysiz? Qanday natija beradi deb o'ylaysiz?

Fikrlash fazasida muammoning yechimi chiqarilib, mulohazalar bildiriladi. O'quvchilar o'zlarini xulosa chiqaradi. O'quvchilarni fikrlash fazasiga jalb etish uchun quyidagilar bilan murojaat qilinishi samarali sanaladi.

Bilim oluvchining oldiga muammo qo'yilgandan keyin uning mohiyatini tushunish zarur bo'ladi. Muammoning ma'lum bo'lgan shartlari asosida ongda muvaqqat bog'lanish amalga oshadi. Muvaqqat bog'lanishlar yechimga olib boruvchi farazlarni keltirib

chiqaradi. Farazlarning to‘g‘riligi sinab ko‘rilgandan keyin, agar u tasdiqlansa, muammo yechilgan hisoblanadi. Faraz tasdiqlanmagan holda yangi faraz ilgari suriladi. Yangi farazning to‘g‘riligi tasdiqlanguncha davom etadi. Shu taxlitda bilim oluvchi o‘rnayotgan materiallarni mukammal o‘zlashtiradi va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikma, malakalariga ega bo‘ladi.

Muammoli ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda ilmiy tilni, tadqiqotchilik ko‘nikmalari elementlarini shakllantirish jihatlari va talablari quyidagicha:

1. Barcha fanlar ham aniq tushunchalar tizimini talab etadi. U tabiiy til asosida yaratiladi va ilmiy tili, ya‘ni fanlarning tushunchaviy toifalari tizimi shakllanib boradi.

2. Fanlarning ilmiy tilini shakllantirish murakkab jarayon, u hanuzgacha qoniqarli darajada tadqiq qilingan emas. Bizga ma‘lumki, barcha fanlar hayotiy tildan ko‘plab atamalarni qabul qiladi. Uning vazifasi atamalardan bir xildagi tushunchalarni shakllantirishdir.

3. Barcha fanlarda ilmiy tilning lug‘at zaxirasi yangi, maxsus atamalar va ta‘riflar bilan boyib boradi, ba‘zan u boshqa fanlar evaziga ham bo‘lishi mumkin (“boshqarish”, “kompyuter texnologiyasi”, “axborot texnologiyasi”) yoki eski ta‘riflar yangicha talqinda ifodalanadi.

4. Foydalanilayotgan atamalarning aniq ta‘rifi va maxsus lug‘atning shakllanishi fan tiliga mos holda amalga oshirilishi zarur. Umumiyo o‘rtta ta‘limda o‘qitiladigan fanlarning o‘ziga xos tomoni shundaki, ularning tili odatiy (kundalik) tilga juda yaqin bo‘lgani uchun tushunish birmuncha yengil kechadi.

5. Belgilar yordamida aniq ilmiy tilni yaratish ushbu fanlarda ham kuzatiladi. O‘quvchilar o‘zlarining kichkinagina tadqiqotlari natijalarini nafaqat yozma ravishda, balki chizma, jadval, shkalalar orqali ham ifodalashlari mumkin. Keyingi vaqtarda o‘quvchilar o‘zlarini tadqiqotchiliklari natijasining tahlili uchun informatikaning tushuncha va ramzlaridan keng foydalanmoqda.

O‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirishda fundamental bilimlari va amaliy ishlari natijalarining o‘zaro munosabatlari quyidagicha talqin etildi:

1. Fundamental va amaliy tadqiqotlar biri ikkinchisiga aloqasiz mustaqil rivojlanadi.

2. Fundamental tadqiqotlar bilimlarni chuqurlashtirishda amaliy tadqiqotlarni tortadi yoki asos bo‘ladi.

3. Amaliyot “yuqori qavat”ni quradi, ya‘ni amaliyotda yuzaga keladigan ziddiyatlar maxsus fundamental tadqiqotlar yordamida yechiladi.

Muammoli ta‘lim asosida ta‘lim jarayoni tashkil etilganda, bilim egallashning bir qancha fanlararo bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bosqichlarida so‘zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlarini bilish, tushunish darajalarini ifodalaydi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O‘zlashtirishning keyingi darajalarida o‘quvchilar olgan bilimlarini amalda tatbiq etish, ma‘lum natijalarini qo‘lga kiritish, to‘ldirish, boyitish, o‘zgartirish, o‘zining mustaqil nuq’tayi nazariga ega bo‘lish talab etiladi. Bu o‘zlashtirish darajalari uchun o‘quvchi o‘zining ijodiy tadqiq qilish qobiliyatini ishga soladi va integrativ yondashuv talab etiladi. Bunda muammoli ta‘lim yondashuv ahamiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirishning zaruriy shartlaridan biri ta‘lim jarayonida fanlararo tizimni bog‘lovchi o‘qituvchi, o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta‘minlovchi, yo‘naltiluvchi, maslahat beruvchi, tafakkurini rivojlantirishning to‘g‘ri yo‘llarini ko‘rsatuvchi, hamkorlik qiluvchi shaxs sanaladi. Bunga muammoli ta‘lim orqali erishish eng ma‘qul yo‘l hisoblanadi.

---

Muammoli ta'lif mustaqil, ijodiy va faol o'zlashtirishni ta'minlash bilan birga, keng qamrovli fikr yuritishga, avvaliga o'zi uchun yangi bilimlarni kashf etishga va keyinchalik ilmni, fanni rivojlantiradigan kashfiyotlar qilishga zamin hozirlaydi.

Muammoli ta'lif mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- o'quv fani va darslar mavzusini o'rgatishda ular bilan bog'liq muammoli masalalarni belgilash;
- ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejashtirib borish;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
- zarur o'quv vositalarini tayyorlash;
- muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko'rsatish;
- topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish;
- o'quvchilarning muammoni hal etishda yo'l qo'yayotgan xatolarini, ularning sabbabini va xususiyatini ko'rsatish;
- o'quvchilarning noto'g'ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to'g'ri yo'lni topishlariga ko'maklashish va boshqalar.

Muammoli ta'lif jarayonini quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin:

1. Muammoli vaziyat hosil qilish.
2. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish.
3. Yechimning to'g'riliqini tekshirish (olingan yechim bilan bog'liq axborotni tizimlashtirish orqali). Muammoli vaziyat hosil qilishda quyidagilar hisobga olinishi lozim.

Muammolar nazariy yoki amaliy yo'nalishda bo'ladi. Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o'quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab – o'quvchilarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa, o'quvchilarda qiziqish hosil qiladigan bo'lishi kerakligidan iborat. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishish imkon bo'lmaydi. Muammo o'quvchilarning bilim darajalariga hamda intellektual imkoniyatlari mos bo'lishi shart. Hosil bo'lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o'zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqish sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog'liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo'ladi. Bunday tushuna olish esa o'quvchilarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi.

Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi. Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyligi, mustaqilligi, ijodiyligi, ilmiyligi, asosliligi, uzviyligi, tejamliligi, maqsadiligi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyligi, umumlashtirilganligi, xususiyashtirilganligi, kengligi, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyligi darajasi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga intellektual sifatlar xotira, tasavvur, anglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezligi hamda boshqa parametrlari bilan bog'liq. Intellektual taraqqiyot darajasi o'qituvchilarda hamda o'quvchilarda qancha yuqori bo'lsa, shunchalik yaxshi natijalarga erishish imkoniyati hosil bo'ladi. Shunga ko'ra o'quvchilarda muammoni sezish, uni aniqlash, yechimiga doir taxminni to'g'ri belgilash va yechimining to'g'riliqini tekshirish qobiliyatları rivojlanib boradi.

Ilmiy izlanishlar natijalari quyidagi xulosalarni berdi:

1. O'quvchilarning muayyan dunyoqarashini shakllantiradi, chunki bilimlarni egallashning yuqori mustaqilligi ularni ishonchga transformatsiyalash imkonini beradi.
2. O'quvchining shaxsiy motivatsiyasini, uning biluv qiziqishlarini shakllantiradi.
3. O'quvchilarning fikriy qobiliyatini rivojlantiradi.
4. O'quvchilarning o'rganayotgan hodisa va qonuniyatlardagi yangi aloqalarni aniqlashini ta'minlaydi.
5. Tadqiqotchilikka o'rgatish, xususan, uzlusiz ta'limga bosh maqsadi bo'lmish ma'nnaviy barkamol insonni tarbiyalashga asos bo'ladi. O'z fikri, o'z qarashiga ega bo'lish komil shaxslikning muhim belgisi hisoblanadi.
6. O'qituvchi-o'quvchining ta'limga jarayonidagi munosabati subyekt-obyekt faoliyatidan pedagogik hamkorlik darajasiga ko'tarilib, o'quvchi dars jarayonining ijrochisiga – subyektiga aylansa, ta'limga olish qiziqarli bo'ladi, ijodiy faoliyat o'quvchi uchun hayotiy ehtiyoja, darslar esa komillikka eltish vositasiga aylanadi.
7. O'quvchining darslik yoki o'rganilayotgan fan mazmunini o'qituvchisidan tayyor holda olmay, o'zi kashfi etib o'zlashtirishi unda yaratuvchilik qobiliyatini uyg'otadi. O'quvchi kashfiyot lazzatini tuyadi va bu uni yangi izlanishlar sari yetaklaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djurayev R.H., Rahimov B.X., Xolmatov Sh.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv-metodik qo'llanma. – T.: Fan, 2005. 66-b.
2. Usmonova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? – T.: Pedagogika va psixologiya ilmiy-ommabop nashri, 2000. 36-b.
3. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.
4. Sayidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O'zMU. 2003.
5. Haydarova O. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'limga jarayoniga integrativ yondashuvga tayyorlash. Ped.fan.nom. diss... – Qarshi, 2004. 159-b.

---

**Tahririyat.** Ushbu maqolada muallif muammoli ta'limga nazariy, amaliy yo'naliishlari, bosqichlari va elementlarini batafsil yoritib bergan. N. Narziyeva fikricha, muammoli vaziyat o'quvchilarning shaxsiy motivatsiyasini, fikriy qobiliyatlarini rivojlantiradi, tadqiqotchilikka o'rgatish, xususan, uzlusiz ta'limga bosh maqsadi bo'lmish ma'nnaviy barkamol insonni tarbiyalashga asos bo'ladi.

E'tibor qiling, muallif fikrlari teran, maqsadlari mushtarak, natijasi esa, amaliyotga qo'llanilganda o'z samarasini ko'rsatadi. Muvaffaqiyatga erishish esa, zukko pedagogika bog'liq.

Ishonchimiz komil, ushbu maqola sizning zehningizda ham yangi fikrlarga yo'lochadi.

**Bozor JO'RAYEV,**

Surxondaryo viloyati Boysun tumani

37-umumi o'rta ta'lismaktab o'qituvchisi

## **TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IDENTIFIKATSİYALASHGAN O'QUV MAQSADLARNI BELGILASH TAMOYILLARI**

### **Annotatsiya**

Maqolada o'quv maqsadlarni ta'lismazmuni, pedagogning yoki o'quvchining faoliyati orqali belgilashga oid tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, identifikatsiyalashgan (taqqoslanadigan) pedagogik maqsadlarni belgilash tamoyillari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** O'quv maqsadi, faoliyat, pedagogik texnologiya, matematika fani, amaliyot, identifikatsiyalashgan.

В статье приводятся рекомендации по определению цели обучения на основании содержания образовательной деятельности педагога и ученика. Также освещаются принципы определения индентифицированных (сравнительных) педагогических целей.

**Ключевые слова.** Цели образования, деятельность, педагогические технологии, предмет математики, практика, индентификация.

Article provides guidance on setting up educational objectives through the content of the education, the teacher's or the student's activities. It also outlines the principles for identified (comparable) pedagogical goals.

**Key words.** Educational objectives, activity, advice, pedagogical technology, mathematics, practice, identification.

**M**amlakatimizda amalga oshirilayotgan uzlusiz ta'lim tizimining islohoti ta'lilda qotib qolgan ko'p qoidalarning o'zgartirilishini, ilmiy asoslangan yangi, yaxlit tizimning shakllanishini taqozo etadi. O'tkazilayotgan islohotlar o'tmishning ijobji g'oyalardidan voz kechish degani emas. Ulardan foydalanish, erishilgan ilmiy salohiyatga tayanish, boy milliy va umumbashariy intellektual va ma'nnaviy merosni amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlash kerak. Shuning uchun ham hozirgi kunda axborotning tezkor oqimi birinchi o'ringa o'tishini inobatga olgan holda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, o'quv jarayonini faollashtirish, o'quvchilar harakatining natijaviligi va samaradorligini oshirish lozim.

Ta'limi qanday qilib kafolatlangan natijaga olib keluvchi o'ziga xos texnologik jara-yonga aylantirish mumkin? Qanday qilinsa oddiy pedagog o'qitishda yuqori samaraga erisha oladi? Ma'lumki, sanoatda zamonaviy texnologiya mehnatni keng taqsimlashni ko'zda tutadi. Mahsulotni loyihalash va uni tayyorlash texnologiyasini yuqori malakali mutaxassislar amalga oshiradi. Bunda, avvalo barcha ikir-chikirlarni aniq, uzil-kesil ifodalaydigan, nima va qanday tayyorlanishi ko'rsatilgan loyiha ishlab chiqiladi, shundan

keyingina mahsulotni tayyorlash va ishlab chiqarishni tashkil etish boshlanadi. Muayyan vazifani bajaruvchi ishchilar texnik hujjalarning talablariga qat’iy rioya qilishadi. Natijada o’tamiyona mahorat bilan ancha murakkab vazifani bajarishga imkon yaratilib, tayyor mahsulotning yuqori sifati ta’minlanadi.

Pedagogik texnologiyada ham o’qitish jarayonini loyihalash bosqichiga va avvalo, ta’limning kutilajak natijalariga alohida e’tibor qaratiladi. Bizning fikrimizcha, texnologik yondashuvning dastlabki bosqichida didaktik vositalarni ishlab chiqishni bir guruh tajribali uslubchi o’qituvchilarga topshirish maqsadga muvofiq boladi. Pedagogik texnologiya paydo bo’lgunga qadar boshqa masalalar qatorida murakkab qurilma va jarayonlarni loyihalash o’rganiganiladigan ta’lim tizimida aynan ta’lim jarayonining o’zini samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Bu bo’shliqni pedagogik texnologiya to’ldirdi va ayni paytda loyihashtirilgan o’quv jarayonini ro’ybga chiqarishga ijodiy yondashish uchun pedagogga keng o’rin qoldirdi.

Pedagogik texnologiyaning o’ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o’quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o’quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko’rsatmali tuzilmada o’z ifodasini topadi. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo’li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o’zaro aloqani o’rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o’qitishdir. O’zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o’quv jarayonini to’liq qamrab olishi kerak. Ushbu tezisni batafsil ko’rib chiqaylik. Pedagog odatda o’z oldiga o’quvchilar materialning mazmunini tushunib, o’zlashtirib olishsin, ma’lum bilimlarni egallab, amaliyotda qo’llashga o’rgansin, degan maqsadni qo’yadi. Lekin o’zlashtirish, tushunish, qo’llash nimani anglatadi? Pedagog o’z oldiga qo’ygan maqsadga erishganligini qanday biladi? Pedagogik maqsadlarga erishganlik yoki erishmaganlikni biliшhning aniq vositalari bo’lgandagina, pedagog o’zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlari maqsadga muvofiqligiga yoki, aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Odatdagi o’qitish uslubini tadqiq qilishda pedagogik texnologiya tarafдорлari aynan shu narsani nazarda tutishgan edi.

Ma’lumki, pedagog jamiyatdan buyurtmani umumiyo ko’rinishda oladi. Hattoki, o’quv dasturlarida belgilangan maqsadlar ham bir nechta tushuntirishlar bilan cheklangan. Bunda maqsadlarni aniqlashtirishning o’ziga xos pillapoyasini tuzish mumkin: jamiyatning umumiyo talablaridan ta’lim tizimi vazifalariga, ulardan ma’lum o’quv yurti, o’quv predmeti, uning tematik bo’limlari va o’quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash. Masalan: “N’yutonning ikkinchi qonunini o’rganish” yoki “birinchi bobning mazmunini o’rganish”. Maqsadni bunday qo’yish orqali bilim sohasining predmetli mazmunga qaratilganligi va pedagog o’z maqsadiga erishganligi haqida aniq hukm chiqarish qiyin. Bu usulda maqsadga erishganlikni qanday aniqlash mumkinligi ko’rsatilmagan.

Maqsadni pedagog faoliyati orqali ifodalash. Masalan: “O’quvchilarini ichki yonuv dvigatelining ishlashi bilan tanishtirish” yoki “detal chizmasida shartli ifodalarni o’qish usullarini ko’rsatish. Bu yerda ham ta’lim jarayonining aniq maqsadlarga erishganligini qanday bilish mumkinligi ko’rsatilmagan.

O’quvchining intellektual, emotsiional, shaxsiy rivojlanishining ichki jarayonlari va qonuniyatları orqali o’quv maqsadini qo’yish. Masalan: “Hodisani tahlil qilish malakasini tarkib toptirish”, “Kompyuterda matematik masalalarni mustaqil yechish malakasini rivojlantirish”, “Kompyuterda fizik masalalarni yechish jarayonida o’quvchilarini mustaqil fikrlashga o’rgatish”... Bunday mavzularda ta’lim muassasasi doirasidagi o’quv maqsadlari,

---

o'quv predmeti yoki predmetlar majmuasi doirasida qo'yilganligi ko'rinish turibdi, lekin o'quv mashg'uloti yoki hatto mashg'ulotlar jamlamasida ham emas. Bunda o'quv maqsadiga erishganlik haqida ko'rsatkichlarni topib bo'lmaydi. O'quv maqsadlarini o'quvchilar faoliyati orqali qo'yish lozim. Masalan: "Tajriba mashg'ulot maqsadi – kompyuterda kvadrat tenglama ildizlarini topish bo'yicha misol yechish". Bir qarashda o'quv maqsadini bunday yechish mashg'ulotni rejalashtirish va o'tkazish xususida aniqlik kiritadi. Lekin bu yerda ham diqqat markazidan asosiy narsa tushib qoladi-o'qitishdan kutilayotgan natija va uning oqibati. Bu natija o'quvchi rivojlanishidagi ma'lum siljishdir.

Ta'lif oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati psixologik-pedagogik jihatdan o'qitish (dars berish) va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog'liqdir. Pedagog ta'lif oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqishi, ta'lif oluvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo'llash mahoratiga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchi oliy ma'lumotga ega bo'lishi, quyidagilarni bilishi va ulardan foydalana olishlari kerak:

- umumiyo'rta ta'lif davlat ta'lif standarti (umumiyo qoidalar) shuningdek, o'qitilayotgan predmet bo'yicha o'quv dasturi talablarini;
- umumiyo'rta ta'lif to'g'risidagi normativ-huquqiy va direktiv hujjatlarni;
- sinflar va kabinetlar (laboratoriylar)ni tegishli o'quv-laboratoriya anjomlari bilan jihozlash bo'yicha talablarni;
- o'quv -tarbiya jarayonini tashkil etish va sifatini ta'minlash prinsiplarini;
- o'quv predmetlarining mazmuni va ularni o'qitishdagi izchillik asoslarini;
- o'quvchilarning umumiyo va yosh psixologiyasini;
- o'qitishning interaktiv metodlarini;
- o'quvchilarni milliy g'oyalari asosida ma'naviy - axloqiy tarbiyalash metodologiyasini;
- o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarni olib borish shakl va metodlarini;
- o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan muomalada etika va estetika normalarini;
- sindan tashqari (darsdan tashqari) ishlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasini;
- belgilangan sanitariya-gigiyena normalarini.

Shu asosda belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun bajarish kerak bo'ladigan vazifalarni uchta yo'nalishga ajratish mumkin. Bular: ilmiy-nazariy ma'lumotlarni o'rganish, metodik ishlar va pedagogik faoliyat kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu yo'nalishlar quyidagilarni nazarda tutadi:

– ilmiy-nazariy ma'lumotlarni o'rganish – mavzuga doir mavjud adabiyotlar bilan tanishish orqali mavzu bo'yicha izlanishlar yo'nalishlari, muammo, yechim, xulosa, amaliyotda qo'llash va rivojlantirish imkoniyatlari, istiqbollari haqida qisqa bayon qilishni ko'zda tutadi;

– metodik ishlar – tinglovchi tomonidan amalga oshirish rejalashtirilgan ilg'or pedagogik tajribani o'rganish; o'z ish tajribasini bayon qilish; metodik tavsiya tayyorlash; o'quv-ko'rgazmali qurol, boshqa didaktik vositalar tayyorlash; dars (mashg'ulot) kuzatish va tahlil qilish kabi ishlardan iborat bo'radi;

– pedagogik faoliyat – tinglovchining ochiq dars (mashg'ulot) va boshqa ta'lif-tarbiyaviy tadbirlar tayyorlashi, tashkil qilishi, o'tkazishini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, o'qitishning maqsadlarini ta'lif mazmuni, pedagogning yoki o'quvchining faoliyati orqali belgilash ta'limda kutilayotgan natijalar haqida aniq taassurotga ega bo'lishga imkon bermaydi. Bu natijalar haqida o'quvchilar faoliyatining faqat tashqi

namoyon bo‘lishidan xulosa qilish mumkin. Pedagog o‘qitish natijasini aniqlashtira bo‘rib, uning kuzatish mumkin bo‘lgan tashqi belgilarini (so‘zlashuv, harakatlanish) to‘la tasvirlashga intiladi. Gohida tasvirlash jarayonining tashqi belgilarini sanab chiqishga olib keladi, demak, bu orqali natijani sezilarli soddalashtirish mumkin. Holbuki, ilmda ham, amaliyatda ham murakkab jarayonlarni sodda andozaga keltirish juda zarurdir. Pedagogik texnologiyada nazarda tutiladigan maqsadlarni qo‘yish uslubi o‘zining ash-yoviy xususiyatiga ega. Bu shundan iboratki, o‘qitish maqsadlari o‘quvchilar harakatida ifodalanadigan, aniq ko‘rinadigan va o‘lchanadigan natijalar orqali belgilanadi. Bu mantiqan to‘g‘ri, chunki o‘qitish – pedagog va o‘quvchining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi. Bunda maqsadlar o‘qituvchining faoliyatidan kelib chiqqan holda qo‘yiladi (o‘rgatish, tushuntirish, ko‘rsatish, aytib berish va hokazo), o‘quvchining harakatlarida ifodalanadigan natijalar esa ta’limning vazifalari deyiladi. Vazifa talabaning tugallangan xatti-harakatini ifodalovchi atama bilan ifodalanishi shart.

Shunday qilib, an’anaviy o‘quv jarayonida asosiy omil pedagog (va uning faoliyati) hisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o‘ringa o‘qish jarayonidagi o‘quvchilarning faoliyati qo‘yiladi. Vazifalarni o‘lchash, aniqlash, o‘qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo‘lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya’ni ta‘lim maqsadi shunday qo‘yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo‘lsin. Shuni ta‘kidlash kerakki, pedagogik adabiyotda vazifalar ba’zan identifikatsiyalashgan (taqqoslanadigan) pedagogik maqsadlar deb ataladi. Shunday qilib, o‘qitishning vazifalarini tekshirish va baholash lozim. Vazifalarni yanada aniqlash maqsadida quyidagi qadamlarni qo‘llang:

- har bir vazifalar guruhini “Dars yakunida talabalar quyidagilarni bajara olishlari lozim. . . ” deb boshlang;
- har bir vazifani raqamlang;
- har bir vazifani quyidagi fe’llardan boshlang: sanab o‘ting, eslang, so‘zlab bering, ko‘rsatib bering, tanlang, hisoblang va h.k;
- har bir vazifani o‘quvchi so‘zi bilan qo‘ying (o‘qituvchi atamasida emas);
- har bir vazifa faqat bitta natijani ko‘zlasin, ikkita-uchtani emas;
- har bir vazifani shunday qo‘yingki, toki u o‘qituvchining o‘tagidan darsining bosqichlarini emas, balki “o‘quvchi o‘zini keyinchalik qanday tutishi kerakligiga ishora qilsin”;
- vazifalarni shunday yozingki, uning ishlatalishini mezonlash va qanday qilib maq-sadga erishilganligini aniqlash mumkin bo‘lsin;
- ular buni qila oladilarmi? – degan savol xolis baholashda ishlataladi (kerakli test topshiriqlarini tuzishda).

Vazifalar bizlarga o‘quv savollarini, mavzularini, bo‘limlarni, butun fanni, nimalarni baholash kerakligini (og‘zaki, yozma yoki test uslubida) aniqlab beradi. Maqsadlarni mutlaqo to‘liq taqqoslash g‘oyasi shuni nazarda tutadiki, bundan so‘ng o‘quvchi faoliyatini kuzatish, o‘lchash vositalari orqali tushuntirish imkonini turadi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Istiqlol va ma’naviyat*. –T.: O‘zbekiston, 1994.
2. Muradova N. K., Majidov R. R. *Kasbiy ta‘lim uslubiyoti*. – T., 2007. 57-72-bet.
3. Begimqulov U. Sh. *Pedagogik ta‘limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya*. –T.: Fan, 2007.
4. G‘ulomov S.S. *Axborot tizimlari va texnologiyalari*. – T.: Sharq, 2000.

**Dilnoza ISMATOVA,**  
Navoiy Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

## **AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA CHET TILLARNI O'QITISH METODLARI**

### **Annotatsiya**

Maqolada chet tili darslarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya, pedagogik texnologiyalar, elektron darsliklar hamda multimedia vositalari orqali tashkil etishning muhim jihatlari hamda bu vositalardan qaysi usulda foydalanish metodlari va ularning samaradorligi xususidagi fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron darslik, multimedia, tushuntirish-illyustratsiyalash, reproduktiv, muammoli, tadqiqotchilik ta'lim metodlari.

В статье изложены эффективные приемы использования современных информационно-коммуникационных, педагогических технологий, электронных учебников и мультимедийных средств обучения иностранному языку.

**Ключевые слова.** Информационно-коммуникационные технологии, электронный учебник, мультимедиа, объяснительно-иллюстративный, репродуктивный, проблемный, исследовательские методы обучения.

Article highlights the effective methods of using modern information and communication technologies, electronic textbooks and multimedia for teaching foreign languages.

**Key words.** Information and communication technologies, electronic textbook, multimedia, explanatory-illustrative, reproductive, problematic, research methods of teaching.

**R**еспубликамиз ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, o'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimedia vositalarini keng joriy etish, o'quv-laboratoriya bazasini eng zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilarning sermashaqqat mehnatini moddiy-ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartida o'quv fanining maqsad va vazifalari keltirilgan bo'lib, unga binoan O'zbekiston Respublikasida ta'liming barcha bosqichlarida chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyanı shakllantirishdan iboratligi ta'kidlangan.

Chet tili kommunikativ kompetensiyasi – o'rganilayotgan chet tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llay olish qobiliyatidir.

Ushbu hujjatda kompetensiyalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

**Lingvistik kompetensiya til materiali** (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilmilar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o'qish va yozish) bo'yicha ko'nikmalarni egallahni nazarda tutadi.

**Sotsiolingvistik kompetensiya** so'zlovchining biror-bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o'z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatları, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarini bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko'zda tutadi.

**Pragmatik kompetensiya** o'rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va h.k.lar orqali mu'rakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurs kompetensiyasi pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritildi. U og'zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskurs kompetensiyasi og'zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta'minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish ko'nikmalarini nazarda tutadi.<sup>1</sup>

Bu maqsad va vazifalar chet tili mutaxassislari zamonaviy ta'larning muhim tablariidan, ya'ni ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish orqali amalga oshiriladi. Bu esa, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat, ijodkorlik, yangilik yaratuvchanlik, intiluvchanlik, fidoyilikni hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari aqliy mehnat sharoitlarini optimallashtirish borasida samarali vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizning yetakchi mutaxassislari tomonidan o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni o'rgatish, shu tillarda erkin muloqotga kirisha olishlari hamda chet tili darslarining sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'plab zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar, multimedia vositalari, elektron darsliklar yaratilgan bo'lib, o'quv jarayoniga qo'llanilib kelinmoqda.

Chunonchi, chet tillarini o'quvchi-yoshlarga o'rgatishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish tizimi ham yaratilgan bo'lib, bu tizimning eng muhim jihatlaridan biri uning uzuksiz amalga oshirilishidadir.

Chet tili fani o'qituvchilar dars jarayonida turli kommunikatsion texnologiya, elektron resurslardan foydalanish jarayonida didaktik qonun-qoidalarni o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlari mos tarzda amalga oshirishga ham e'tibor qaratishlari lozim.

Chunki chet tili fanining boshqa o'quv predmetlaridan farqli jihatlari: o'quv jarayoni grammatik mavzular, o'xshash sintaktik hodisalar, nutq ko'nikma va malakalarini egalashda o'zaro uzviy bog'liq va uzuksiz holda o'rgatiladi.

Chet tillarini axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida o'qitish ishlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

– leksikani o'rgatish;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Uzuksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 20-son, 251-modda).

- 
- talaffuz ustida ishslash;
  - dialogik va monologik so'zlashishga o'rgatish;
  - yozuvni o'rgatish;
  - grammatik hodisalarini qayta ko'rish va tahlil qilish.

Chet tili mashg'ulotlarida texnik vositalardan foydalanish bir qator didaktik vazifalarni yechishga ko'maklashadi: o'quvchilarda o'qish ko'nikmalari shakllanadi, yozuv malakalari takomillashib boradi, lug'at zaxirasi to'ldiriladi, ularda chet tillarini o'rganishing bo'lgan qiziqish, bilish faoliigi oshadi, dunyoqarashi kengayadi.

O'quv jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda kompyuter muhim vosita hisoblanib, uning yordamida Word rejimidagi matn muharriridan foydalanish mumkin. Bu muharrir matnli jarayonlar sinfidagi eng zamonaviy dasturlardan biri bo'lib, yuzlab amallarni bajara oladi. Uning yordamida tezkorlik bilan matn ustida muhim kommunikativ xatti-harakatlarni va amallarni bajarish mumkin.

Masalan, matn muharriri yordamida turli mashqlarni yaratish orqali o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan tildagi matnlarni yaratish ustida olib borgan faoliyatini rag'batlantirishda foydalansa bo'ladi.

Topshiriqlar tizimi quydagicha amalga oshirilishi mumkin:

- berilgan matnni Word dasturida tering va unga o'zgartirishlar kriting;
- matnni qisqartiring, undan faqat eng muhim axborotni ajrating;
- matndan foydalanib, berilgan savollarga javob toping va javobingizni boshqa xildagi rang bilan ajratib ko'rsating;
- matnni ma'noli qismrlarga ajrating;
- gaplarning to'g'ri, izchillik tartibini tiklang;
- matnda tinish belgilari, bosh harflar, so'zlar o'rtasida ochiq joylarni aniqlab, matnni to'g'ri holatga keltiring;
- passiv konstruksiyalarini toping va ularni kursivda ajratib ko'rsating.

Bu turdag'i mashqlar o'quvchilarning matn bilan ishslash ko'nikmasini shakllantiradi, ijodiy fikrlashga undaydi va matndagi so'zlarni xotirasida uzoq muddat saqlanishiga erishiladi.

Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarning layoqati va qiziqishiga qarab topshiriqlar tizimiga o'zgartirishlar kiritishi mumkin, masalan, sind jamoasini kichik guruhlarga bo'lgan holda har bir guruhga alohida-alohida topshiriqlar: tabriknoma, so'rovnoma, tarjimi hol, referat kabi matnlarni yaratish topshiriladi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalari, kompyuter dasturlari o'quvchilarning chet tilida so'zlashish faoliyatini shakllantirishda ham samarali natija beradi. Bu jarayonni amalga oshirishda o'qituvchining ijodkorligi muhim hisoblanib, mashqlar turli kombinatsiyalarga uyg'unlashtirilsa, o'quvchilar tomonidan chet tildagi hodisalar o'zlashtiriladi, lingvistik qobiliyatları shakllanadi, kommunikativ vaziyatlarni yaratishga yordam beradi, til va so'zlashuv harakatlarini avtomatlashtirishni hamda o'quvchilarning mustaqil ishlashlariga imkon yaratiladi.

Chet tili darslarida mutaxassislar tomonidan yaratilgan elektron multimedia vositalardan foydalanish orqali yuqori natijaga erishish mumkin. Masalan, o'quvchilarga "Grammatika" bo'limini o'rgatishda, kompyuter va audio vositalardan foydalanib, fonezik mashqlarni bajartirish mumkin. Bunda tovushlar, so'zlar, iboralar va gaplar o'quvchilarga audio vositasida eshittiriladi va ekranda vizual ko'rish orqali qabul qilinadi. Bu kabi vositalarning qo'llanilishining muhim jihatları shundaki, o'quvchilar ekranda artikulyatsion xatti-harakatlarni ham kuzatadi, to'g'ri talaffuz qilishni eshitib, o'rganadi

hamda ularning xotiralarida to'g'ri namunalar saqlanib qoladi. Multimedia vositasida va elektron holatda taqdim etilgan o'quv materiallari o'quvchilarning grammatik mashqlarni individual, jamoa bo'lib bajarishida, har bir o'quvchi tomonidan berilgan savollar ni to'g'ri tushunish, aniq javobni topishlarida samarali natijaga erishish va qisqa vaqt sarflash imkonini beradi.

Chet tili mutaxassislarining e'tibor qaratishi lozim bo'lgan yana bir masala borki, bu chet tili fanlarining o'ziga xos bo'lgan didaktik xususiyatlaridan biri, ya'ni darsni rejalashtirishda o'quvchiga yangi mavzuni o'rgatish, yangi so'zlarni yodlatish, yangi quidalarni tushuntirishdan tashqari har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini, shaxsini rivojlantirish, chet tillarini o'zlashtirishga qiziqishlarini yuksaltirish sanaladi.

Bunga quyidagi vazifalarni bajarish orqali erishiladi:

- o'quvchilarning chet tillarini o'qitish jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan amaliyotda to'g'ri foydalanishga o'rgatish;
- o'quvchilarning imkoniyati, qobiliyati va yosh xususiyatlarini hisobga olib o'quv materiali va topshiriqlarni tanlash;
- o'qitishning turli shakl va usullari vositasida, darslarda o'rgatuvchi xarakter-dagi kompyuter texnikasidagi ko'pgina dasturlar: multimedia, repititor, Flesh, Microsoft Power Point, Microsoft Word kabilalar asosida tayyorlangan didaktik o'yinlardan foydalanish vositasida chet tili faniga o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish;
- o'qituvchi o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil qilishda sinf o'quvchilarning barchasini faol harakatini ta'minlay olishga e'tibor qaratishi kerak. Chunki shaxs faoliyat jarayonida shakllanadi.

Kompyuter texnikasi vositasida tayyorlangan (multimedia, repititor, Flesh, Microsoft Power Point, Microsoft Word kabilalar asosida) didaktik o'yinlar yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'quvchilarga chet tillarini o'rgatishda samarali natija beradi, ularning darsga qiziqishlarini oshiradi.

Umumiy o'rta ta'limgarayonida bugungi kunda amaliyotchi, ijodkor o'qituvchilar tomonidan chet tili darslarida axboro-kommunikatsion texnologiyalar vositasida yaratilgan qator didaktik o'yinlardan keng foydalanilmoqda. Didaktik o'yinlar: *leksik; grammatik; fonetik; orfografik; ijodiy* o'yinlar darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan bir qatorda, o'quvchining tilni o'rganishini, xotirasi, diqqati, ziyrakligi, zehnini rivojlantirishga ijobiy ta'sir qiladi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida yaratilgan o'yinlarni o'quv jarayonida qo'llashda o'qituvchidan vaziyatlarni yaratishda tabiiylikka, o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarni o'zlashtirish, so'z va iboralarni to'g'ri talaffuz qilib, muloqot jarayonda to'g'ri qo'llay olishlarini nazorat qilib, o'z o'rniда o'quvchilarning xatolarini tuzatib, yutuqlarini rag'batlantirib borishlariga asosiy diqqat-e'tiborni qaratishi talab etiladi. O'qituvchi o'quvchilar guruhini o'zaro bir-biri bilan o'yin vaqtida muomalaga kirishayotganida xatosini aytib, ularni to'xtatmasligi kerak, balki o'yinda o'zi ham ishtirot etib, o'quvchilarning qiziqishini, faolligini susaytmasdan, asosiy fikridan chalg'itmasdan, mohirona tuzatish kiritib, suhabatni davom ettirishi muhimdir.

Chet tili darslarini olib borishda o'qituvchilar tomonidan axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchida chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Chet tili fani o'qituvchilari muntazam axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib, tanlov, viktorina, taqdimotli, turli mamlakatlarga sayohat kabi rang-barang darslarni tashkil etishlari va bularning barchasi o'qituvchi tomonidan puxta loyihalanib,

---

ishlab chiqilishi kerak. O'qituvchi darsdan oldin kerakli material, tarqatma materiallar, taqdimotlar, ssenariylarni tayyorlaydi. Kerak bo'lganda, o'qituvchining darsdan oldin o'quvchilarga topshiriqlar berishi, so'zlar va matnlar bilan tanishtirishi o'quvchilarning mustaqil ishslash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Chet tili fani o'qituvchilarini axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonida:

- o'quv topshiriqlarining tizimli;
- oddiydan-murakkabga o'zgartirib, murakkablashtirib borish;
- o'quvchilarning yosh xususiyatlariaga mos, ularda muomala, birlgiligidagi faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga;
- foydalaniladigan vositalar darsning shakli, mazmuni, maqsadi, sinfdagi o'quvchilar sonini inobatga olib, tanlash muhim sanaladi.

Xulosa o'rnda aytish joizki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini xorijiy til-larni o'qtish metodikasi jarayoniga tadbiq qilishdan asosiy maqsad – mavjud sharo-itda va o'quv rejasida berilgan vaqtida rejalashtirilgan natijaga erishishning kafolatini ta'minlash, bu orqali ta'lim samaradorligining oshishiga erishish, chet tili o'qituvchilarining ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan yangi avlodini shakllantirish, pirovard natijada respublikamizning bo'lajak fuqarolarini xorijiy tillarda erkin gapira oladigan, xorijiy adabiyotlarni o'qib tushuna oladigan mutaxassislarga aylantirishdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori*. 2012-yil 10-dekabr.
2. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzlucksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori*. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 20-son, 251-modda.
3. *Chen Chjan. Muvaffaqiyatga eltuvchi muomala san'ati*. – T.: Yangi asr avlod, 2006. 3-b.
4. *Shuhrat Sirojiddinov, Mahmud Lutfillayev. Chet tilining o'quv-metodik adabiyotlarini axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida yaratish tizimi*. "Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim" jurnali, 2013-yil, № 2 (47), 9-b.

---

**Tahririyat:** Uzlucksiz ta'lim tizimida chet tillarni o'rganish bo'yicha bir qator usullar shakllangan. Ular orasida chet tilini kompyuter vositasida o'rganish salmoqli o'r'in tutadi. Muallif o'z maqolasida ushbu usulning o'rnini va ahamiyatini ko'rsatib berib, maqsadga umumiy yondashgan.

Bizningcha, chet tilini o'rganish bo'yicha aniq va samara beradigan, biror metodni taklif etganda, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Gavhar KARIMOVA,  
Toshkent shahar XTXQTMOI katta o'qituvchisi

## SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK MONITORINGNING MUHIM JIHATLARI

### Annotation

Maqlolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida pedagogik monitoringning muhim jihatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif pedagogik monitoringni tarkibi va mazmunini oshirishga doir o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik monitoring, mazmun, ta'lim jarayoni, kvalimetriya.

В статье рассматриваются основные аспекты педагогического мониторинга личностно-ориентированного обучения. Также автор даёт рекомендации по совершенствованию структуры и содержанию педагогического мониторинга.

**Ключевые слова.** Личностно-ориентированное обучение, педагогический мониторинг, содержание, образовательный процесс, квалиметрия.

Article examines the main aspects of pedagogical monitoring of personality-oriented learning. Author also makes recommendations on improving the structure and content of pedagogical monitoring.

**Key words.** Personality-oriented training, pedagogical monitoring, content, educational process, qualimetry.

**P**edagogika – ijtimoiy fan sifatida doimiy harakatda bo'ladi, jamiyatning rivojlanishi bilan birgalikda yangi bilimlarga mos ravishda yangi tushunchalar bilan boyib boradi. Amaliyotchi pedagog uchun ushbu yangiliklarning bar-chasini bilish imkoniyati bo'lmasi mumkin. Shu tufayli ham, pedagoglar uchun yangi hodisa bo'lgan – monitoring haqida tushuncha berishga, texnologik jarayon nuqtayi nazaridan monitoringning o'zi nima, monitoring dasturini qanday ishlab chiqish va monitoringli baholashni qanday o'tkazish mumkin, degan savollarga javob berishga urinib ko'ramiz.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi davrida, ishlab chiqarishning barcha sohalarida "monitor" so'zi bilan bir qatorda "monitoring" tushunchasi ham keng tarqaldi.

Monitoring quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– informatsion, ya'ni monitoring obyekti holatini nazorat nuqtalari va yakuniy natijalari bilan belgilangan muddatlarda (monitoring jadvali va dasturi asosida) diagnostik - istiqbolli kuzatuv;

– tashkiliy-faoliyatli, ya'ni ta'lim maqsadlari va ularni amalga oshirish vositalari va bajarayotgan vazifalarni korreksiya qilish yoki pedagogik tizimlarni keyinchalik ri-

---

vojlanishi istiqbollarini belgilashning optimal yo'lini tanlash bo'yicha bir qarorga kelish uchun axborotlarni davriy ravishda maqsadli yig'ish, umumlashtirish, tizimlashtirish va tahlil qilish;

- istiqbolli-pedagogik tizimlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, ularning keyinchalik rivojlanishini qisqa muddatli istiqbolini belgilash;
- nazoratlovchi – baholovchi – amalga oshirilgan pedagogik harakat samaradorligini va pedagogik tizimning yakuniy maqsadlariga to'liq erishishni nazorat qilish hamda baholash.

Ma'lumki, pedagogik faoliyatning maqsadi "ustozlik qilish", ya'ni bir tomonidan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, boshqa tomonidan kimgadir bir yaxshi narsani "o'rgatish"dir. Shu maqsadda o'rganish jarayonini boshqarish uchun kuzatish tashkil qilinadi va nazorat amalga oshiriladi. Masalan, ta'lif jarayonining mantiqi bitta tadqiq qilinayotgan tushunchaning ajratib ko'rsatilgan leksik ma'nolariga tayanib monitoringni hosil qiluvchi xatti-harakatlarning biror ketma-ketligini ko'rish imkonini beradi.

Monitoringni konseptual jihatdan yangi turi tadqiq qilinayotgan obyektlarning ta'riflari aniqligini test nazorati asosida standartlashtirilgan sharoitda bir turdag'i obyektlarni ommaviy tarzda tekshirish jarayoni sifatida ta'minlaydi. Kvalimetrik monitoring shaxsga yo'naltirilgan uzuksiz ta'lifning sifatini zamonaviy va istiqbolli boshqarish vositasi deb qaraladi. Tadqiqot mantiqi ko'rsatadi, kelajakda u nafaqat umumiyligini ta'lif sohasiga ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, butun uzuksiz ta'lif tizimining sifati to'g'risida ishonchli ma'lumot olish asosiga aylanadi.

Ko'p bosqichli kvalimetrik monitoring quyidagilardan tashkil topgan:

- ta'lif obyekti faoliyati ustidan uzuksiz kuzatuvning tashkiliy tuzilmasi;
- pedagogik o'chovlar vositasida ma'lumotlarni yig'ish va to'plash uchun zarur bo'lgan metodikalar, jarayonlar va resurslar majmuyi;
- berilgan xususiyatlar, ta'riflar, parametrler bo'yicha ta'lif natijalarini olish uchun uni operativ tarzda o'rganish, talqin qilish va pedagogik jarayonga ta'sir o'tkazish maqsadida Internet tarmog'idagi ta'lif ma'lumotini tahlil qilish metodlar to'plami, uni tavsiya va taqdim etish bo'yicha tavsiyanomalar.

Bunday monitoring obyektning vaqt ichidagi holatini tahlil qilish, ta'lif tizimi holatini va ta'lif subyektining sifat o'zgarishlarini miqdoriy baholash, uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini beruvchi pedagogik jarayoni ustidan standartlashtirilgan kuzatuvdan iboratdir. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning maqsadga muvofiqligi maktab va oliy o'quv yurti ta'lifning izchilligini ta'minlash zaruriyati bilan belgilangan. Model tuzish uchun monitoring natijalarini samarali ishlatalishini ta'minlovchi ta'lif sifati ko'rsatkichlari, bilim darajasini baholash mezonlari, olingan natijalar standartlari, texnologiyalari, test masalalarini ta'lif muassasasi banki va informatsion oqimlarni o'z ichiga qamrab olish kerak.

Yuqorida aytilib o'tilganidek, o'quv-tarbiyaviy jarayonning asosiy maqsadi o'quv-chilarga mayjud bilim va ko'nikmalarni uzatish, ularga biror yaxshi narsani o'rgatish hisoblanadi (masalan, "yaxshi" va "yomonni" ajratishni). Bu o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishdagi eng katta vazifa hisoblanadi. Bu yuqori vazifa pedagoglar faoliyatining maqsadini belgilab beradi.

Kuzatish bosqichida o'qituvchi-pedagoglar ham o'quv, ham tarbiyaviy jarayonda yuz berayotganlarni qayd qilib borishlari kerak, bu yerda o'quv-tarbiyaviy jarayonni hisobga olish va qayd qilish talab qilinadi.

O’quv-tarbiyaviy jarayonda rejadan og‘ishlar va hatto buzilishlar bo‘lishi tabiiy. Shuning uchun aql bilan boshqarish zarur. Bu bosqichda (boshqarish yoki rahbarlik qilish) o‘qitish va tarbiyalash jarayoniga tuzatishlar kiritilishi mumkin. Bu yerda og‘ishlarni o‘z vaqtida aniqlash va boshida belgilangan maqsadga moslashtirib borish kerak.

Ma‘lum bir bosqichda jarayon qo‘yilgan maqsadga qay darajada mos kelishini aniqlash uchun nazoratni tashkil qilish va o‘tkazish zarurati tug‘iladi. Nazorat zarur hollarda yoki ma‘lum bir davrda amalga oshirilishi mumkin, bunda agar tuzatish kiritish zarur bo‘lib qolsa, nazorat o‘tkazish haqidagi qaror boshqarish bosqichida ham qabul qilinishi mumkin.

Tadqiqotining keyingi qadami “Pedagogik monitoring” tushunchasining atama sifatida tahlil qilish hisoblanadi.

Ba’zi tadqiqotchilar “pedagogik monitoring”ga psixologiyada, pedagogikada va metodikada ancha avval o‘z o‘rnini topgan “tashxis qilish”, “avvaldan aytib berish”, “baholash” tushunchalari orqali ta’rif berib o‘tishgan.

Ta’limning hozirgi jarayoni bolalarga insonparvarlik asosida yondashilgan shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasiga asoslangandir. Avtoritar an‘anaviy ta’lim yonda-shuviga yangi konsepsiyaada bolalarga insonparvarlik ruhida yondashish qarama-qarsi qo‘yilgan. Bolalarga ta’lim berishga insonparvarlik ruhida yondashish o‘qituvchini bolalar shaxsiga, ularning ichki dunyosiga murojaat ettiradi. O‘qituvchining maqsadi – bolaning ichki kuchlarini uyg‘otish, faoliikkha chaqirish, ularni bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirishga ishlatishdan iborat. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda eng muhimmi – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatni insoniyashtirish va demokratlash-tirishdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda hamkorlik quyidagi tarzda quriladi:

- buyruq berish emas, tashkillashtirish;
- cheklash emas, tanlash imkoniyatini yaratish;
- o‘qishga majburlash emas, rag‘batlantirish.

Ommaviy amaliyotda o‘quvchilar bilan hamkorlik qilish majburlash asosida qurilishini hisobga olinadigan bo‘linsa, u holda, majburlamasdan ta’lim berishni egallash quyidagilardan iborat:

- ishonchga asoslangan talabchanlik;
- qiziqarli dars berish orqali o‘quvchilarning qiziqtirilishi;
- har bir o‘quvchiga yutuqqa erishishini tashkillashtirish;
- o‘quv jarayonida o‘quvchilarning mustaqilligi va tashabbuskorligi.

Majburlamasdan o‘qitish bolalarning mактабдан, ta’lim olishdan bo‘lgan qo‘rqishi-ni yo‘q qiladi. Bu muhimdir, chunki bu o‘quvchini o‘quv jarayonining faol qatnashchisi-ga aylanishiga imkon yaratadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda bolalarga individual yondashuv yangicha tarzda amalga oshiriladi. Ta’limning ushbu turida individual yondashuvning mohiyati shundan iboratki, pedagogik jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetidan o‘quvchiga qarab emas, balki o‘quvchidan, o‘quvchining ega bo‘lgan layoqatidan, potensial imkoniyatlaridan o‘quv predmetiga qarab rivojlantirib, mukammalashtirib boyitadi.

O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy bosqichda pedagogik monitoringning tushuncha – atamashunoslik apparati to‘planmoqda, bunda monitoring, pedagogik monitoring, ta’lim monitoringning tushuncha apparatida chegaralashga urinilmoqda, bu esa har doim ham o‘zini oqlayvermaydi. Masalan, biz monitoringning

---

maqsadi, vazifalari, funksiyalari va shu kabilarni shakllantirishda o'ziga xos farqlarni va qarama-qarshiliklarni ko'rmadik. Nazarimizda ular orasidagi farq faqat tushuncha sohasida emas, balki amaliy, ya'ni aynan ijtimoiy buyurtmani bajarish sohasida yotadi.

Monitoring amaliy tushuncha sifatida pedagogik kvalimetriya sohasiga tegishli bo'lib, klavimetrik tushunchalar bilan tavsiflanadi: pedagogik ekspertiza, xizmat, ma'lumot manbalari, ma'lumotlardan foydalanuvchilar, instrumentariy, o'lchovlar banki va monitoring tizimi hamda uning yo'nalishlari monitoringning umumiy tavsifnomasini to'l-diruvchi muhim tushunchalar hisoblanadi.

Monitoring, ilmiy tushuncha sifatida, tarmoqlangan atamashunoslik apparatiga ega bo'lib, maqsad, obyekt, vazifalar, funksiyalar, shakllar, metodlarlarni o'z ichiga oladi. Tahlil qilinayotgan orenomenning atamashunoslik apparati, shuningdek, turlar, usullar, texnologiyalar kabi tushunchalar bilan to'ldiriladi.

Pedagogik monitoring o'quv-tarbiyaviy jarayonning holatini va natijaviyligini kuza-tish sifatida tushuniladi, bunda baholash va nazorat qilish, ya'ni jarayoni hamda miqdor va sifat jihatdan ifodalangan o'quv-tarbiyaviy jarayonning natijaviyligini boshqarish nazarda tutiladi.

Bugungi kunda nafaqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar balki, bir qator kasbiy muhim sifatlarga ega mutaxassisni shakllantirish lozimligi ham talab etilmoqda. Buning uchun esa keng doiradagi kasbiy bilim va ko'nikmalardan tashqari kasbga tegishli shaxsnинг mustaqillik, mas'ul qarirlarni qabul qilish, har qanday ishga ijodiy yondasha olish, doimo o'rganishga intilish ko'nikmasi, hamkorlikka qobiliyatli, ijtimoiy va kasbiy javobgarlik va boshqa shu kabi bir qator sifatlarni shakllantirish zarur. Bunday kasbiy ta'limni amalga oshirish uchun umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'limini joriy qilish zarur.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Mavlonova R.A. *Boshlang'ich ta'llimda innovatsiya*. – T., 2007.
2. Vaxobov M.M. *Umumiy o'rta ta'llim tizimida o'qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish*. Avtoreferat. – T., 2016. 81-b.
3. Шишов С.Е., Кальней В. А. *Мониторинг качества образования в школе*. – М., 1999. – С. 36.
4. Макаров А.А. *Комплексный мониторинг качества образования*.

Ismoil HAYDAROV,

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti dotsenti, p.f.n.

## TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

### Annotation

Maqolada ilmiy izlanishning dolzarbligi, o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish asosida jamiyat talablariga mos holda ongli kasb tanlashga tayyorlash, qo'llab-quvvatlash, millatimizga xos umuminsoniy qadriyatlarning komponentlari tahlili keltirilgan. Shuningdek, muallif to'g'ri tanlangan kasb-hunar shaxsning o'ziga ham, jamiyatga ham foyda keltirishi haqidagi fikrlarni ilgari surgan.

**Kalit so'zlar.** Layoqat, qobiliyat, intellekt, genetika, talent, iste'dod, moyillik, shaxs, individuallik, tipologiya, ehtiyoj, motiv va motivatsiya.

В статье приводится анализ актуального исследования по психологической деятельности, важность изучения способностей и наклонностей человека в отношении разных видов деятельности. Также автор полагает, что результаты исследования значимы для разработки раннего проявления и развития наклонностей в подростковом возрасте, а также профориентации в школе и других учебно-воспитательных учреждениях в целях эффективности самоопределения деятельности учащихся.

**Ключевые слова.** Наклонность, способность, интеллект, генетика, талант, типология, одарённость, личность, индивидуальность, потребность, мотив и мотивация.

Article focuses on the relevance of research, the preparation and support of conscious choice in line with society's needs, and the analysis of components of universal human values. Author also suggested that the correctly selected profession would benefit society as well.

**Key words.** Flexibility, intellect, genetics, talent, personality, individuality, nervous system, typology, need, motivation.

Hozirgi kunda yoshlarimizga nisbatan bildirilayotgan chuqur ishonch va e'tibor hamda yaratilayotgan imkoniyat, shart-sharoitlar ularni foydali kasb egasi, jamiyatda o'z o'rniiga ega shaxs bo'lishi uchun zamin bo'lmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yoshlar eng zamnaviy ma'lumotga, yuksak intellektual va jismoniy barkamollikka ega bo'lishi, ishlab-chiqarishning ilmiy-texnik va iqtisodiy asoslarini chuqur bilishi, mehnatga ongli munosabatda bo'lishi zarur.

Bolalarda kasbiy qiziqishlarning erta namoyon bo'lishi qadimdan ma'lum. Har-bir shaxsda yoshligidanoq ma'lum bir kasb-hunarga dastlabki havasi paydo bo'ladi. Bu

---

havas aslida shu kasbga nisbatan tabiatdan berilgan moyillik bo'ladi. Bu moyillikning layoqatga aylanishi uchun birinchi navbatda ota-onaning e'tibori, ijtimoiy muhit hamda uzoq muddatli ta'lim-tarbiya to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, o'quvchi-yoshlarda kasb to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar yetarli darajada shakllanadi boradi hamda kelgusida rivojlanib, takomillashib, mustahkamlanib boradi.

Hozirgi kunda yoshlarning kasbiy tayyorgarligiga e'tibor qaratish nafaqat ma'naviy-ruhiy ahamiyatga ega, balki jiddiy ravishda iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyat kasb etib, jamiyat rivoji uchun o'z hissasini qo'shishi bilan belgilanadi. Shunday ekan, hozirgi mustaqil hayot bo'sag'asida turgan yoshlar katta mehnat bozorida o'ziga mos kasb-hunarni tanlashga yoki shaxsiy biznesini ochishga intilayotgan yoki biror-bir faoliyat turini tanlashga qynalayotgan, hayotda ilk bor o'zining mustaqil mehnat faoliyatini boshlov-chilar birinchi navbatda o'zligini anglashi, o'zining ichki va tashqi imkoniyatlari baho bera olishi, o'ziga "*Men kimman?*", "*Qanday odamman?*", "*Men nimaga intilyapman?*" va "*Mening qo'limdan nimalar keladi?*" degan savollarga javob berishi kerak. Bu kabi savollarni o'ziga bera olgan har bir shaxs psixik taraqqiyot bosqichida to'g'ri shakllanayotganligidan dalolat beradi. Aksincha, bunday savollarni o'ziga berib ko'rмаган va berishni ham xohlamayotgan ba'zi bir yoshlar betashvish yoshlikdan voz kecha olmayotganlari ham kuzatilmoqda.

Ma'lumki, o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarida – ularni shaxsiy moyillik, layoqat, qiziqishlari asosida hamda jamiyat talablariga mos holda ongli kasb tanlashga tayyorlash bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan, integral xususiyatga ega ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda.

Kasb-hunarga yo'naltirish – u yoki bu faoliyat uchun zarur bo'lgan insonning tabiiy qobiliyati va muhim kasbiy sifatlarini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni kasbiy tiklanishi uchun jamiyatning g'amxo'rligi bu tarixan shakllangan millatimizga xos umuminsoniy qadriyatlarning komponentlaridan biridir.

Hozirgi yoshlarni tabiiy berilgan layoqati, qiziqishi va qobiliyatları asosida kasb-hunar tanlashga tayyorlash va shu bilan birga jamiyatning turli kasblarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda maqsadli kasb-hunarga yo'naltirish mamlakat iqtisodiyoti va xalq farovonligini oshirishga xizmat qiladi. To'g'ri tanlangan kasb-hunar shaxsning o'ziga ham, jamiyatga ham, foyda keltirishi bilan izohlanadi.

To'g'ri kasb tanlash – bu psixik taraqqiyotning bir ko'rinishi bo'lib, bunda o'zligini anglash, o'z ichki dunyosini kashf qilish, o'zi haqida yaxlit bir tasavvurga ega bo'lish, o'zining aqliy, axloqiy va irodaviy sifatlarini ongli va to'g'ri baholashdan boshlanadi.

Har qanday shaxs o'z hayotini yaxshilashga, yaxshi yashashga intiladi.

Buning uchun: birinchidan, buni xohlashi kerak; ikkinchidan, bunga o'zini tayyorlash va o'z imkoniyatlarini chegarasini bilishi kerak; uchinchidan, bunga erishish uchun uzuksiz ta'lim olishi, tinimsiz mehnat va harakat qilishi kerak bo'ladi.

Hozirgi zamon o'smir yoshlarning bo'lajak mutaxassis bo'lib yetishishiga, undagi tegishli ijtimoiy va kasbiy sifatlarning shakllanishiga, faol ijodiy mehnat qilishiga, berilgan ko'rsatma va talablarning bajarilishiga hamda yuqori kasbiy malakaga erishishiga imkon yaratuvchi tadbirlar tizimini yaratish, turdosh kasblar ichidan o'ziga maqbul bo'lgan kasbini tanlashida ko'maklashish barcha turdag'i ta'lim muassasalarining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi.

*Ta'lim muassasalarining kasb-hunarga yo'naltirish ishlari asosiy ikkita maqsadga xizmat qiladi:*

**birinchidan** – shaxsnı ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan himoyalashga, bunda shaxs o‘z qiziqishi, moyilligi va qobiliyatlariga mos bo‘lgan kasb-hunarni tanlasa, shu kasbni muvaffaqiyatli o‘zlashtirib ham kasbiy, ham moddiy tomonidan salmoqli natijalarga tez-roq erishadi;

**ikkinchidan** – mehnat bozoridagi imkoniyatlari va salohiyatlari to‘g’ri va oqilona taqsimlanadi, buning natijasida mamlakatning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga o‘z hissasini qo’shadi. Bundan xulosa shu-ki, kasb-hunarga to‘g’ri va oqilona yo‘naltirish ishlarining yakuniy natijasi, alohida shaxsga hamda butun bir davlatga aniq foyda keltiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qarash imkoniyati yaratiladi.

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining asosiy yo‘nalishida “Kasbiy maydon” doirasini aniqlab olish kerak. Boshqacha qilib aytganda, uzlusiz ta’lim tizimi jarayonida o‘quvchilar kasbiy o‘zligini anglashini shakllantirish hozirgi zamon texnika va texnologiya talablariga mos holda tashkil etishni talab etiladi.

Hozirgi kasb-hunar kollejlarida tahsil olayotgan o‘smir yoshlarni ikki guruhgaga ajratish mumkin – birinchi guruh – bolalar, ota-onalarining xohishiga ko‘ra o‘ziga yoq-maydigan va kasbiy kelajagiga aloqasi bo‘limgan yo‘nalishlarda o‘qiyotganlar bo‘lsa, ikkinchi guruh – tanlagan kasbiga o‘zları qiziqqan, o‘z xohishi bilan kelgan bolalar. Ularning bir qismi o‘rganayotgan ishini ishonch bilan o‘zining kelgusi kasbiy faoliyatiga bog‘laydi.

Shaxsning biror bir kasbga intilishi, avvalambor, shu faoliyat turiga ijobjiy munosabat bilan yondashishida namoyon bo‘ladi. Natijada o‘sha faoliyat turi qiziqarli bo‘lib qolmay, balki ish unumдорligi o‘sib, ishlab chiqarishning sifati va samaradorligi oshib boradi. Shu bilan birgalikda, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy muhit va mehnat faoliyatining ijobjiy samarası ta’sirida insondagi mavjud tabiiy berilgan layoqatlar asta-sekinlik bilan qobiliyat darajasiga va undan keyingi pog‘onalarga ko‘tariladi.

Mustaqil hayot bo‘sag‘asida turgan o‘smir yoshlarni o‘zlikni anglashning juda muhim komponenti – o‘z xatti-harakati uchun javobgarlik va uning (yaxshimi, yomonmi) natijasiga faqat o‘zi sababchi ekanligini his qilish xususiyatini shakllantirishdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatdi-ki, layoqat bilan qobiliyatni farqlash uchun birinchi navbatda layoqatmi yoki qobiliyat? degan savolga javob topishimiz lozim. Bizning fikrimizcha, “*Layoqat qibiliyat, iste’dod va talantdan oldin keladi. Layoqatlar mudrab yotgan qibiliyatlarni qo‘zg‘atib, zarur faoliyat turini faol bajarishga undaydi*”.

*Qibiliyatlar – shaxsdagi shunday individual, turg‘un sifatlarki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko‘rsatkichlari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi.*

Bizga ma’lumki, kasb tanlash uchun eng qulay yosh bu o‘smir yoshdagagi maktab o‘quvchilarini hisoblanadi.

O‘smir yoshdagagi ko‘pchilik bolalar ma’lum bir faoliyat turiga bo‘lgan boshlang‘ich layoqatlarini ichki imkoniyatlari bilan chamalab ko‘rib, o‘z-o‘zini anglagan holda, kasb tanlashadi va shu kasblar yuzasidan kattalardan maslahat so‘rashadi. Yana bir turdagи o‘smir bolalar esa, o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglamaganliklari sababli, ma’lum bir kasbni tanlashga qiynalishadi. Boshqa bir turdagи o‘smirlar esa, psixikaning notejis rivojanishi oqibatida, tashvishsiz yoslikda qolishaveradi.

Hozirgi yoshlarni shaxs xususiyatlari, ichki imkoniyatlari har-tomonlama ilmiy-amaliy tahlil qilgan holda kasb-hunarga yo‘naltirilsa, to‘g’ri kasb tanlashiga ko‘maklash-sak samarali natijalarga erishishimiz mumkin bo‘ladi. Buning uchun biz o‘smir yoshdagagi maktab o‘quvchilarida kasbga bo‘lgan layoqatlarining namoyon bo‘lishi va rivojanishini har tomonlama o‘rganish uchun tadqiqot metodlarini to‘g’ri tanlashimiz lozim.

---

O'smir yoshidagi barcha psixologik, fiziologik va jismoniy o'sishi hamda rivojlanishi jarayonining shiddatli tarzda kechishi va keskinligini hisobga olgan holda, layoqatlar ham bu yoshda notejis rivojlanishi ilmiy asoslangan.

Dunyo olimlari tomonidan layoqatlar birinchi marta motivlarning ijobjiy yoki salbiy munosabat asosida har xil namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tiladi. Layoqatlarning rivojlanishi oliy nerv faoliyatining maxsus insoniy tiplariga hamda harakatga undovchi ehtiyojlarining ijobjiy va salbiy namoyon bo'lishga bog'liq holda o'rganilganligi to'g'risidagi ilmiy nazariyalar mavjud.

Layoqatlar va qobiliyatlarning namoyon bo'lishini psixologik olimlardan B.R.Qodirov, S.L.Rubenshteyn, B.M. Teplov, V.M. Myasishyev va boshqalar o'rgangan. Ular olib borgan ilmiy tadqiqotlarida, layoqatlarni ma'lum bir faoliyat turiga yo'naltirilgan ehtiyoj deb ko'rsatadilar. Layoqatlilar bilan qibiliyatililar bir-biriga mos kelishi mumkin, qachonki, shaxsning tanlagan kasbi o'zining individual-tipologik hamda individual-psixologik xususiyati, xarakateri, o'z-o'zini anglashiga va qaysidir ma'noda genetik belgilariaga mos kelsa, bu layoqat asta-sekinlik bilan rivojlanib qobiliyat va talantga aylanishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Layoqatlarning rivojlanishida oliy nerv faoliyatining individual xususiyatlari keng o'rganilgan. Jumladan, layoqatlilar faoliyatining faolligiga bog'liqligini B.R.Qodirov o'z ishlarida ko'rsatib bergen.

Demak, layoqat shaxsni to'laqonli ma'lum bir faoliyat turiga faol ravishda yo'naltiruvchi vosita ekanligini ko'rsatadi. Ehtiyojlarning rivojlanishi layoqatlarning mavjudligi dan shaxsan xabardor qilib turadi. Layoqatlilar tashqi taassurot asosida yuzaga kelishi mumkin, ya'ni tashqi ta'sir kishining imkoniyatlari asosida qayta ishlanib, amaliyot natijasida qobiliyatga aylanadi.

V.S.Merlin fikricha, har qanday motiv yo'naltirilgan bo'lib, ijobjiy yoki salbiy munosabat bildirishi mumkin. "Agar odam biror-bir predmetga yaqinlashib, uni egallahsha harakat qilsa va qo'llay olsa, motivlar ijobjiy munosabat namoyon qiladi. Agar odam predmetdan o'zini olib qochsa, undan o'zini himoya qilsa, unda motivlar salbiy munosabat namoyon qiladi".

Bizning fikrimizcha, layoqat ma'lum bir faoliyat turini bajarishga bo'lgan moyillik, ehtiyoj sezish bo'lib, ichki hissiyotning ijobjiy munosabati natijasidir. Layoqatlar rivojlanishi esa ko'p jihatdan ijtimoiy muhitga, ta'lim-tarbiyaga, tabiiy individual psixologik xususiyatlariga, tipologiyasi va motivlarini harakatga undovchi shaxsning ichki imkoniyatlariga bog'liq.

Bu quyidagilarda ko'rindi:

1. Ma'lum bir faoliyat turiga bo'lgan layoqat qiziqish orqali har doim va har qanday sharoitda rivojlanishi mumkin.
2. O'smir yoshdagagi bolalarning layoqatlari rivojlanishi faqat individual tipologik xususiyatlariga bog'liq bo'lmay, balki ehtiyoj va motivlar birligi asosida vujudga keladi.
3. O'smir yoshidagi o'quvchilar layoqatining rivojlanishi ko'p jihatdan ular xarakter xususiyatlariga va qobiliyatlariga bog'liqligi bilan belgilanadi.
4. Layoqatlarning to'liq holda namoyon bo'lishi oliy nerv faoliyati bilan motivlari, xarakter xususiyatlar bilan aqliy qobiliyatlarning muvozanatlashganligidan darak beradi.

Yuqorida keltirilgan omillarga asoslangan holda, biz o'smir yoshdagagi maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda yuqorida keltirilgan talaba shaxsning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda umumta'lim maktablarida olib

borilayotgan kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini to‘g‘ri tashkil qilishning bosh mezoni sifatida quyidagi larni inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- o‘s米尔 yoshlarda layoqat va qiziqishlarning paydo bo‘lishining tabiiy va ijtimoiy ta’sirini aniqlash;
- layoqatlarni motiv va ehtiyojlar asosida rivojlanish darajasini ko‘rsatish;
- oly nerve folyatining maxsus insoniy xususiyatlarini layoqatlarga bog‘liqligini aniqlash;
- layoqatlarning rivojlanishi, shaxsning xarakter xususiyatlariga bog‘liqligini ko‘rsatish;
- layoqatlar aqliy qobiliyatlar asosida vujudga kelishini ko‘rsatish;
- olingan natijalarini matematik tahlil qilish.

Kasbiy layoqat ma’lum bir faoliyat turi haqida zaruriy axborotni izlash, unga intilish va uni tanlash demakdir. Bu tanlovda faoliyat turiga bo‘lgan ijobjiy munosabat hayotiy tajriba orqali to‘plangan tasavvurlar, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy muhit hamda bir qancha individual tabiiy-psixologik xususiyatlar natijasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Barkamol avlod O‘zbekiston kelajagi poydevori” “Ta’lim to‘g‘isida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T., 1997-yil.
2. Қадиров Б.Р. Способности и склонности (Исследования природных предпосылок) – Т., ФАН, 1990.
3. Қадиров Б.Р. Изучение психофизиологических предпосылок склонностей. Вопросы психологии, №2 1989. – С. 114-120.
4. Теплов Б.М. “Избранные труды” Способности и одаренность (в кн: проблемы индивидуальных различий. – М. из. АПН РСФСР 1961.– С 9-39.
5. Мерлин В.С. ориентация учащихся на массовые профессии. (школа и производство 1973. №7 – С. 17-40.

Dildora DAVRONOVA,

Toshkent Davlat texnika universiteti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

### OILADA YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONANING O'RNI

#### Annotations

Mazkur maqolada oilada yoshlarning ijtimoiy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda ota-onanining vazifalari tahlil qilingan. G'oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish tizimini uzuksiz takomillashtirish va ularga innovatsion yondashuv masalalari yoritilgan. Shuningdek, hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda yoshlarning ma'nnaviy-axloqiy kamoloti, imon-e'tiqodi, g'oyaviy-siyosiy yetuklik darajasi, ta'lif-tarbiyasida ham asosli o'zgarishlar bo'lishini talab etayotganligi haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar.** Oila, yoshlar, tarbiya, uzuksiz ta'lif, tizim, siyosat, madaniyat, jamiyat, ijtimoiy munosabat, ta'lif muassasalari.

В данной статье анализируются проблемы формирования идеолого-политической культуры молодежи в семье. Рассмотрены конкретные примеры организации целостного педагогического процесса по данному направлению на основе использования инновационных подходов. Приведен анализ научных подходов к семейному воспитанию, направленному на формирование идеально-политической культуры современного поколения.

**Ключевые слова.** Семья, молодёжь, воспитание, непрерывное образование, структура, политика, культура, общество, социальное повышение, учебные заведение.

Article presented the role of parents in forming of social and political culture in the family, emphasized the importance of continuous improvement of the system of formation of ideological-political culture. It also highlights the need for fundamental changes in the spiritual and moral development of youth, the beliefs, the ideological-political maturity, and the education of the modern age of modern information technology.

**Key words.** Family, youth, education, continuous education, system, politics, culture, society, social relations, educational institutions.

**M**amlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: "Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsad-larga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va so'zsiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir".<sup>1</sup>

Shu boisdan ham yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'nnaviy taraqqiyotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash har bir oilaning, fuqaroning, davlat va nodavlat tashkilotlarining burch va vazifasi hisoblanadi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'nnaviyat, 2008.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida ko’plab ishlar amalga oshirildi. Yurtimizda yashayotgan bar-cha yoshlar uchun munosib ta’lim-tarbiya egallash sharoitlari yaratildi. Aynan shuning uchun ham g’oyaviy-siyosiy jihatdan mukammal rivojlangan barkamol insonni tarbiyalash, yoshlarni o’z fikriga ega bo’lishi, milliy uyg’onish g’oyasini ro’yboga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu muhim vazifani amalga oshirishda jamiyatimiz asosi bo’lgan oilaviy tarbiyani to’g’ri tashkil etish uchun ota-onalarga keng imkoniyatlar yaratib berildi.

Bugungi shiddatkor davr yoshlarni yagona maqsad va g’oya atrofida birlashtirish, ular uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berishni taqozo etmoqda edi. Shu bois joriy yilning 30-iyun kuni “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoysi bo’lib o’tdi.

Unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Bugun sizlarning qalbingiz, yuragingizdagagi o’y-fikrlar, maqsad-muddaolar, kerak bo’lsa, ushalmay turgan niyatlar bilan yaqindan tanishish, shu asosda yoshlar siyosati bo'yicha olib borayotgan ishlarimizni tanqidiy baholab, tegishli qarorlar qabul qilishni men o’z faoliyatim uchun g’oyat muhim deb hisoblayman”, degan so’zlari barcha yoshlarni to’lqinlantirib yubordi.

Joriy yilning 5-iyul kuni esa Prezidentimizning “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi farmoni qabul qilingani bu borada yangi davnri boshlab berdi.<sup>2</sup>

Ma'lumki, har bir inson o’ziga xos, boshqalarga aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muhitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda, ya’ni oila, jamoa va jamiyatda kamol topadi hamda rivojlanadi. Tarbiya jarayonida ota-onal o’zining obro’sidan oqilona, odilonan foydalanim, farzandlariga uyushqoqlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, o’qishga ijobji munosabat, o’z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o’zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib olishi lozim. Oilada yosh avlod tarbiyasida g’oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish uzoq davrni o’z ichiga oladi: u ilk bolalik davrida, maktabgacha ta’lim muassasasiga qatnay boshlaganida, umumiyl o’rtalim, o’rtal maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim jarayonida uzlusiz davom etadigan ijtimoiy jarayonda amalga oshiriladi. Uzlusiz ta’limni isloh qilish yo’nalishlarida “ta’lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma’naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish”<sup>3</sup> yo’llari belgilab berilgan.

G’oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirishga bo’lgan talab va ehtiyoj hozirgi davrda kun sayin kuchayib bormoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki kelajakda buyuk davlat egasi bo’ladigan komil insonni tarbiyalamasdan ma’naviy, axloqiy barkamol inson qilmasdan olg’al tomon rivojlanish mumkin emas. Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamoloti, imon-e’tiqodi, g’oyaviy-siyosiy yetuklik darajasi, ta’lim-tarbiyasida ham asosli o’zgarishlar bo’lishini talab etadi. Agar inson to’g’ri tarbiya topmasa, uning faoliyati jamiyat uchun zararli bo’ladi. Jamiyat hayotidagi barcha muammolar g’oyaviy-siyosiy jihatdan yetuk bo’lgan yoshlarning fidokorona, halol mehnati, odobi va ma’naviy yetukligi bilan ro’yboga chiqadi. Hozirgi vaqtida taraqqiyotimizning taqdirini g’oyaviy-siyosiy jihatdan yetuk yoshlar hal qiladi.

<sup>2</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi Farmoni. 2017-yil 5-iyul.

<sup>3</sup> Oynisa Musurmonova. “Oila ma’naviyati – milliy g’urur” – T.: O’qituvchi. 1999.

---

Oilada olib boriladigan g'oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lif-tarbiyaviy ishlar oilaning vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi.

Oilaning reproduktivlik, ya'ni farzand ko'rish, avlodlar davomiyligini, yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlash, er-xotin va bolalar o'tasidagi munosabat, iqtisodiy-moliyaviy faoliyatini to'g'ri yuritish kabi o'ziga xos moliyaviy jihatlari bilan birga tarbiya masalalari muhim vazifalar sifatida ko'rsatilgan.

Darhaqiqat, oilada dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarini oladi, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob qoidalarini ham egallab boradi. Oila a'zolarining o'zaro aloqalari, ommaviy axborot vositalari bilan oila a'zolari o'tasidagi yaqin aloqani ta'minlash, tabiatni, ijtimoiy muhitni idrok qilish kabi masalalar yoshlarning oilada ijtimoiy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi.

Shu jihatdan ham yosh avlodni g'oyaviy-siyosiy madaniyatini tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy jarayonni tarkib toptirishda oila muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsni tarbiyalash va voyaga yetkazish, kamol toptirish ustuvorligi oiladan boshlanadi. Ayniqsa, yosh avlodni yuksak g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash, tarbiya orqali ta'lif berish bolalarning aqliy faolligini oshirish, fikr yuritish jarayonini faollashtirishga oilada farzand dunyoga kelgandan to o'sib ulg'ayguncha uzlusiz ta'lif-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Pedagog olim Muhammadjon Quronov yoshlar qalbida milliy g'oyani singdirish, g'oyaviy-siyosiy tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratganligini, xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab tahlikali davrda g'oyaviy-siyosiy tarbiya jarayonini zamон talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish zarurligini ta'kidlab, keyingi yillarda dunyoning mafkuraviy manzarasi juda tez o'zgarib borayotganligi, turli mintaqalarda sodir bo'layotgan voqeа-hodisalar, manfaatlar to'qnashuvi, tobora kuchayib borayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, radikalizm, egotsentrizm, erkinlik niqobi ostidagi axloqsizlik, narkotrafik kabi tahdidlar barchamizni xushyorlikka chorlashi, yoshlar tarbiyasiga e'tiborimizni kuchaytirishni va bu masalada oilaviy tarbiya muhim vazifalaridan biri ekanligini alohida e'tirof etadi.

Yoshlarda g'oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish asosida uni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini tarkib toptirish oilaning o'z oldiga qo'ygan vazifalaridan hisoblanadi. Maktabgacha ta'lif, ya'ni bog'cha yoshidagi bolalarni g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish o'yinlar jarayonida va mashg'ulotlarda amalga oshiriladi va bu bevosita ota-onalaridan maktabgacha ta'lif muassasasi bilan uzviy hamkorlikni kuchaytirishni talab etadi. Boshlang'ich sinflarda bu tarbiya jarayoni o'quv mashg'ulotlari orqali amalga oshiriladi. Bola hayotida bog'chadan so'ng muktabning dastlabki davrlari muhim o'rinn tutadi. Shu bois, boshlang'ich ta'lif davri ta'lif jarayonidagi eng mas'uliyatlari davrdir. G'oyaviy-siyosiy madaniyati shakllanishi natijasida bolalar atrof olamdag'i, jamiyatdagi qonunlarni, insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqr o'rganish, keng fikr-lash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari hosil bo'la boshlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziquvchanligini inobatga olgan holda, ota-onalarimiz ularning yosh

xususiyatlarini, individual imkoniyatlari, qobiliyatlariga mos tarbiya metodlaridan o'rinli foydalanishlari lozim. O'smirlik davrida bolalarning fikrlash jarayoni va dunyoqarashida tabiatи va fe'l-atvorida sezilarli o'zgarishlarni kuzatamiz va ularda demokratiyaning asl mohiyatini, milliy g'urur, iftixor tushunchalarini singdira boramiz.

Bugungi kunning muhim vazifalaridan biri yosh avlodda Ona Vatanga muhabbat va sadoqat, qadimiy va boy ma'nnaviy merosimiz bilan faxrlanish tuyg'ularini tarkib toptirish, ularni yuksak axloq va madaniyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhidha tarbiyalashdir. Buning uchun biz farzandlarimizni qiziqishlari, istaklari va moyilliklarini e'tiborga olib, ularni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda ulug' bobokalonlarimizning o'limas meroslaridan foydalanmog'imiz zarur. Shunday ekan zamonaviy bilimga ega, odobli, ilmli, barkamol va shijoatli farzandlarning siyosiy, ma'nnaviy, iqtisodiy, huquqiy barkamolligini rivojlantirish har birimizning oldimizda turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, oilada yoshlarning g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakkllantirish, fan va texnologiyalarni o'zlashtirishga da'vat etish, vatanparvarlik tuyg'ularini oshirish, o'z xalqiga va millatiga bo'lgan sadoqatini mustahkamlash, mamlakatimizni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotga ega bo'lgan mustaqil davlat sifatida dunyo ham-jamiyatida o'ziga xos o'rniga va nufuzga ega bo'lish uchun fidoyilik bilan mehnat qilishga xizmat qiladi. Har bir davr, zamon va makon o'zgarishlari, unga bo'lgan ishonch va e'tiqod zaruratini doimo saqlab qoladi. Faqat uni yangi sharoitda yangicha yondashuv, yangicha texnologiyalarni joriy etish asosidagina o'sib kelayotgan yosh avlod, farzandlarimiz ongi va tafakkuri, ishonch va e'tiqodi bilan bog'iqliq ma'nnaviy-ruhiy olamining negizi bo'lgan g'oyaviy-siyosiy madaniyatni shakkllantirish uzluksiz ravishda mustaqillikni mustahkamlashga va rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'nnaviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi Farmoni. 2017-yil 5-iyul.
3. Oynisa Musurmonova. Oila ma'nnaviyati –milliy g'urur. – T.: O'qituvchi. 1999.

**Abduqayum ABDULLAYEV,**  
Toshkent viloyati XTXQTMOI dotsenti

## TA'LIMNING UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY XALQ HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI

**Annotatsiya**

Maqola uzluksiz ta'lismida yoshlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish jarayonida milliy xalq harakatli o'yinlaridan foydalanish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar yuzasidan qator tavsiya va takliflar keltirib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Uzluksiz ta'lism, milliy xalq o'yinlari, ta'lism-tarbiya, bolalar sporti, jismoniy harakat, xalq ma'nnaviyati, an'anaviy sport musobaqalari, harakatli o'zin.

Статья посвящена вопросам осуществления в системе непрерывного образования процесса создания национальных подвижных игр в свободное время, а также использование здорового роста и создание определенных задач, которые должны быть решены в рамках требований и предложений.

**Ключевые слова.** Образование, национальные народные игры, образование, детский спорт, физическая активность, традиционные спортивные матчи, подвижные игры.

Article deals with the use of national folk games in the process of organizing free time for young people in the system of continuous education. Author also provided a number of recommendations and suggestions on the tasks that should be implemented in this regard.

**Key words.** Continuous education, national folk games, education, children's sport, physical activity, folklore, traditional sports competitions, mobility.

**Y**urtimizda uzluksiz ta'lismida amalga oshirilayotgan jismoniy tarbiya va sport harakatining milliy modeli sog'lom turmush tarzini ta'minlash va millat genofondini sog'lomlashtirish, mamlakat aholisining yoshi, hayotiy ko'nikmasi, bilimi, ijtimoiy holati, imkoniyati, sharoiti, mustaqil harakatlanishini inobatga olin-ganligi va yana bir qator hayotbaxsh tamoyillarga asoslanib, 5 ta bo'g'indan tashkil topgan. Xususan, maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni, umumta'lim maktablari o'quv-chilarini, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimidagi yoshlarni, oliv ta'limdagi talabalarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport o'yinlariga jaib qilish, ularning sog'lomlik darajasini sport harakatlari orqali ta'minlashga qaratilgan.

Barchamizga ma'lumki, kishilarning jismoniy, ruhiy salomatligini mustahkamlash, yosh avlodning ma'nnaviyatini o'stirish, barkamol qilib voyaga yetkazishda milliy o'yinlarning ahamiyati katta. Shu boisdan asrlar o'tsa-da, bunday o'yinlar o'z qadrini yo'qotgani yo'q. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlab o'tganlaridek, "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'nnaviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda

tasavvur etib bo’lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko’hma tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo’lib xizmat qiladi”<sup>1</sup>.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti ta’kidlaganlaridek, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq.

Hozirda bolalar sportining uzviyligi va uzlusizligini ta’minlash, samaradorligini oshirish muhim vazifalardan hisoblanib, umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o’quvchilari hamda oliv ta’lim muassasalari talabalari o’tasida an’anaviy o’tkazib kelinayotgan “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” kabi sport musobaqalarini bu boradagi o’ziga xos omillardan deyish mumkin.

Xalq o’yinlari ham ushbu sport turlari ichida milliy qadriyat sifatida e’tirof etilib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e’zozlanib kelinmoqda. Ular yoshlarni bo’sh vaqtlarini to’g’ri tashkil etib, biror foydali mashg’ulotga o’rganishlari, sog’lom o’sishlari, qat’iyatlari bo’lishlariga yordam beradi.

Darhaqiqat o’yinlar butun avlod-ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz hozirgi zamon avlodlarining jismoniy, aqliy, ma’naviy kamol topishlariga beqiyos katta hissa qo’shgan va bundan keyin ham shunday bo’lib qolaveradi. Chunki yosh avlod uchun o’yin bu hamma zamonlarda turmush tarzi, hayot omili, uning o’lchovi bo’lib qoladi. O’yinning mazmuni boyib, shakkiali ko’payib boraveradi. Taraqqiyot shuni taqozo etadi. Chunki bugungi bola – ertangi kunning ijodkor yaratuvchisidir. O’yin – bu ijod, o’yin – bu hayotdir<sup>2</sup>.

Xalq o’yinlari o’z tarkibidagi harakatlari o’yinlarning qamrovi, jo’shqinligi, yoshlarning qiziqishini oshirishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. “Harakatlari o’yin” tushunchasi o’ziga ko’pgina har xil folklorli o’yin shaklini qamrab olib, shulardan har qaysisi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, jismoniy psixologik va aqliy o’sishiga yordam beradi. Harakatlari xalq o’yini folklor o’yinlarning bir turi bo’lib, asosiy mazmuni ko’proq harakat faoliyatining samaradorligini oshirishga yo’naltirilgan<sup>3</sup>.

Shundan kelib chiqib, har bir xalq o’yinlari biror foydali maqsadga yo’naltiriladi. Bolalar xalq o’yinlarini o’ynash davomida maqsadga erishishga harakat qiladi. Xalq o’yinlari bolalarda ichki ruhiy ehtiyoj darajasida o’sib boradi. Ehtiyojni qoniqtirish, o’z navbatida, qat’iyatlilik, sabr-matonat, chidamlilik, fikrlash, topqirlik, hozirjavoblik singari fazilatlarni kamol toptirishni talab etadi.

Xalq o’yinlaridan ko’zda tutilgan asosiy maqsad o’quvchilarni sport o’yinlariga tayyorlashdir. Chunki ushbu o’yinlar o’quvchi-yoshlarning sog’ligini tiklash va mustah-kamplash, sog’lom turmush tarzini shakllantirish, Vatan mudofaafiga yoshlарimizni jismonan baquvvat qilib tarbiyalash kabi ko’plab muhim vazifalarni qo’yadi va ularni hal etishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Jumladan, “Durra”, “Otib qochar”, “Uchtalik to’ptosh”, “Hakkalakam sharti”, “Otambaqla-Qoqbosh”, “Ikki tosh”, “Chopiq kulol”, “Jon to’pim”, “Ko’ylagim”, “Aylanma g’uv-g’uv”, “Quvnoq polvon” o’yinlari aqliy, axloqiy va estetik kamolotning mezonlari bo’lsa, xalq an’anaviy sporti (“To’plar poygasi”, “Ovchilar va o’rdaklar”, “Chir aylanma”, “Otishma”, “Aniq nishonga ol”, “Harakatdagи arqon”, “Tayoqchani tortib ol” va boshqalar farzandlar baquvvatligi, aqliy va jismoniy yetukligining garovidir.

Xalq o’yinlaridan o’quv ta’lim standartlariga mos ravishda uzlusiz ta’limda izchil foydalanish quydigilardan iborat:

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. 60-61-b.

<sup>2</sup> Mahmudov S. O’zbek udumlari. – T.: Fan, 1993. 218-b.

<sup>3</sup> Yo’ldoshev G. Harakatlari o’yinlar va uni o’qitish metodikasi. Buxoro davlat universiteti. O’quvslubiy qo’llanma. 120-b.

- 
- yoshlarni ham ruhan, ham jismonan faollashtirish;
  - ularni xalqimiz milliy qadriyatlari, sharqona odob-axloq ruhida tarbiyalash;
  - oddiy mashqlardan murakkabga tomon yo'nalishda qulaylik, yengillik yaratib, yoshlarni professional sport bosqichlariga tayyorlash;
  - xalq o'yinlari harakatlar asosida yoshlarning ongi va qalbiga, avvalo, yuksak ma'naviy fazilatlar, insonparvarlik tuyg'ularini singdirish;
  - uzluksiz ta'limumning barcha bosqichlarini o'zaro uzviy bog'lash, to'ldirish, mazmun boyitishga xizmat qiladi va h.k.

Ta'kidlash kerakki, xalq o'yinlari, umuman olganda har bir jismoniy mashqni talab qiladi. Olimlarning kuzatishlariga qaraganda, hujayradagi elektronlarning harakatiga turki bo'ladigan narsa jismoniy harakatlar hisoblanadi. Jismoniy harakatlar elektronlar harakatiga, ayni vaqtda, elektronlarning harakati hujayra ichidagi harakatlarga – ajralish, so'rilib, modda almashinuvi, parchalanish kabi jarayonlarga sababchi bo'ladi. Harakatlar vaqtida modda almashinishi jarayonlarining tezlashishi hisobiga hujayra va to'qimalar ortiqcha chiqitlardan xalos bo'ladi. Oqibatda bo'g'imlar, ichki a'zolar, ajratish tizimlari va ularning yo'llarida o'tirib qolgan tuzlar, chiqitlar va shu kabilardan tozalanadi. A'zolar va tizimlarning faoliyati yaxshilanadi. Harakat natijasida mushaklar, to'qimalarning kislorod va oziqlar bilan ta'minlanishining kuchayishi hisobiga ular yaxshi rivojlanib, kuch-quvvatga to'lib boradi. Harakatlar asosan silkinishlardan iborat bo'lganligi uchun u ovqat hazm qilish yo'llaridagi ovqatning yurishiga, ajratish tizimi yo'llaridagi chiqitlarning tanadan tez va oson chiqishiga, qorin bo'shilig'i hamda ko'krak qafasidagi a'zolarni ushlab turgan paylarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Harakatlar tufayli bo'g'imlarning harakatchanligi yaxshilanadi. Harakat va harakatchanlik tufayli kishi u yoki bu yoqqa yurish, muhitni o'zgartirish, ko'rmagan joylarni ko'rish, tabiat manzaralaridan bahramand bo'lish, olamni anglash va o'z ko'zi bilan ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bularning barchasi yaxshi kayfiyat, unumli ish, ijodiy faoliyk, mustahkam sog'liq demakdir.

Shunday ekan, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda xalq o'yinlaridan samarali foydalanish yoshlarni ham ruhan, ham jismonan sog'lom etib tarbiyalashda asos bo'ladi. Buning uchun esa o'qituvchi-murabbiylar tomonidan xalq o'yinlariga tayyorgarlik, ularni bajarish va amaliy harakatlarni mustahkamlash bosqichlarini oqilona tashkil etilish, avvalo, ushbu o'yinlarni o'tkazish uchun mos sharoit hamda imkoniyatlar yaratilishi lozim. Bunda, albatta, eng birinchi e'tibor yoshlarning jismoniy shayligi, salomatlik holatiga qaratilishi darkor.

Xalq o'yinlarini tanlashga o'qituvchi ziyaraklik bilan yondashishi talab etiladi. Chunki mashg'ulot uchun mo'ljallangan xalq o'yinlari, avvalo, o'quvchilarni jismonan sog'lomlashtirishi, ularni kelgusida bajaradigan murakkab sport o'yinlariga bosqichma-bosqich tayyorlab borishi zarur. Albatta, bunday vazifalarni tarbiyaviy vazifalar kabi har bir darsda ketma-ket bajarib borish zarur.

DTS talablariidan ayonki, jismoniy tarbiya darslari ta'lim, tarbiya va sog'lomlashtirish vazifalariga ega. Ba'zi xalq o'yinlarini o'quvchilarga to'liq o'rgatish va ularni amalda bajara oladigan darajaga yetkazish uchun 1 soatlik dars kifoya qilmaydi, ayrimlari uchun esa dars mashg'uloti yetarli bo'lishi mumkin. Masalan, xalq o'yinlaridan bo'lgan "Podachi" o'yini ikki taraf – himoyachi va hujumchi guruqlar ishtiropini taqozo qiladi. Birinchi darsda o'yining sharti, ishtiropchilarning egallaydigan joylari, qo'lidagi tayoqchalar, koptoklardan foydalanish talablari, taqiqlanadigan harakatlar haqida tushuntirilsa, ikkinchi soatda o'yinga start beriladi va o'yin malakalari o'zlashtiriladi.

O'yinchilarning jo'shqin holatlariga qarab o'yinni tartibga solish va boshqarish, uning maqsadini, qoidalaringin ma'nosi va ahamiyatini bilish kerak. O'quvchilarning o'yin qoidalariiga riosa qilishi doimo o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi lozim. Chunki o'yin qoidalariiga riosa qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'qituvchi odilona hakamlik namunasini ko'rsatishi, ishtirokchilarning xatolarini shoshilmasdan va mulohazakorlik bilan qayd qilib borishi va har bir o'yinchini umumiy qoidalarga bo'y-sunishga majbur qilishi kerak. O'yinda ayniqsa, guruhli o'yinlarda sharoitning barcha ishtirokchilar uchun bir xil bo'lishini sezgirlik bilan kuzatib borish zarur. Har bir bolaga o'yindagi bosh rolda o'z uquvi va bilimlarini aniqlash imkonini berish maqsadida onaboshilarning almashinishini belgilab qo'yish tavsiya etiladi. O'yin muvaffaqiyatlari o'tishi ning eng muhim sharti intizom va unga qat'iy amal qilinishidir.

Harakatli o'yinni o'rgatish va bu jarayonda o'quvchilar o'zlarini qanday tutishlari ko'proq jismoniy tarbiya o'qituvchisiga bog'liqdir. O'yin shartli ishora (buyurish, hushtak yoki qarsak chalish, qo'l yoki bayroqchani silkitish) bilan boshlanadi. O'qituvchi barcha ishtirokchilar o'yin mazmunini tushunib olganiga va qulayroq yerga joylashib olganiga ishonch hosil qilgandan keyin ishora qiladi. Shartli chegaralar oldindan belgilab qo'yilishi, o'yin uchun zarur qo'llanmalar esa, o'yin qoidalariга muvofiq bo'lib berilgan va joy-joyiga qo'yilgan bo'lishi lozim. Rahbar o'yin boshlanishi bilanoq, uning borishini va o'ynovchilarning harakatlarini diqqat bilan kuzatadi hamda boshqarib boradi. Bundan tashqari o'yin davomida ayrim qoida va usullarni qo'shimcha ravishda tushuntiradi. Tuzatish, tanbeh va mulohazalarni o'yinning borishiga xalaqit bermaydigan yoki uni to'xtatib qo'ymaydigan yo'sinda aytish lozim. Agar o'yinchilarning ko'pchiligi bir xil xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, tegishli yo'l-yo'riq berish yoki o'yin qoidalari qanday bajarilishini ko'rsatish uchun o'yinni to'xtatish mumkin. Lekin uni baqirish yoki keskin ishora bilan to'xtatish yaramaydi. O'qituvchi bolalarni o'yin qoidalariini ongli va aniq bajarishga odatlantirishi kerak. Bu odad ularni intizomga o'rgatishda katta ahamiyatga ega bo'lib, bolalarda o'z burchini sezish va o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissini tarbiyalash, o'zini tuta bilish va matonatlilikni o'stirishda yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki:

– uzuksiz ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan jismoniy tarbiya va sport harakating milliy modeli yo'nalishida xalq o'yinlari ham o'z mazmuni hamda ahamiyati bilan yetakchi o'rinni egallaydi;

– xalq o'yinlari o'quvchilarni ham ruhan, ham jismonan sog'lom, barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladi;

– xalq o'yinlaridan foydalanishda o'qituvchi-murabbiylar tomonidan ularga puxta tayyorgarlik ko'rish, tashkil etish va amaliy harakatlarni mustahkamlashni yuqori saviyada olib borish talab etiladi;

– xalq o'yinlaridan ta'lifning barcha bosqichlarida izchil, samarali va ijodiy foydalanish ta'lif-tarbiya tizimining uzviyligi hamda uzuksizligini ta'minlashga beqiyos hissa qo'shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 60-61 b.
2. Mahmudov S. O'zbek udumlari. – T.: Fan, 1993. 218-b.
3. Yo'doshyeva G. Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi. Buxoro davlat universiteti. O'quv-uslubiy qo'llanma. 120-b.

**Madina SOIPOVA,**

Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

## **UMUMBASHARIY QADRIYATLARNI O'RGAТИSH JARAYONIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEХNOLOGIYASI**

### **Annotatsiya**

Maqolada umumbashariy qadriyatlarni o'rnatish jarayonida tasviriy san'at darslarining sifat va samaradorligini oshirish texnologiyasi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif Pablo Pikassoning asarini shakl psixologiyasi asosida badiiy tahlil qilib bergan.

**Kalit so'zlar.** Tasviriy san'at, texnologiya, asar, meros, metodik qo'llanma, kubizm.

Статья посвящена технологии повышения качества и эффективности уроков изобразительного искусства в процессе обучения общечеловеческим ценностям. Также автор приводит художественный анализ произведения Пабло Пикассо на основе психологии формы.

**Ключевые слова.** Изобразительное искусство, технология, произведение, наследие, методическое пособие, кубизм.

Article focuses on the technology of improving the quality and effectiveness of fine arts lessons in the context of universal values. The author also analyzes Pablo Picasso's artistic analysis on the basis of form psychology.

**Key words.** Fine arts, technology, painting, work, heritage, methodical manual, cubism.

**O**f zining boy merosiga ega bo'lgan tasviriy san'at, xususan, uning eng ommaviy turi – rangtasvir san'atning boshqa turlaridan o'zining taraqqiy parvarligi, g'oyalarni ilg'or usulda tasvirlashga qulayligi bilan ajralib turadi. Shu bois ham rangtasvirda turli oqim, yo'nalish va uslublarga tarmoqlangan hamda ramziy shakllar asosida yaratilgan asarlar tasviriy san'at tarixida alohida o'rnatildi.

O'zbekiston san'ati ham XXI asrga buyuk o'zgarishlar bilan kirib keldi. Shuning uchun ham ko'plab tashkil etilayotgan ko'rgazmalarda rassomlarning asarlari turli uslublarda ishlanganligini guvohi bo'lamiz. Ayni paytda bunday asarlarni tushunmaslik holatlari ham kuzatiladi. Buning boyisi esa, san'at asarlarini "o'qish"ni, tahlil, sintez va xulosalashni, oqim va yo'nalishlarini, uslublarini, o'ziga xos maktablarini bilmaslikda, ular haqida ma'lumotga ega emaslikdadir.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Sulaymonov A., Jabborov B. Tasviriy san'atda oqim va yo'nalishlar. – T.: Sano-Standart. 2008, 4-b.

Tasviriy san'atni o'qitishda og'zaki bayon etish, savol-javob va amaliy ishlarni tashkil etish va ko'rgazmalilik metodlaridan foydalilanadi. Maktab tasviriy san'ati kursining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, dars jarayonida o'qituvchi rasm chiziladigan narsa, obyekt voqeа-hodisalar yoki o'rgatilayotgan asar haqida o'quvchilarga og'zaki ma'lumotlar beradi. Bu og'zaki bayon etish metodida talqin etilib, o'qituvchi darsning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda dars mazmunini og'zaki bayon etish uslubida amalga oshiradi.

Tasviriy san'at darsi o'z xarakteriga ko'ra har bir dars materialini ko'rgazmalar vositasida, ko'rgazmali o'qitish uslubiyotida amalga oshiradi. O'qituvchining ko'rgazmalilik uslubida amalga oshirgan darsi o'quvchilarga puxta bilim berish imkonini beradi. Tasviriy san'at darslarining barchasida amaliy ishlar bajariladi. Shu boisdan o'qituvchilar amaliy ishlar metodidan ham foydalananadi.

Shu o'rinda umumiy o'rta ta'lrim maktablarining 7-sinfida "Tasviriy san'atda oqim va yo'nalishlar" mavzusida impressionizm, nostimperessionizm, kubizm, puantilizm, fomizm kabi oqim va yo'nalishlarda ishlangan tasviriy san'at asarlari badiiy idrok etish bo'yicha suhbat darsi kiritilgan. Bu mavzu shuningdek, oliy o'quv yurtlarining "Tasviriy san'at tarixi" darslarida o'rgatiladi. Lekin bu oqim va yo'nalishlardagi asarlarni badiiy o'qish va ulardan tegishli mantiqiy xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega. Hozirda maktab o'quvchilari va o'qituvchilari uchun ushbu tasviriy san'atga oid yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish to'g'risidagi qo'shimcha metodik qo'llanmalar, tavsyanomalar va elektron ko'rgazmali qurollar yetishmaydi. Bu esa badiiy ta'lrim tizimida dars samaradorligiga salbiy ta'sir etib kelmoqda. Shuning uchun yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni ta'lim jaryonlariga keng tatbiq etish, zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish maqsadga muvofiqdir.

XX asr tasviriy san'ati tarixida o'chmas iz qoldirgan mashhur ijodkorlardan biri ispan kubist rassomi Pablo Picasso ijodi bilan tanishib, uning bir asarini shakl psixologiyasi asosida badiiy tahlil qilish texnologiyasini ko'rib chiqamiz.

Tasviriy san'at asarlari ham ijod, ham ilmdir, u "...bamisolli bodomning ichidagi mag'iz. Uni qo'liga kiritish uchun mehnat qilish, ya'ni chaqib, uni po'stlog'idan ajratib olish kerak", degan edi Abdulla Avloniy.<sup>2</sup>

Rassomning asarlarda ko'chmanchi sirk aktyorlari, gadolar o'z ifodasini topgan. "Keksa gado o'g'il bola bilan", "Absentni yaxshi ko'radigan ayol", "Ko'chmanchi gim-nastlar", "Uch musiqachi", "Shar ustidagi qiz", "Uyqu" kabilar ana shunday asarlar sirasiga kiradi.

Pikassoning ona timsolini yaratishga bag'ishlangan "Ona va bola" asari ham odatiy baxt va quvonch g'oyalardan farq qilib, unda onaning o'z farzandi taqdiriga qayg'urishi aks ettirilgan.

U o'z ijodi davomida tasviriy san'atda yangi materiallar va texnikalarni qo'llash, yangi shakl va uslublardan foydalananish, turli uslub va oqimlarda asarlar yaratishga harakat qilgan. Uning izlanishlari natijasida Fransiya tasviriy san'atida kubizm oqimi

<sup>2</sup> Pedagogika. Ensiklopediya. Davlat nashryoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015, 1-tom, 8-b.

---

paydo bo'ldi. Mazkur ijodiy oqimning asoschisi va eng yorqin namoyandası P. Pikassoning o'zi edi.

Kubizm oqimi vakillarining fikrlariga ko'ra, har qanday predmet shakli asosida geometrik shakllar: kub, konus, piramida, prizma, silindr, shar va boshqa shakllar yotadi, rasm ishlashda ulardan foydalanish lozim.

Garchi P.Pikassoning ijodiga syuralizmning ta'siri kuchli bo'lsa-da, u borliq go'zalliklarini, ulardag'i o'ziga xos hamohanglik, uyg'unlikni aks ettiruvchi realizm oqimidagi portretlar va kompozitsiyalar ham yaratgan.<sup>3</sup>

P.Pikasso asarlarida qarama-qarshi shakllar asosida o'z fikrlaridagi voqeliklarni tomoshabinga yetkazadi. Shu bois, uning "Shar ustidagi qiz" nomli asaridagi shakllar psixologiyasining badiiy tahvil texnologiyasi haqida to'xtalib o'tamiz.

Ilmiy tadqiqotchilarning aytishicha, Pikassoning "Shar ustidagi qiz" asari "Pushti" ijodiy davrida yaratilgan.

Asarda ko'chmanchi sirk o'yinchilarining hayot quvonchlari va tashvishlari o'z ak-sini topgan. Asarda ko'chmanchi oilaviy sirk o'yinchilar guruhini ko'rish mumkin. Asar ni kuzatar ekansiz, avval asosiy elementlarning ramziy ma'nolarini ko'rib chiqamiz.

1-jadval

**Pablo Pikassoning "Shar ustidagi qiz" asaridagi asosiy elementlarning  
ramziy ma'nolari**  
(“keys stadi” savol-javob usulida)

T/r	QISMLAR	QISMLARNING RAMZIY MA'NOLARI
1	Xayol surib o'tirgan sportchi erkak kishi	Ota. Turg'unlik (statik), yetuklik va komillilik ramzi
2.	Kub	Olam, turg'inlik, mustahkamlik, serqirralik
3.	Shar	Olam, harakat
4.	Shar ustidagi qiz	Ulg'ayotgan farzand
5.	Shar ustidagi qizning boshidagi gulg'uncha	Yoshlik
6.	Ona, bola va kuchukcha	Oila
7.	Kuchukcha	Vafodorlik
8.	Oq rangli ot	Do'stlik, ruhiy poklik, oq yo'l
9.	Qirlar	Hayotning qiyinchiliklari va o'tish davrlari
10	Erkak kishining favorang kiyimlari	Tinchlik, sabr, osoyishtalik, turg'unlik, orzular ushalishi

Kompozitsiya simmetrik joylashtirilgan bo'lib, uning chap tomonida shar ustidagi nozik gimnast-sirk o'yinchi qiz va ikkinchi o'ng tomonida esa, kubning ustida o'tirgan polvon sportchi-ota turg'un holda aks ettirilgan. Polvon ota asarda tomoshabinga teskari holda o'tirib, chap tomonga qarab hayol surayotgan jarayonda aks ettirilgan. Uning hayol nuqtasi sur'atdan tashqarisida joylashgan. Shar ustidagi qiz yarim egil-gan holda o'z muvozanatini saqlash uchun qo'lini yuqoriga ko'tarib olgan. Qiyofasida yoshlikning mayin tabassumi bo'lsa-da, yuragida esa, qo'rquv alomatlari borligi ha-

<sup>3</sup> Xasanov R. Tasviriy san'at asarlari. – T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2009.165-b.


rakatida o'z ifodasini topgan. Polvon ota tinch va xotirjam o'tirsa-da, qalbi notinch ekanligi, ko'zidagi xavotir va tashvish alomatlari ko'zga tashlanadi. Asar simmetrik bo'lsa-da, uning chap tomonida harakat, o'ng tomonda, aksincha, turg'unlik, ya'ni qarama-qarshi holat tasvirlangan. Pablo Pikassoning "Shar ustidagi qiz" nomli asaridagi asosiy elementlarining geometrik shakllarda va simmetriyadagi assimetriyani ko'rish mumkin.

Asarning chap tomonida sharga asoslangan shakllar o'z ifodasini topgan bo'lsa, ikkinchi tomonda esa, qirrali kub va kub shakliga xos inson gavdasi o'z aksini topgan. ( 2-rasm.)

Asarning orqa tomonida ochiq qir-adirlar tasvirlangan. Ular beshta gorizontal chiziqlarda notekis aks ettirilgan. Bu qizning hayot yo'lli notekislikdan iboratligi va o'tish davrlari ramziy ravishda tasvirlangan. Bundan tashqari ko'chmanchi sirk o'yinchilari hayotining o'ziga xos qiyinchiliklarini tasvirlagan. Chunki rassom o'sha davrda o'zi qatori ko'chmanchi sirk o'yinchilarining hayoti nihoyatda achinarli, qash-shoqlik va kasallikkdan iborat ekanligini qalbdan his qilar edi. U sirk o'yinchilari oilasidagi yosh bolalar taqdiri va kelajagi haqida qayg'urar va achinar edi. Sirk o'yinchilari kulib, o'yin ko'rsatib tursalar-da, qalblarida ma'yuslik va qayg'u borligi sezilib turar edi. Asarning o'rtaida oppoq ot tasvirlangan. Orqa planning chap tomonida bola ko'targan ona, bola va kuchukcha oq ot tomonga qarab turgani aks etgan.

Ijodiy hayolning orzular va shirin alohida turlari-xayol turlari mavjud. Pablo Picasso bu asarida orzu-xayol tasvirlangan. "Orzu – ijodiy xayolning tilakdagagi kelajakka qaratilgan faoliyatidir. Orzu qilish – ko'nglimizga yoqadigan istiqbol obrazlarini yaratish demakdir."<sup>4</sup>.

"Shar ustidagi qiz" asarining sxematik joylashishi berilgan bo'lib, S-xayol nuqtasi va xayol jarayonining psixologik holati aks ettirilgan. Ota qizining bu olamda hayot sinovlaridan o'tib, o'z o'rnini topa olarmikan, kelajagi va taqdiri qanday bo'larkan deya xayol surmoqda.



2-rasm.Pablo Pikassoning "Shar ustidagi qiz" nomli asarining asosiy elementlarini kompozitsion sxematik joylashish modeli.

<sup>4</sup> Ivanov.P.I. Umumiy psixologiya. – T.: O'qituvchi, 1967. 221-b

---

Xulosa qilib aytganda, tomoshabinga otaning orqa qilib o'tirgan holatining maz-muni shundaki, o'zidan orqada qoladigan farzandlarining kelajagi va taqdiri bo'yicha g'amxo'rlik qilayotgani turg'un holatda berilgan bo'lsa-da, xayol jarayoni harakatda berilgan.<sup>5</sup> Bu bilan Pablo Picasso ota-onalarni hayotda bir zum to'xtab, ortda qolayo-tgan farzandari taqdiriga befarq bo'lmashligiga, ularning kelajagi uchun qayg'urishga chaqiradi.

P.Pikassonirning "Shar ustidagi qiz" asarini badiiy tahlil qilar ekanmiz, asarda nihoyatda dolzarb masala ko'tarilganligini his qilish mumkin. Ya'ni har bir ota-onalar油asida farzandlari tarbiyasiga va kelajagi uchun qayg'urishi kerakligi haqidagi g'oya ilgari surilgan.

Shu bois o'qyvchilarga umumbashariy qadriyatlarni badiiy tahlil qilish va ularda-gi ma'nolar va g'oyalar shu kabi texnologiyalar asosida o'rgatilsa, ta'larning sifat va samaradorligi yanada oshadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov S.S., Soipova M. S., Mansurov O'. *Badiiy tahlil tamoyillari. Fan va texnologiya*, – T., 2016, 95-99-betlar.
2. Sulaymonov A., Jabborov B. *Tasviriy san'atda oqim va yo'nalishlar*. – T.: Sano-Standart, 2008, 4-b.
3. Pedagogika. Ensiklopediya. Davlat nashryoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2015, 1-tom, 8-b.
4. Xasanov R. *Tasviriy san'at asarlari*. – T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot, 2009. 165-b.
5. Rahimova M. *Psixologiya kursida ko'rsatmalik*. – T.: O'qituvchi, 1981, 72-b.
6. Ivanov P.I. *Umumiy psixologiya*. – T.: O'qituvchi, 1967. 223-b.
7. Kuzin V.S. *Psixologiya. Vysshaya shkola*, – M., 1982.

---

**Tahririyat:** Ta'lim sifat va samaradorligini ta'minlashda sinfdan tashqari mashhg'ulotlarining o'z o'rni bor. Ayniqsa, tasviriy san'at darslarida umumbashariy qadriyatlarga asoslangan dars texnologiyalaridan foydalanish muallif nazarida ijobiy natija beradi. Haqiqatdan ham milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish hozirgi davrning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

---

<sup>5</sup> Bulatov S.S., Soipova M. S., Mansurov O'. *Badiiy tahlil tamoyillari. (Monografiya)* Fan va texnologiya, – T., 2016, 95-99-betlar.

Go'zal NAZIROVA,  
T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI mustaqil izlanuvchisi

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TASHKIL ETILADIGAN TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARI PEDAGOGIK TIZIM SIFATIDA

### Annotation

Maqola turli shakllardagi ta'lism-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarini tarbiyachilar tomonidan inobatga olishning zaruratiga bag'ishlangan. Shuningdek, maktabgacha ta'lism muassasalarida tashkil etiladigan barcha shakllardagi asosiy va yordamchi jarayonlardan iborat bo'lgan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligini ta'minlashda ularning tizimga xos xususiyatlarini o'rganish hamda samaradorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillarni inobatga olishning amaliy ahamiyati ilmiy asoslangan.

**Kalit so'zlar.** Pedagogik jarayonlar, pedagogik tizim, tizimga xos xususiyatlar, asosiy va yordamchi jarayonlar, shaxslararo munosabatlar jarayonlari, mustaqil ta'lism, o'zini o'zi tarbiyalash, tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar.

Данная статья посвящена необходимости воспитателям учитывать различные формы образования, воспитания и процессы воспитательных отношений, основные и вспомогательные процессы, сформировавшиеся в дошкольных образовательных учреждениях и состоящие из педагогических процессов, изучения связи между ними и обеспечение отношения к системе, а также практическая значимость научно-обоснованных причин, воздействующих на результат.

**Ключевые слова.** Педагогические процессы, педагогическая система, свойственные качества системы, основные и вспомогательные процессы, процессы отношений, самостоятельное образования, воспитание себя, воспитатели, воспитанники.

The given article is devoted to the necessity of tutors to consider various forms of upbringing, education and processes of educational relations, the basic and auxiliary processes which were generated in preschool educational institutions consisting of pedagogical processes, connectedness between each other and maintenance of the relation to system, and the practical importance, scientifically proved the influencing reasons on result as well.

**Key words.** Pedagogical processes, pedagogical system, peculiar inherent system qualities, the basic and the auxiliary processes, processes of relations, independent upbringing, self-education, independent work, tutors, inmates.

**H**ar qanday davlatning rivojlanishi, buguni kechasidan ham istiqbolli bo'lishi, avvalo, uning kelajak avlodiga bog'liq. Bu har bir davrda o'z isbotini topib kelayotgan asos. Aynan bizning mamlakatimizda ham bu yo'lda olib borilayotgan siyosat amalda o'zini to'laqonli isbotlamoqda. Yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nан yetuk qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi vazifa bo'lib, bu

---

ishlar yildan-yilga takomillashib bormoqda. Bu borada Prezidentimizning “2017–2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ta’lim-tarbiya maskanlari zimmasiga yanada mas’uliyatli vazifa-larni yukladi.

Qarorda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog-kadrlar bilan ta’minalash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash derajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish ko‘zda tutilgan.

Shu jihatdan maktabgacha ta’lim muassasalari (MTM)da tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda tarbiyalanuvchilarning faolligini ta’minlash, ularni mustaqil va erkin fikrlash-hga o‘rgatish hamda muloqotga kirishishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishning ahamiyati ta’lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligini ta’minlashda o‘z ifodasini topadi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijalarining ko‘rsatishicha, MTM tarbiyalanuvchilarida mustaqil va erkin fikrlash ko‘nikmalari va boy ma’naviy dunyoqarashning shakllanishi nafaqat maxsus tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda, balki ular yashayotgan va ta’lim olayotgan muhit, ta’lim muassasasi jamoasi a’zolarining o‘zaro munosabatlari va shaxslararo munosabatlar jarayonlarida vujudga kela-yotgan ta’limiy muhitda ham amalga oshadi. Shuningdek, MTM rahbar-xodimlari va tarbiyachilarining shaxsiy sifatlari, xatti-harakati, dunyoqarashi, tajribasi, bilim, ko‘nikma va malakalari tarbiyalanuvchilar shaxsining rivojlanishiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi.

MTMd da tashkil etiladigan mashg‘ulotlar, aniqroq aytganda, ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlар yaxlit pedagogik tizimni tashkil etadi. Tarbiyalanuvchilar shaxsiga turli ta’sir ko‘rsatuvchi barcha shakllardagi mashg‘ulotlar, sayr va ekskursiyalar va shaxslararo munosabatlari o‘zaro aloqador va uzviy bog‘liq bo‘lib, ular o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi xususiyatlarga ega. Mazkur tashkil etuvchi komponentlarning o‘zaro bog‘liq va aloqadorligi hamda birligi pedagogik jarayonning yaxlitligini ifodalaydi.

MTM tarbiyalanuvchilar shaxsining rivojlanishida ularning mustaqil faoliyati, fikrashi, o‘rganishi va ma’lumotlar olishi hamda xulosalari asosida o‘zini o‘zi tarbiyalashi muhim ahamiyatga ega. Demak, MTMd a tashkil etiladigan turli shakllardagi mashg‘ulotlar va boshqa pedagogik jarayonlar samaradorligini ta’minlashda tarbiyalanuvchilar shaxsini rivojlantirishga asos sifatida mustaqil ta’lim, o‘zini o‘zi tarbiya, mustaqil ma’lumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlari jarayonlarini yaxlit pedagogik tizim komponentlari sifatida inobatga olish zarur.

MTMd a tashkil etiladigan pedagogik jarayon komponenti sifatida o‘zaro ta’sir jarayonining ilmiy va amaliy ahamiyati inson shaxsining rivojlanishida ham o‘z ifodasini topadi. Bunday o‘zaro ta’sir jarayonida erishish mumkin bo‘lgan quyidagi natijalar tarbiyalanuvchilar shaxsining rivojlanishida o‘ziga xos ahamiyatga ega:

- tarbiyalanuvchilar faolligi va tashabbuskorligining rivojlanishi;
- tarbiyalanuvchilar shaxsida yoshga bog‘liq bo‘ligan psixologik xususiyatlar ning o‘zgarishi;

- tarbiyalanuvchilarning ma’naviy-madaniy dunyoqarashi va tushunchalarining rivojlanishi;
- tarbiyalanuvchilarda o’zini o’zi anglash va o’zini o’zi baholash kabi ko’nikma-larning shakllanishi va rivojlanishi;
- MTM rahbar-xodimlari va tarbiyachilarning kasbiy kompetentlilik darajasining ortishi;
- rahbar va pedagog xodimlarning hamkorlikdagi faoliyati vujudga kelishi;
- MTMdai tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o’tasida axborotlar almashinuvi sa-maradorligining ortishi;
- yosh pedagog va tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga hamda guruhlarga yangi kelgan tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy-ta’limiy muhitga psixologik moslashuvining tezlashuvi.

Yuqorida aytganimizdek, MTMdagi mavjud tarbiyaviy va shaxslararo munosabatlar jarayonida o’zaro ta’sir bevosita va bilvosita muloqot jarayonlarida ham vujudga keladi.

MTMdai pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonlarida ham barcha rahbar-xodimlar, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar ma’lum bir belgilangan munosabatda bo’lishadi. Mazkur shaxslararo munosabatlarda ularning o’zaro ta’siri natijasida tarbiyaviy jarayon vujudga keladi, ushbu jarayonlarni tarbiyaviy munosabatlar jarayoni deb atashimiz mumkin.

Demak, shaxslararo munosabatlar jarayonida subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlarning o’zaro ta’sir natijasida tarbiyalanuvchilar tomonidan o’zlashtirilib borish jarayoni tarbiyaviy jarayon bo’lib, u tarbiyalanuvchilarda shaxsiy xislatlar shakllanishi va rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

MTMdai bevosita va bilvosita ta’sir ko’rsatish jarayonida va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida tarbiyalanuvchilarning shaxsiy sifatlarining shakllanishi va rivojlanishiga, xatti-harakatining o’zgarishiga, dunyoqarashining kengayishi, bilim, ko’nikma va malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladigan barcha ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lgan jarayonlar majmuyini pedagogik jarayonlar yoki pedagogik tizim deb aytishimiz mumkin.

Pedagogik qonuniyatlarga ko’ra, pedagogik tizim o’zaro aloqador va uzviy bog’liq bo’lgan hamda o’zaro ta’sir ko’rsatuvchi xususiyatlarga ega komponentlar majmuyidan iborat bo’ladi. MTMdai tashkil etiladigan turli shakllardagi mashg’ulotlar, to’g’arak mashg’ulotlari, sayr, ekskursiya, davra suhbat, uchrashuvlar, turli yo’nalishlarda tashkil etiladigan musobaqa va tanlovlар, san’at festivallari va boshqa turli yo’nalishlardi tadbirlarni, tarbiyalanuvchi va tarbiyachilarning o’zlari tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ta’lim, o’zini o’zi tarbiyalash, mustaqil ma’lumot, mustaqil ishlarni, shuningdek, shaxslararo munosabatlar jarayonida bevosita vujudga keluvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining maqsadi, yo’nalishi, mazmun-mohiyati va ahamiyatiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, ularning o’zaro aloqadorligi va bog’liqligini, ya’ni ularda tizimga xos xususiyatlarni mavjudligini ko’rishimiz mumkin. Chunki mazkur pedagogik jarayonlar deb atalayotgan jarayonlarning ixtiyoriy birining o’zgarishi ikkinchisi, uchinchisi va boshqalarining o’zgarishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Bizning fikrmizcha, MTMdai ta’lim-tarbiya bir necha kichik tizimlar doirasida, ya’ni o’quv mashg’ulotlarida, o’yin mashg’ulotlarida, sayr va ekskursiya jarayonlarida

---

hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarda amalga oshirilishi mumkinligini inobatga olgan holda, mazkur jarayonlarni hamda o'zaro bog'liq bo'lgan tashkil etuvchi qismlarning ichki tabiatiga xos bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga olgan va o'zaro ta'sir jarayoni mavjud bo'lgan shaxslararo munosabatlari jarayonlari majmuyini ham pedagogik tizim sifatida keltirish mumkin.

Pedagogik tizim MTMning maqsadi, vazifasi, ta'lim muassasasi tomonidan pedagogik maqsadlarni amalga oshirish yo'nalishlarida tanlangan model, strategiyalari orqali tavsiflanishi ham mumkin. Ya'ni pedagogik tizim nafaqat MTMdagi tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari, balki pedagogik jarayonlar subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, tarbiyalanuvchilar, tarbiyachilar va rahbar xodimlarining funksional vazifalarini amalga oshirish va boshqarishda tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi, tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi va alohida xususiyatlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishini ham qamrab oladi.

Pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligini inobatga olib, MTMdagi tashkil etiladigan turli yo'nalishlardagi tadbirlar, mustaqil ta'lim, o'zini o'zi tarbiyalash, mustaqil ma'lumot, tarbiyaviy munosabatlari jarayonlari pedagogik tizimning asosiy komponentlarini tashkil etadi deb aytishimiz mumkin.

Pedagogik tizim komponentlarining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi tamoyillar asosida tavsiflash mumkin:

- pedagogik jarayon ishtirokchilari hisoblangan tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar munosabatlarda o'zaro ta'sirning ahamiyati;
- tarbiyachilar pedagogik jarayonning faol subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatishi, ya'ni pedagogik jarayonlarda tarbiyachilar xatti-harakatlari tarbiyaviy vosita sifatida qaror topishi;
- pedagogik jarayonning faol subyekti sifatida tarbiyachi xatti-harakatlarining maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi;
- ta'lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlari hamda MTMdagi shaxslararo munosabatlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi;
- tarbiyalanuvchilar shaxsining rivojlanishiga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro birligi;
- ta'lim-tarbiya jarayonlari va tarbiyaviy munosabatlari jarayonlarining har biri alohida bir tizim sifatida hamda yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;
- MTMdagi tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Shunday ekan, MTMdagi tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi muammolarning ko'p qirraliligi va murakkabligi nafaqat pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni sifat jihatdan o'zgartirishni nazarda tutadi, balki uning mazmunini takomillashtirish zaruriyatini ham belgilaydi.

MTM funksional vazifalari yo'nalishida belgilangan umumiyl maqsadlarga erishishga qaratilgan, oldindan loyihalashtirilgan hamda mavjud imkoniyatlar va ilmiy-pedagogik salohiyat darajasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar asosiy

(ta'lim-tarbiyaviy) va yordamchi (ta'minlovchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlarni o'z ichiga oladi.

MTMdа tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligi asosiy va yordamchi jarayonlar ishtirokchilarining faoliyatları bilan bog'liq bo'ladi. MTMdа ilmiy-pedagogik salohiyatni boyitish asosida imkoniyatlarni kengaytirish, ta'lim-tarbiyani yanada yangi sifatlarga ko'tarish, pedagogik jarayonlarda yuqori va samarali natijalarga erishish mumkin. Pedagogik jarayonlarda samaradorlikka erishish va tarbiyalanuvchilar dunyoqarashi va tushunchalarini rivojlantirish uchun odatda belgilangan mezonlarni almashtirish bilan bir qatorda, asosiy va yordamchi jarayonlar ishtirokchilarining faoliyatini takomillashtirish ham zarur bo'ladi.

MTMdа tashkil etiladigan asosiy va yordamchi jarayonlar bir butun organizm sifatida ichki o'zgarishlarga asosan rivojlanadi va o'zaro aloqalar tizimi barqarorlashadi. Pedagogik jarayon samaradorligi ko'rsatkichlariga ko'ra, MTM maqsadiga erishishdagi vazifalar takomillashtirilib boriladi. Asosiy va yordamchi jarayonlarda vujudga keladigan turli xil muammolarni hal etish zamonaviy usullar yordamida amalgalashiriladi, natijalar zamon talablariga moslashadi va pedagogik tizim samaradorligi ta'minlanadi.

MTMdа tashkil etiladigan asosiy va yordamchi jarayonlarni oldindan loyihalashirish va pedagogik tizimning umumi modelini o'zgartirishda tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning imkoniyatlari, boshlang'ich tushunchalari va muassasa ichki imkoniyatlariaga asoslanish kerak. Chunki vaziyatlarga ko'ra takomillashtirilgan va yangilangan model davlat talablari darajasida tarbiyalanuvchilarning o'zgaruvchan ta'lim-tarbiyaviy, ma'nnaviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi hamda tarbiyachilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

MTMdа tashkil etiladigan asosiy va yordamchi jarayonlarni oldindan loyihalashirish va pedagogik tizimning umumi modelini takomillashtirishda pedagogik tizimning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagi omillarga asoslanish kerak:

- MTMdа tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda erishish mumkin bo'lgan muvaffaqiyatlar tarbiyalanuvchilarning faolligiga, tarbiyachilarning vaziyatlarga ko'ra tarbiyalanuvchilar faolligini ta'minlash qobiliyatlariga bog'liqligi;

- MTMdа tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonlarining tizimli obyekt sifatida izchil rivojlanib borishi barcha asosiy va yordamchi jarayonlar hamda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtaqidagi o'zaro ta'sir jarayonlari integratsiyasini ta'minlashga bog'liqligi;

- asosiy va yordamchi jarayonlardagi muvaffaqiyatlar tarbiyaviy munosabatlar va shaxslararo munosabatlar jarayonlaridagi o'zaro ta'sirning samaradorligiga bog'liqligi;

- MTMdа tashkil etiladigan murakkab tuzilishga ega bo'lgan pedagogik jarayonlarni oldindan loyihalashtirishdagi tavakkalchilik (ehtiyojlar va imkoniyatlarni, tarbiyalanuvchilarning qobiliyatları va boshlang'ich tushunchalarini inobatga olmaslik) bilan pedagogik jarayonlar samaradorligining nomutanosibligi;

- MTMdа tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va muvofiqlashirishda tarbiyalanuvchilarga kuchli majburiy va keng qamrovli ta'sir ko'rsatish sarma bermasligi;

---

– MTMda tashkil etiladigan murakkab tuzilishga ega bo'lgan pedagogik tizimni tashkil etuvchi asosiy va yordamchi jarayonlarni aniq belgilangan tartibda (lokal) muvoqqlashtirishning zarurati.

Demak, MTMda tashkil etiladigan murakkab tuzilishga ega bo'lgan pedagogik tizimni tashkil etuvchi asosiy va yordamchi jarayonlarni loyihalashtirish va umumiy modelini shakllantirishda ularning tizimga xos xususiyatlarini inobatga olish, ya'ni asosiy va yordamchi jarayonlar samaradorliklari ham o'zaro ta'sir ko'rsatish xususiyatlariga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ya'ni MTMda tashkil etiladigan murakkab tuzilishga ega bo'lgan pedagogik tizimni tashkil etuvchi asosiy va yordamchi jarayonlardan biri hisoblangan tarbiyaviy munosabatlardan iborat bo'lgan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashda ularning tizimga xos xususiyatlarini o'rganish hamda samaradorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillarni inobatga olish muhim hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. *Ta'lif menejmenti*. – T.: Voris, 2006. 264-b.
2. Turg'unov S.T. *Umumiy o'rta ta'lif muassasalarini direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Ped.f.d. ...diss.* – T., 2007. 363-b.
3. Turg'unov S.T., Maksudova L.A. *Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish*. – T.: Fan, 2009. 146-b.
4. Shodmonova Sh.S. *Oliy o'quv yurtlari talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish: Ped.f.d. ...diss.* – T., 2009. 337-b.

---

**Tahririyat:** Uzluksiz ta'lifning ilk bo'g'ini sanalgan mакtabgacha ta'lif muassasalariga bugun har qachongidan ham ko'p e'tibor berilmoqda. Ulardagi ta'lif-tarbiya jarayonini sifatli va samarali tashkil etish zarurati doim muhim ahamiyatga ega. Muallifning bu boradagi nazariy fikrlari va tavsiyalari MTMda faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagoglar uchun asqotadi, deb o'yaymiz.

Atanazar RAXIMOV,

Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy-xodim izlanuvchisi

## UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

### Annotation

Maqolada biologiya fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lism – o'quvchilarda egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini tarkib toptirishga yo'naltirilganligi yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Bilim, malaka, ko'nikma, kompentensiya, ilmiy dunyoqarash, biologiya, uzluksiz ta'lim.

В статье обсуждается образование, основанное на компетентном подходе при обучении биологии – направленность на составление компетенций практического использования знаний, навыков и квалификации при личной, профессиональной и социальной деятельности учащихся, что поможет развитию научного мировоззрения учащихся.

**Ключевые слова.** Знание, квалификация, навык, компетенция, научное мировоззрение, биология, непрерывное образование.

Article discusses education based on a competent approach in the teaching of biology - the focus on the compilation of competences for the practical use of knowledge, skills and qualifications in the personal, professional and social activities of students and that it will help develop the students' scientific outlook.

**Key words.** Knowledge, qualification, skill, competence, scientific worldview, biology, continuous education.

**O**'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"<sup>1</sup>gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"<sup>1</sup>gi qonunlariga muvofiq, umumta'lim fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiyl o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017-yil 6-aprelda 187-soni "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"<sup>1</sup>gi qarori qabul qilindi<sup>1</sup>.

O'zbekistonda ta'limi rivojlantirishga qaratilgan mazkur qarorda:

<sup>1</sup> "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"(O'zbekiston Respublikasi qonun hujatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda)

- 
- umumi o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish;
  - o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydigan zamon talablariga javob beradigan o'quv-metodik majmualarni chop etish;
  - kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi DTS va o'quv dasturlarini amaliyatga samarali joriy etish;
  - o'qitish texnologiyalari va baholash me'zonlarini ishlab chiqish hamda amalda joriy etish kabi dolzarb masalalar kun tartibiga qo'yilgan.

Ushbu masalalar biologiya ta'lim mazmuni va uni o'qitish metodikasining yangilanib borish zaruratinib bildiradi. Olgan bilimlarini amaliyatda qo'llay olish kompetensiyasiga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash bugungi kundagi ta'lim tizimiga qo'yilgan bosh vazifa hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda respublikamizda umumi o'rta ta'limning malaka talablari haqida fikr yuritilgan bo'lib, umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;
- ko'nikma – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;
- malaka – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;
- kompetensiya – mayjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyatidan tashkil topishi qarorda aytilib o'tilgan.

Biologiya o'qitish metodikasi fanini o'qitishdan maqsad – bo'lajak biologiya o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini amalga oshirish, biologiyani o'qitish samaradorligini oshirishga imkon beradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar bilan tanishtirishdan iborat.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi biologik ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni shaxsiy, kelgusida kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan muammoli vaziyatlarda ta'lim-tarbiya jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z vaqtida maqsadga muvofiq samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil ravishda biologiya faniga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni orttirishga oid materiallarni to'plash orqali ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlanish sanaladi.

Shuni qayd etish kerakki, biologiyani o'qitishda o'quvchilarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalar ham shakllantirilishi lozim<sup>2</sup>.

Biologiya o'qitish metodikasi o'quv fani talabalarning metodik tayyorgarligini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli talaba biologiya o'qitish metodikasini ham nazariy, ham amaliy jihatdan chuqur o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Biologiya o'qitish metodikasi biologiya o'qituvchisiga pedagogik faoliyatni tizimli tashkil etish, biologiya darslari, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari ishlar va ekskursiyalarni to'g'ri tashkil etishga zamin tayyorlaydi.

Biologiyani o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini tarkib toptirishga yo'naltirilgan

<sup>2</sup> Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе. // Педагогика. 2003. N10. стр 8-14..

ta'lım sanaladi va mazkur jarayon o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishga zamin tayyorlanadi.

O'quvchilarning dunyoqarashi ular tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar asosida shakllanadi.

Umumiy o'rta ta'lım maktablarining boshlang'ich ta'lım bosqichida o'quvchilar atrofimizdagi olam, ularning tarkibiy qismlari, tirik organizmlar ularning xilma-xilligi, tabiiy sharoitga moslashganligi haqida dastlabki bilimlarni olgan sari, o'quvchilar dunyoqarashi shakllana boshlaydi.

Umumiy o'rta ta'lım maktablarida biologiya fanini o'qitilishining boshlanishi bu jarayonni, ya'ni dunyoqarashni ilmiy dunyoqarashga aylantirishga zamin tayyorlaydi.

O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi deyilganda, ularning olamni ilmiy fan nuqtayi nazardan o'rganishi tushuniladi.

Ilmiy dunyoqarash tabiat va jamiyat rivojining umumiy qonuniyatlarini umumbiologik va xususiy tushunchalar, qonuniyatlar va nazariyalar asosida o'rganish natijasida vujudga keladigan e'tiqodlar yig'indisi sanaladi.

O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni e'tiqodga aylanishi uchun kompetensiyalar muhim o'rın tutadi.

O'quvchilarning yosh, ergonomik va psixofiziologik xususiyatlari e'tiborga olinib, fanga oid kompetensiyalar mazmunan tahlil qilinib chiqiladi va o'quv predmetiga tegishli xususiy kompetensiyalar shakllantirilgan. Jumladan, biologiya fanini o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarda quyidagi xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirishi lozim.

Uzluksiz ta'lım tizimining barcha bo'g'inlari, shu jumladan, umumiy o'rta ta'lım maktablari zimmasiga ta'lım-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini tarkib toptirish vazifasi yuklatilgan.

Ta'lım-tarbiya jarayoniga kompetensiyali yondashuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lım mazmunini boyitish o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil qilishga imkon beradigan umumiy prinsiplar yig'indisi sanaladi.

Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'quvchilarning mustaqil hayotdagi turli faoliyat va yo'nalishlardagi muammolarni o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari, shaxsiy xulosalariga asoslanib hal etish, zaruriy hollarda talab etiladigan faoliyatni bekamu ko'st bajarish qobiliyatlarini rivojlantirish;

- kompetensiyali yondashuvda ta'lım mazmunini tanlash va metodik ta'minotini yaratishda o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, ekologik muammolarni hal etish, didaktik jihatdan qayta ishlangan o'zida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradigan o'quv topshiriqlari bo'lishiga e'tibor qaratish;

- biologik ta'lım-tarbiya jarayonini tashkil etishda asosiy maqsad o'quvchilarda DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, shuningdek, axborot bilan ishlash, kommunikativ ko'nikmalarni egallash, matematik savodxonlik, ijtimoiy faoliikkaga ega bo'lish, o'quv muammolarini mustaqil hal etishga doir tajribalarni egallashlariga sharoit yaratish;

- 
- ta'lif-tarbiya jarayonining natijalari mazkur jarayonning muayyan bosqichida erishilgan natijalar, ya'ni o'quvchilar tomonidan kompetensiyaga asos bo'ladigan egalangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirganlik darajalariga qarab baho beriladi;
  - kompetensiyali yondashuvda – o'qitish maqsadlari o'quvchilar tomonidan o'z-o'zini anglash, ta'lif-tarbiya jarayonida o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini tushunish, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivoj-lantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustuvor yo'nalishlarni mo'ljallash nazarda tutiladi.

Kompetensiyali o'qitish jarayonida quyidagi funksiyalarni amalga oshirish imkoniyati mavjud:

- davlatimizning kelgusida jamiyat, fan, ishlab chiqarish va mustaqil hayotdagি muammolarni hal etishga qodir yoshlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirish;
- o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, qizi-qishlarini rivojlantirish, shaxsiy sifatlarini tarkib toptirish;
- o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribalarini aniq obyektlarga qaratish va mavjud muammolarni hal etish orqali tayanch va xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirish;
- o'quvchilarni aniq amaliy faoliyatga tayyorgarligini orttirish orqali ularning yosh, psixologik va ergonomik xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda kasbga, ijodiy faoliyat tajribalarini rivojlantirish natijasida fan yo'nalishiga yo'llash;
- ta'lif-tarbiya jarayonidan o'zlashtirilgan ilmiy-nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni aniq va jarayonli muammoli vaziyatlarda amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash kabi funksiyalarni kiritish mumkin.

Biologiya fanidan o'quvchining kompetensiyasi – biologiya fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

Mazkur fikrlar inobatga olingen holda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan biologiya o'quv dasturida o'quvchilarda biologik obyektlarni tanish, ularda boradigan jarayonlarni tushunish va izohlash, biologik obyektlarda boradigan jarayonlarni kuza-tish, tajribalar o'tkazish va xulosalash, sog'lom turmush tarzi va ekologik kompetensi-yalarni tarkib toptirish ko'zda tutilgan.

Kompetensiyalar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlanti-rishga asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifining Davlat ta'lif standartlari ni tasdiqlash to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda)

2. Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе. // Педагогика. 2003. N10. – С. 8-14.

Komiljon KARIMOV,  
O'MKHTKMO va UQT instituti mustaqil tadqiqotchisi

## TA'LIMNING INNOVATSION AXBOROT-DIDAKTIK SHAKLLARINI ILMIY TADQIQ QILISH – DOLZARB VAZIFA

### Annotation

Maqolada o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi xodimlari malakasini oshirish jarayonlari ga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mavjud muammo va ziddiyatlar hamda ularni bartaraf etish yo'llari bayon etilgan. Shuningdek, tizimda axborot-ta'lim muhitini yaratish, sifat va samaradorlikni ta'minlashda pedagog xodimlarning mustaqil faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari batafsil ochib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Pedagogik innovatsiya, uzlusiz pedagogik ta'lim, andragogik yondashuv, innovatsion jarayon, masofaviy ta'lim, pedagogik innovatika, ta'limning innovatsion axborot-didaktik shakllari, axborot-ta'lim muhiti, mustaqil ta'lim, tarmoqli axborot-kommunikatsion muhit.

В статье изложены факторы влияния, проблемы и конфликты и их устранение в процессе подготовки кадров в системе средне-профессионального образования. Также создание информационно-образовательной среды, выявление основных задач координации самостоятельной деятельности педагогических кадров в обеспечении качества и эффективности в системе средне-профессионального образования.

**Ключевые слова.** Педагогическое инновация, непрерывное педагогическое образование, андрологический подход, инновационный процесс, педагогическое инноватика, информационно-образовательная среда.

Article outlines the factors affecting the professional development of the personnel of secondary vocational education system, existing problems and contradictions, and ways to address them. Article also provides a detailed description of the issues of coordinating the independent activities of teachers in ensuring the information and educational environment, ensuring quality and efficiency.

**Key words.** Pedagogical innovation, continuous pedagogical activity, innovational process, andrological approach, distance learning, pedagogical innovation.

**M**amlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta'lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'naliishda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biri – ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligi hisoblanadi.

Shuningdek, ta'limning innovatsion axborot-didaktik shakllarini ilmiy tadqiq qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur dolzarb vazifalarni bajarishda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi rahbarlari va pedagog xodimlarining funksional vazifasiga mos ravishda malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarining mazmunini takomillashtirish va rivojlantirish strate-

---

giyalarni tanlash hamda malaka oshirish jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ta'limga innovatsion axborot-didaktik shakllarini ilmiy tadqiq qilish, ishlab chiqish va ulardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi xodimlari malakasini oshirish jaryonlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, mavjud muammo va ziddiyatlarni hamda ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash; uzlusiz malaka oshirish jarayonlarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini ta'minlash asosida pedagogik tizimga xos xususiyatlarni o'rganish; uzlusiz malaka oshirish tizimi komponentlarining o'ziga xos xususiyatlaraiga mos ravishda ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlovchi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish; pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimiga androgogik yondashuvning salohiyatidan foydalanish; pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimda axborot-ta'lim muhitini yaratish; masofaviy ta'limni uzlusiz malaka oshirish jaryonlariga tatbiq etish va uni boshqarish; sifat va samaradorlikni ta'minlashda pedagog xodimlarning mustaqil faoliyatini muvofiqlashtirish; axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali malaka oshirish jarayonini sifati va samaradorligini ta'minlashning taraqqiy etgan modeli pedagogik uyushmalarni tashkil etish; axborot-kommunikatsion texnologiya-larni qo'llash orqali elektron didaktik vositalarni ishlab chiqish; baholash mexanizmlarini takomillashtirish; tinglovchilar bilimini baholashning barcha uchun qulay bo'lgan mexanizmlarini ishlab chiqish bugun oldimizda turgan asosiy vazifalardandir.

*Pedagogik innovatsiya* – bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avvalgi egallangan bilimlar asosida ta'limda sifatli o'zgarishlar qilib, yuqori samaradorlikka erishishga yangicha yondashuv qilishdan iboratdir.

Bugungi kunda pedagogikada metodologik ongning jadal ravishda rivojlanishi yuz bermoqda. Uning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, pedagogik tadqiqotlarni tashkil qilish va o'tkazish muammolari bo'yicha ilmiy ishlar sonining o'sishi hisoblanadi. Pedagogikaning nazariylashtirilishi – ilg'or tajribani umumlashtirish tamoyilining monopoliyasidan voz kechish, ilmiy ishlarni tadqiq qilinayotgan obyektning taqdim etilishi usulidan kelib chiqib, empirik (predmet real ta'lim jarayonida berilgan) va nazariylarga (predmet ideal obyekt sifatida olingan) ajratib tasniflashdir.

Uzlusiz pedagogik ta'limning muammosini hal qilish sohasidagi nazariy va amaliy tajribaga ijobji baho berib, hozirda shakllangan tuzilmaviy-mazmunli va protsessual tarkibiy qismlar pedagog kasbiy faoliyatining tabiatiga mos kelmasligini tan olmay bo'lmaydi.

Uzlusiz pedagogik ta'limning taraqqiyoti tarkib topgan an'analar va boy tajribalardan ijodiy foydalanish, uning g'oyalalarini, mazmunini va texnologiyasini tubdan yangilash bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Bu muammolar o'rganilgan adabiyotlarda aks ettirilmaganligi sababli ular nazariy va amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarining obyektlari bo'lishi lozim.

Bugungi kunning talablariga javob berish uchun pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi: ushbu tizimda yuz berayotgan haqiqiy jarayonlar va yechilishi lozim bo'lgan muammolarni aks ettiradigan, asoslangan va yetarli darajada ishochli bo'lgan metodologik bazani tanlash; malaka oshirish tizimining asosiy muammolari va ziddiyatlarni muayyan metodologik pozitsiyadan turib, uzlusiz ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy g'oyalari va tamoyillariga tayangan holda birgalikda ko'rib chiqish; malaka oshirish tizimi rivojlanishining asosiy konseptual yo'nalishlarini va ularni amalga oshirishning aniq takliflarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilishi lozim.

Axborotli yondashuv axborotlarni olish, o'zgartirish, undan foydalananish jarayonlarini ko'rib chiqish bilan va subyektlarni bir-birlari, shuningdek, axborot-ta'lism tizimida ularning bilish obyektlari bilan o'zaro axborotli bog'lanish tizimini ajratib olish harakatlarini bilan bog'liq jarayon sifatida qaraldi. Bundan tashqari, axborotli yondashuv, axborot jarayonining turli bosqichlarini tanlashda ta'lism oluvchilarning o'quv faoliyatlarini tashkil etish usullari sifatidagi o'qitish metodlari tushunchasini kengaytirish imkonini berishi, uzlusizlik – ta'limga tadqiq qilishning metodologik tamoyili sifatida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida muhim global muammo sifatida ko'rsatildi.

1-jadval

### Axborotli yondashuvning nazariy asoslari tuzilmasi

Asos	G'oya	Natijalar
Jamiyatni axborotlashirish; empirik negiz; nazariy negiz	Asos bo'lувчи тушунчалар: axborot, axborotli jarayonlar, ta'lism jarayoni; axborotni olish, uzatish, qabul qilish tamoyillari; axborotni o'zlashtirish qonuniyatlarini, teskari aloqani tashkil qilish; tadqiqotning pedagogik metodlari	Ta'lism jarayoni ishtirokchilarining amaliy axborotli-ta'lism faoliyati; axborot texnologiyalarini qo'llash

*Uzlusiz pedagogik ta'lism* – o'zida pedagogning kasbiy-shaxsiy rivojlanishining uzlusizligini ta'minlash uchun sharoitlar tizimini aks ettirgan, pedagogik ta'limgning shaxsga yo'naltirilgan paradigmasi amalga oshirishning yetakchi vositalaridan biri. U kasbiy-pedagogik tayyorgarlik va malaka oshirishning barcha bosqichlarining uzviyligi; rasmiy va norasmiy kasbiy-pedagogik mustaqil ta'limgning birligi; umumiy (umummandaniy, umumrivojlantiruvchi) va kasbiy-pedagogik ta'limgning birligi; o'zgaruvchan hayot sharoitlariga mos ravishda pedagogik ta'lism tizimining barcha elementlarini uzlusiz yangilashni o'z ichiga oladi.

Uzlusizlik – uzlusiz ta'limgning konseptual tamoyillari maqsadlar, ta'lism mazmuни, tashkiliy tuzilmalar va pedagogik texnologiyalarning uzviyligini aniqlaydi. Uzlusiz ta'limgning nazariy va amaliy qoidalari umumlashtirish sifatida, andragogika uzlusiz ta'lism jarayonida kattalarni o'qitishning nazariy va amaliy muammolarini ochib beradi.

Andragogik yondashuvga kiradigan shaxsiy-faoliyatlari paradigmanning metodologik tamoyillari bilan shartli bog'langan ta'lism tamoyillari ko'p darajali tuzilmani tashkil etadi.

Andragogik yondashuvning shakllantirilgan metodologik tamoyillari o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradi, bir butun to'plamni tashkil etadi.

Andragogik yondashuv o'z ichiga jumladan, ta'limgning tashkiliy-faoliyatlari va interfaol metodlarini olgan, kattalar ta'limi metodlari yig'indisidan tashkil topgan, asosan amaliy bo'lgan yondashuv metodi sifatidagi tajribani tahlil qilish metodi asosida amalga oshiriladi.


Andragogik yondashuvning ko'rib chiqilgan kategoriyalari va tushunchalari, ularning aloqalari va munosabatlarini sxema ko'rinishida aks ettirish mumkin (1-rasm).

Andragogik modeldagagi ta'limgning maqsadi bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, tajriba-larning shakllangan tizimini qaytadan fikrlashga yo'naltirilgan. Bunday holda, malaka oshirishning samarası – ta'lism oluvchi uchun yangi bo'lgan tajriba bilan o'zaro munosabatga kirishish natijasi sifatida – yangi shaxsiy ko'rsatmalar, pozitsiyalar, fikrlash strategiyalari, munosabatlar, hayot faoliyatini olib borishning yangi sifatlari va boshqalar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

### Andragogik yondashuvning metodologik tamoyillari

<b>Ta'limning tamoyillari</b>	1. Kattalar ta'limi shaxsning butun umr davomida o'qishga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyoji bilan shartlanadi. 2. Kattalar ta'limi o'z-o'zini aniqlash jarayonida tushungan holda faoliyat ko'rsatadigan shaxsning xususiyati sifatidagi subyektlilikka asoslanadi. 3. Kattalar ta'limi shaxsni o'qitishning zamonaviy mazmuni bilan, uni o'zlashtirishning o'ziga mos usullarini egallash sharoitlarini ta'minlashni ko'zda tutadi.
<b>Dars berish tamoyillari</b>	1. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning rivojlanishi xususiyatlarining qonuniyatlarini hisobga olish. 2. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning kasbiy-shaxsiy tajribasiga tayanish. 3. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning so'rovlariga mos keladigan mazmunni tanlash, tashkil qilish va taqdim etish.
<b>O'qitish tamoyillari</b>	1. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning rivojlanishlari uchun ularda bo'lgan mavjud imkoniyatlarga tayanish. 2. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning o'z kasbiy-shaxsiy tajribalarini almashish jarayonida muloqotga tayyorligi. 3. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning bilimlarni ochiq tizim sifatida tanqidiy qabul qilishi va undan o'zining shaxsiy qiynichiliklarini bartaraf qilish uchun ijodiy foydalanishi.

Ta'lim doimo ta'lim oluvchining o'tgan davrdagi tajribasini yangi holatda faollash-tirishdan boshlanadi. Bunda, ham tajribani egallaganda, ham keyingi ta'limda muhim rol o'ynovchi tushunganlik darajasi turlicha bo'lishi mumkin.



1-rasm. Andragogik yondashuvning konseptual sxemasi

*Innovatsion jarayon deganda, yangilikni yaratish, o'zlashtirish, undan foydalananish, uni tarqatish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan majmuali faoliyat tushuni-ladi. Ta'limda innovatsion jarayonlarni amalga oshirish esa, ta'lim sifatini rivojlan-tirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining izchil rivojlanishi ta'lim tizimini butun jahonta'lim muhititalablariga javob berishi zarurligini taqozo etmoqda. Ta'limda axborotva

telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masofaviy ta’limning yuzaga keli-shiga sharoit yaratdi.

*Pedagogik innovatika* (yangilik kiritish, innovatsiya) – ta’lim muassasasining faoliyatiga nisbatan barqaror yangilik elementlarini kiritib, uning rivojlanishi va faoliyat ko’rsatishiga samarali ta’sir etuvchi maqsadga yo’naltirilgan o’zgartirishdir.

*Innovatsion pedagogik texnologiyalar* aynan ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilar (tinglovchilar)ga muayyan fan (mavzu) bo'yicha bilim berish va shaxsni shakllantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy axborot-didaktik shakllari va axborot-kommunikatsion texnologiyalar majmuidir.

*Ta’limning innovatsion axborot-didaktik shakllari* – ta’lim oluvchining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya mazmunini, ta’lim maqsadiga mos ravishda loyihalash hamda pedagogik, axborot-kommunikatsion uslublar, shakllar va o'qitish usullarini tatbiq etishga yo'naltirilgan psixologik, umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar asosida amalga oshiriluvchi ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o'tasidagi o'zaro ta’sir tizimidir.

*O’MKHT tizimi kadrlari malakasini oshirishning innovatsion axborot-didaktik shakllari* – yuqori darajadagi samaradorlikni ta’minlovchi, pedagogik qonuniyatlar, maqsadlar, prinsiplar, mazmun, shakl, uslublar, o'qitish vositalari va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan hamda tarbiyalash usullaridan tashkil topgan loyihalash va mos ravishda ushbu texnologiyani amaliyotda qo'llash tizimidir.

“Axborot-ta’lim muhiti” tushunchasini qo'llashning tadqiqot imkoniyatlarini ochish “muhit” tushunchasining o'zining ma'nosini aniqlashni talab qiladi. Bu tushunchani talqin qilishda ilmiy amaliyotda shakllangan bir qancha yondashuvlar tahlil qilindi.

Muhit tizimga resurslarni yetkazib beradi, tizimdan esa uning pirovard mahsulotlarini oladi va iste'mol qiladi. Buning o'ziga xosligi shundaki, tizim faoliyatining mahsulotlari qoidaga ko'ra, muhitda yaratilishi mumkin emas (aks holda tizimni muhitdan ajratish zarurati bo'lmas edi).

Axborot-ta’lim muhitining eng ahamiyatli komponentlaridan biri o'quv faoliyatini axborotlashtirishga qaratilgan va axborot-ta’lim muhitining o'quv komponetiga asos bo'ladigan dasturiy-metodik majmuadir.

Axborot-ta’lim muhitini loyihalash, qurish va foydalanish psixologik-pedagogik, metodik va texnologik tavsifdagi talablar va tavsiyalar majmuasiga qat’iy amal qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Axborot-ta’lim muhitini shakllantirish va foydalanishda uni qurishning modulli tamoyilini qo'llash jiddiy samara berishi mumkin.

Axborot-ta’lim muhitini ishlab chiqish texnologiyasi va uni amaliy qo'llash metodologiyasining o'qitishning metodik tizimiga mosligi ma'lum afzalliklarga ega. Ulardan biri sifatida resurslarni loyihalashtirish va ishlab chiqishda ta’lim oluvchilarining o'zlarining ishtirok etish imkoniyatlarini hisoblash mumkin. Ta’lim oluvchilar tomonidan amalga oshirilgan ishlannmalar, axborot resurslarini ishlab chiquvchi mutaxassislar tomonidan qabul qilingan qoidalarga amal qilingan holda muhit tarkibiga kiritilishi uchun moslanishi va yo'naltirilishi mumkin.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida mustaqil ta’limning roli beqiyosdir.

Pedagog mustaqil ta’limining zarurligi, bir tomonidan, pedagogik faoliyatning xususiyatlari, uning ijtimoiy roli bilan, boshqa tomonidan, pedagogik mehnatning doimiy o'zgaruvchan sharoitlari, jamiyatning ehtiyojlari, ilm-fan va amaliyotning evolyutsiyasi,

pedagogga bo‘lgan talablarning oshib borishi bilan bog‘liq bo‘lgan uzuksiz ta’lim tendifsiyalarini orqali asoslanadi.

3-jadval

### Axborot-ta’lim muhitining modellari

Modelning qirralari	Modelning turi		
	vositali	kommunikativ	pragmatik
Tahlil	O‘lchanadigan maqsadlarni aniqlash	O‘zaro harakat maqsadlariga erishish	Foydalanuvchi bilan maxsuslashtirish muammosini prototiplarni baholash vositasida aniqlashtirish
Loyihalashtirish va rivojlantirish	Tahlil bosqichining natijasi bo‘lib, spetsifikatsiyalarni loyihalashga xizmat qiladi; Yakuniy natija prototipga o‘xshagan bo‘ladi	Spetsifikatsiyani loyihalash muhokama qilish natijasidir; Prototip real, yoki g‘oya va kelajak ko‘rinishida mavjud bo‘lishi lozim	Spetsifikatsiyalarni loyihalash prototipni baholash natijasida amalga oshiriladi; prototipdan voz kechishlari mumkin
Amalga oshirish	Foydalanuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olingen sifatli materiallarni loyihalash orqali	Loyihalash va baholash jarayonida tashkilotchining rahbarlik roli natijasida	Foydalanuvchilarning mahsulotni baholash imkoniyatlarni ta’minalash orqali
Baholash	Mahsulot sifatini standartlar nuqtayi nazaridan baholash; Mahsulot ishlayotganligini tasdiqlash va kamchiliklarni ularni to‘g‘rilash maqsadida aniqlash	Mahsulot sifatini kelishilgan standartlar nuqtayi nazaridan baholash; Muhokamani qo’llab-quvvatlash	Mahsulotni amaliy standartlar tomonidan baholash; loyihalashning keyingi talablarini spetsifikatsiyalash

Mustaqil ta’lim faoliyat turi sifatida quyidagi belgilari ajratib olindi.


- pedagogning tizimli o‘qish faoliyati;
- pedagog tomonidan bilim, malaka va har qanday tizimlashtirilgan axborotni olishga yo‘naltirilgan faoliyat.
- mustaqil ta’lim jarayonida pedagog o‘zining tanlovini qandaydir darajada o‘zi mustaqil hal qiladi.

Mustaqil ta’lim pedagogning kasbiy-shaxsiy rivojlanishi bosqichi bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan mazmunga, ichki tashkilot va protsessual dinamikaga ega, ular esa mustaqil ta’limning yo‘nalganligi, maqsadlari, vositalari, metodlari va vazifalarida o‘z aksini topgan.

Ta’lim muassasasida kursli o‘qitish, mustaqil ta’lim va metodik ishlarning sintezi, pedagoglarning hamda o‘rtá maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimining obyektiv ehtiyojlarini hisobga oladigan ta’lim dasturlarining shakllari va turlarining ochiqligini, o‘zgaruvchanligini, variativligini ta’minalaydi.

Malaka oshirishning tarmoqli dasturlarida tarmoqli o'zaro harakatning ishtirokchilari bo'lib, hududiy tegishliligi va kasbiy ixtisoslashuvidan qat'i nazar pedagoglar hisoblanishi asoslab berildi.

Tarmoqda birgalikdagi jamoaviy va individual faoliyat uchun barcha ishtirokchilar uchun barobar ochiq bo'lgan axborot-kommunikatsion muhit mavjud bo'lishi lozimligi isbotlandi.



2-rasm. Axborot-ta'lismi tarmog'i

Malaka oshirishning tarmoqli axborot-kommunikatsion muhitining masofaviy ta'lism modelidagi asosiy texnologik komponenti bo'lib, individual malaka oshirish dasturi – malaka oshirishning tarmoqli axborot-kommunikatsion muhitida pedagog harakatining tuzilmaviy dasturi xizmat qiladi.

Malaka oshirish tizimida mustaqil ta'lim vositasi sifatidagi axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, andragogik va shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar asosida pedagoglarning mustaqil ta'limi modelini amalga oshirish, pedagoglar kasbiy kompetentligining rivojlanishini ta'minlaydi.

Pedagogning kasbiy mustaqil ta'limi quyidagi tuzilmaning ajralmas qismidir:

*Uzluksiz pedagogik ta'lim → malaka oshirish → mustaqil ta'lim.*


Mustaqil ta'lim pedagogning kasbiy faoliyatiga nisbatan qo'llab-quvvatlovchi bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqil ta'lim faoliyatning alohida ko'rinishi sifatida o'z tuzilmasiga: motivlar, maqsadlar, vositalar, texnikalar, kasbiy-pedagogik faoliyat texnologiyalariga ega.

Mustaqil ta'limming modeli turli – texnologik, pedagogik, tashkiliy-metodik faktorlarning rolini variativ aniqlaydigan integratsiyalashgan axborot-kommunikatsion muhitni o'z ichiga oladi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, axborotli yondashuv, ta'limni axborotlashtirish, fundamentallashtirish, uzluksizlashtirish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Uni ta'lim jarayoniga qo'llash, masofaviy ta'lim elementlaridan amaliyotda faol foydalanishga, ta'limming mazmuni va texnologiyalarini qaytadan ko'rib chiqishga olib keladi. Uzluksiz ta'limming nazariyasi va amaliyotining eng muhim ko'rsatkichlari sifatida: fanlararolik, tadqiqotlarning solishtirma xarakteri, ilmiy-pedagogik bilimlarning integratsiyasi, o'qi-

tishning tadqiqot faoliyati bilan birlashuvi, pedagoglarning tadqiqot faoliyatida yangi axborot texnologiyalarini qo'llashi kabilalar aniqlandi.



3-rasm. *Tajriba almashish uyushmasining funksional sxemasi*

Andragogik yondashuvning asosiy metodi bo'lib, ta'lim oluvchilar tajribasining tahvilidagi metod hisoblanadi – degan qoida tasdiqlandi. Bu metod, ta'lim oluvchilarga, ta'lim faoliyatining maxsus usullari va uslublari yordamida, o'zlarining shaxsiy tajribalarini samarali jalb qilgan holda, yangi ta'lim tajribasi sifatidagi yangi bilim yoki yangi ta'lim mazmunini egallash imkonini beradi.

#### Foydalananilgan adabiyotlar:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining asosidir”, – Т., 1997.
2. Ахрапов Ш.С. Педагогические основы формирования информационной и учебно-технической культуры будущих учителей в системе педагогического образования. Автореф. дисс... док. пед. наук. – Т., 1994. – С.39.
3. Беспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия). – М.: Изд-во Московского психолого-социального института; Воронеж: Издательство НПО “МОДЭК”, 2002. – С.352.
4. Винер Н. Кибернетика и общество. – М., 1958.
5. Маслоу А. Г. Мотивация и личность. – СПб.: Евразия, 1999. – С. 478.
6. Перегудов Ф.И. Системная деятельность и образование // Качество высшего образования. Хельсинки, 1990. – С. 76–77.
7. Рашидов Х.Ф. Теоретико-методологические и социально-педагогические основы развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане (на материалах реализации национальной программы по подготовке кадров). Дисс. ...докт. пед. наук. – Т., 2005. – С. 311.

**Kamoliddin MAMADALIYEV,**

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lmini rivojlantirish  
markazi mustaqil tadqiqotchisi

**Fayzulla BEKCHANOV,**

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti o'qituvchisi

## ELEKTRON O'QUV QO'LLANMALAR YARATISHNING ASOSIY VOSITALARI VA ULARGA QO'YILADIGAN UMUMIY TALABLAR

### Annotation

Ushbu maqolada elektron o'quv qo'llanmaning asosiy tamoyillari, kategoriyalari, turlari, xossalari, xususiyatlari, bosma darslikdan farqi, elektron o'quv qo'llanma tayyorlashga qo'yilgan umumiy talablar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Intellektual salohiyat, yangi avlod o'quv adabiyotlari, elektron o'quv qo'llanna, jamoaviy foydalanish, pedagogik talablar, psixologik talablar, texnik talablar.

В статье приведены сведения из электронных учебников, их основные принципы, категории, типы, свойства, отличие от печатных учебников, общие требования, предъявляемые к разработке электронных учебных пособий.

**Ключевые слова.** Интеллектуальный потенциал, литература нового поколения, электронные учебные пособия, общественное применение, педагогические требования, психологические требования, технические требования.

Article presents information on electronic textbooks, their basic principles, categories, types, properties, differences in printed textbooks, general requirements for developing electronic teaching aids.

**Key words.** Intellectual potential, new generation literature, e-learning aids, social applications, pedagogical requirements, psychological requirements, technical requirements.

Intellectual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi ko'p jihatdan o'quv adabiyotlarining sifati, mazmun-mohiyatiga bog'liq. Shu bois bugungi kunda o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish davr talabiga aylanib bormoqda.

Shu maqsadda ishlab chiqilgan "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun yangi avlod o'quv adabiyoti yaratish konsepsiysi"ning asosiy vazifasi sifatida o'quv adabiyotlarini yaratish uchun ilmiy-g'oyaviy, uslubiy-didaktik, psixologik-pedagogik, sanitariya-gigiyenik talablarni ishlab chiqish, elektron qo'llanmalardan to'g'ri va ratsional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllari va turlariga aniq ta'riflar berish hamda mamlakatimiz

---

miqyosida zamonaviy elektron qo'llanmalar tayyorlash bo'yicha strategik masalalar ko'lamini aniqlash belgilangan<sup>1</sup>.

Ushbu vazifalarning natijasi o'larоq elektron adabiyotlar yaratish hozirgi zamon talablaridan biriga aylandi. Elektron qo'llanmalar didaktikaning asosiy tamoyillarini ishonchli va yuqori darajada joriy qilish imkonini beruvchi, samarali o'qitish vosisati hisoblanadi. Elektron qo'llanmalarni yaratishda elektron texnologiyalarga tayangan holda quydagiilarni o'z ichiga oladi: animatsiya, ko'p darajali va ko'p variantli topshiriqlar, gipermatrlar va hokazo. Bular foydalanuvchilarning turli doiralari uchun elektron qo'llanmalar mazmuniy qismining adaptivligini ta'minlaydi. Elektron qo'llanmalarni yaratishda asosiy tamoyillarga amal qilish, ularga qo'yiladigan didaktik, texnik-texnologik, ergonomik, estetik va talablarga rиoya qilish tavsiya etiladi.

Elektron o'quv qo'llanma – muayyan o'quv modeli bo'yicha yaratilib, bu turdagи o'quv adabiyotini yaratishga qo'yilgan talablarga to'la javob bergan holda nashr mahsuloti sifatida chop qilinishi uchun rasman ruxsat etilgan holda qisman yoki to'laligicha elektron darslik o'mini bosadigan yoki qo'shimcha darslik bo'lgan elektron shakldagi o'quv manba sanaladi. O'quv qo'llanma oxirida xulosa, adabiyotlar va boshqa manbalar ro'yxati beriladi.

Bu turdagи o'quv qo'llanmaning har bir bobи yoki mavzusi bo'yicha o'quv maqsadlari keltirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin, o'quv maqsadlari ta'lif oluvchining ushbu mavzu bo'yicha egallashi lozim bilim, ko'nikma va malakalar tavsifini belgilaydi. Elektron o'quv qo'llanmaning asosiy o'quv materiali bob yoki mavzuning fanning asosiy mazmunini, dalillarni, hodisalarini, obyektlarni, texnologik jarayonlarni, ixtiolar va kashfiyotlarni, eksperimental tajribalarni va ularning bajarilishi bo'yicha amaliytajribaviy matnlarni, asosiy qonunlarni va qonuniyatlarni hamda ularning natijalarini, yetakchi g'oyalari va dolzarb yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Bu turdagи manbaning qo'shimcha matni asosiy matndagi hodisa, jarayon va obyektlarni o'rganish bo'yicha bayon qilingan o'quv materialini mustahkamlash va chuchurlashtirishga, amaliy ko'nikma va malakalarни rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv materialini o'z ichiga oladi. Tushuntirish xarakteridagi matnlariga darslikdagi kabi kirish so'zi, izohlar, ilovalar, tayanch iboralar, tushuntirishlar, lug'atlar kiradi. Bunda har bir mavzu bo'yicha matnlarning tushunarli, qisqa bo'lishi, tinglovchilarda aniq tu-shunchalarni to'laqonli shakllantirishga xizmat qilishi zarur.

Lekin hozirgi kunda elektron o'quv qo'llanmalarga nisbatan talablar tobora kuchayib bormoqda. Birgina O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutini oladigan bo'lsak, bu oliy ta'lif muassasasida ko'pgina fanlardan elektron o'quv qo'llanmalar yaratilmoqda. Bu fanlardan talabalar axborot resurs markazidan tashqari institut sayti (uz-djti.uz)dan ham olib foydalanmoqda. Masalan, hozirgi kunda institutda bakalavr yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarimiz "Informatika va axborot texnologiyalari", "Boks nazariyasi va uslubiyoti", "Sport metrologiyasi", "Sport inshootlari", "Futbol nazariyasi va uslubiyoti" va boshqa fanlardan elektron o'quv qo'llanmalardan keng foy-dalanilmоqda.

Ta'lifni isloh qilish jarayoni shunday elektron darslik yaratishni talab qiladiki, ularning mavjud bo'lishi o'quvchi-talabalar va o'qituvchilar uchun, auditoriya va uy sharoitida bir xil bo'lgan kompyuterli muhitni ta'minlashni taqozo etadi. Shuning uchun hozirda ayrim fanlardan zamon talabiga mos darsliklarni yaratish ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

---

<sup>1</sup> Uzluksiz ta'lif tizimi uchun yangi avlod o'quv adabiyoti yaratish konsepsiysi. – T.: Sharq, 2002.

Barcha oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayonini yuqori saviyada tashkil qilish uchun davlat ta’lim standartlari hamda xalqaro ta’lim standartlariga to’liq javob bera oladigan o’quv adabiyotlari bilan ta’minalash, o’quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan o’quv hamda elektron o’quv adabiyotlarni tahlil qilish dolzARB muammo hisoblanadi.

Shu o’rinda aytish joizki, elektron qo’llanmalarning farqli xususiyatlari va afzalliklari ta’limda elektron qo’llanmalar uchun yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Klassik tushunchada darslik – bu o’quvchilar uchun kitob bo’lib, unda bilimlarning ma’lum sohasidagi o’quv materiali fan va madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida tizimli bayon qilinadi<sup>2</sup>. Demak, elektron qo’llanma ham, bosma darslik ham umumiy belgilarga ega va aynan:

- o’quv materiali bilimlarning ma’lum sohasi bo'yicha bayon qilinadi;
- o’quv materiali fan, texnika, texnologiya va madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida yoritiladi;
- o’quv materiali darsliklarda tizimli bayon qilinadi, ya’ni darslikning butunligini ta’minlaydigan, ma’noli munosabat va aloqali, ko’plab elementlardan tashkil topgan va tugallangan asarni o’zida tasvirlaydi.

Bosma darsliklar mavjudligi tufayli ba’zi o’qituvchilar elektron qo’llanma atamasini ishlatalishni xush ko’rmaydi, degan fikrlar ham bor. Bu mualliflar “Elektron nashr” atamasini tavsiya qilishadi. Lekin “nashriyot” so’zi bosma mahsulotni ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Shuning uchun ma’lum tushunchalarni o’z ichiga oladigan yangi atamalarni ishlatalishni bilish kerak. Hayot o’zgarishi bilan texnologiyalar ham o’zgaradi. Barcha o’zgarishlarga tushunish bilan yondashish zarur.

Elektron qo’llanmaning bosma darslikdan farqli belgilari bizning nazarimizda, har bir bosma darslik o’quvchi-talabalarni tayyorlashning ma’lum boshlang’ich darajasiga mo’ljallangan va o’qitishning yakuniy darajasini tavsiflaydi.

Hozirda ko’plab umumta’lim fanlari bo'yicha odatdagি (tayanch), murakkabligi yuqori, maxsus va boshqa fanlar darsliklari mavjud. Aniq bir o’quv fani bo'yicha yaratilgan elektron qo’llanma murakkablikning bir necha darajasidagi materialni o’z tarkibida saqlashi mumkin. Bunda ular interfaol usullarda bilimlarni tekshirish uchun ko’p variantli topshiriqlarni o’z tarkibiga saqlagan bo’ladi.

Elektron qo’llanmada ko’rgazmalilik bosma darslikdagidan ko’ra yuqoriroq. Unda sinov topshiriqlari va testlarining ko’p variantliligi, ko’p darajaliligi va xilma-xilligi ta’milanadi. Elektron qo’llanma barcha topshiriq va testlarni interfaol va ta’lim beruvchiga tartibli berilishga imkoniyat yaratadi. Noaniq javob paytida tushuntirishlar va izohilar orqali aniq javob berishga erishiladi.

Elektron qo’llanmani yaratish va tarqatishda bosmaxona ishlari bajarilmaydi. Elektron qo’llanmalar o’zining tuzilishi bo'yicha ochiq tizim bo’lib hisoblanadi. Ularni ishlatalish jarayonida to’ldirish, takomillashtirish mumkin.

Elektron qo’llanmaning ta’lim oluvchilar bilan yaqinlashuvi bosma ko’rinishdagi darsliklardan ko’ra yuqoriroq. Unga talab oshganda adadini osongina oshirish va taromoq bo'yicha jo'natish mumkin.

Foydalanishda va ishlab chiqish maqsadlariga bog’liq ravishda ko’p funksiyaliligini ta’minalash uchun elektron qo’llanmalar turli xildagi tuzilmalarga ega bo’ladi. Masalan, darslarda foydalanish uchun aniq bir fan bo'yicha o’quv dasturiga mos keladigan elektron qo’llanmani yaratish va o’quv materialini mavjud mavzuviy rejalashtirish asosida

<sup>2</sup> Safarov G’.H. Elektron qo’llanma yaratish uslubiyoti. – Buxoro, 2012, 110-b.

---

berish mumkin. Elektron qo'llanmalarni mavzuviy rejalashtirishga bog'lamasdan, balki shunchaki aniq ta'lif bosqichi bo'yicha o'quv rejasiga rioya qilib, ishlab chiqiladi.

Shu maqsadlardan kelib chiqib, bizning fikrimizga ko'ra, elektron qo'llanmalar quyidagi xususiyatlarga ega:

- o'rganilayotgan materialni an'anaviy o'quv adabiyotlariga nisbatan induktiv yondashish, eshitish va emotsiyal xotiralarga ta'sir qilish yo'llari bilan materialni yetka-zish orqali tushunishni yengillashtish;

- talabalarning ehtiyojiga, tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga moslashtirish;

- o'quv predmetining mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko'p sondagi ma'lumotlarni va topshiriqlarni qarab chiqish va ko'proq amaliy masalalar yechishga imkon holda murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xalos etish;

- o'rganishning barcha bosqichlarida o'zini-o'zi tekshirib ko'rish uchun keng imkoniyatlar yaratish;

- ishni chiroyli va aniq rasmiylashtirishlarga va uni o'qituvchiga fayl yoki qog'ozga chop etgan holda topshirishiga imkon berish;

- tajribali o'qituvchi vazifasini cheklanmagan tushuntirishlarni, sanoqsiz takror-lashlarni, eslatishlarni taqdim etgan holda bajarish.

O'z ornida elektron qo'llanma ixtisoslashgan o'quv xonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi qulay imkoniyatlarni yaratadi:

- katta miqdordagi topshiriqlarni bajarish, yechimlarni va ularning grafik talqinini tahlil qilish uchun ziar bo'lgan vaqtidan ozod etilishi;

- o'qituvchining rahbarlik va maslahatchi sifatida qatnashib, kompyuter orqali mustaqil ish shaklida mashg'ulot o'tkazish imkonini berishi;

- o'qituvchiga kompyuter yordamida o'quvchi-talabalar bilimini tez va samarali nazoratdan o'tkazishga imkon berishi;

- o'quvchi-talabalarning auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari o'rganish mumkin bo'lgan masalalarni yechishda mustaqil shug'ullanishlari uchun imkon yaratilishi;

- uy topshiriqlarini, turli hisoblashlarni va nazorat ishlarni tekshirish kabi mashaqqatli ishlardan o'qituvchini ozod etish;

- o'quvchi-talabalar bilan, ayniqsa, uy topshiriqlari va nazorat ishlari qismiga oid ishslashni individualashtirishga imkon berish.

Elektron qo'llanmalarning asosiy xossalari quyidagi asoslarga ega bo'lishi kerak:

- o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazilishini ta'minlash;

- o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini yaratish;

- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'zaro yaqinlashtirish;

- axborotli-ta'lif resurslarining rivojlanish bosqichiga erishish;

- matnli va boshqa axborotli materiallar yangilangan (gipermatnlar) va illyustratsiyalangan (multimedia vositalari, rasmlar, jadvallar, diagrammalar va boshqalar) bo'lishi va h.k.

Elektron qo'llanma ta'lif jarayoniga odatdag'i darslikdan o'zgacha, inson miyasi imkoniyatlarini, xususan, eshitish va emotsiyal xotirasini jalb qilib, shuningdek, kompyuter samaradorligidan foydalanib tushunishni, mavjud tushunchalar va misol-larni eslab qolishni maksimal darajada yengillashtirishi kerak.

#### ***Elektron qo'llanmalarning quyidagi turlari mavjud:***

1. Jamoaviy va individual foydalanish.

Jamoaviy foydalanish – elektron qo'llanmalar kompyuterning katta tizimli resurslari talab qilmasligi kerak, chunki ular ko'pincha serverlarda o'rnataladi va ularga kom-

pyuter tarmogi orqali yaqinlashish imkonи beriladi. Individual foydalanishdagи elektron qo’llanmalar o’quv materialini o’quvchi-talaba ishtirokida yoki ishtirokisiz o’rganish uchun mo’ljallangan. Foydalanish bo'yicha elektron qo'llanmalarning ushbu ikkala turidан ham ma'ruza mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

2. O’quv materiallarini yetkazib berish bo'yicha: bunday turdagи elektron qo'llanmalar bir bo'lim o’quv materialini o’zlashtirmay turib, navbatdagи bo'limga o'tishga yo'l qo'ymaydi.

3. O’quv axborotlari va materiallarining yangilanishi bo'yicha: uzluksiz yangilanish va davriy yangilanish turlariga ajratiladi. Uzluksiz yangilanishli elektron qo'llanmalar asosan elektron o’quv bazalarida (portallar, veb-saytlar va boshqalar) yoki elektron kutubxonalarda joylashtiriladi. Davriy yangilanishdagи elektron qo'llanmalar asosan turli xildagi axborotning elektron tashuvchilarini tasvirlaydi (disketlar, SD-disklar va boshqalar).

Elektron qo'llanmalarning kategoriyalari bo'yicha sinflanishi quyidagi talablar majmuasiga asoslangan:

- pedagogik talablar;
- psixologik talablar;
- texnik talablar.

Elektron qo'llanmalarning kategoriyalari – “\*\*” (yulduzcha) bilan belgilanadi. Yulduzchalar soni elektron qo'llanmalarning sifati va murakkabligi darajasining oshishi bilan mos ravishda ko'payadi. Elektron qo'llanmalar to'rtta kategoriyalari bo'yicha sinflanadi. Oliy kategoriadagi elektron qo'llanmalar to'rtta yulduzcha bilan (“\*\*\*\*”), past kategoriadagi elektron qo'llanmalar bitta yulduzcha bilan (“\*”) belgilanadi.

Elektron qo'llanmalarni yaratishda quyidagi tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi:

1. **Kvantlash tamoyili:** hajmi bo'yicha kichik, ammo tarkibi bo'yicha bir butun bo'lgan bo'limlardan (modullardan) iborat bo'lgan materialni bo'laklarga bo'lib chiqish lozim.

2. **To'liqlik tamoyili:** har bir yaratilayotgan bo'lim (modul) quyidagi tashkil etuvchi hadlardan: nazariy qismidan, nazariy bilimlarni tekshirish bo'yicha tuzilgan nazorat savollari, testlar, mustaqil yechish uchun topshiriq va amaliy ko'nikmalarni o'rganishga yo'naltirilgan mashqlardan va tarixiy sharxlardan iborat bo'lishi kerak.

3. **Ko'rgazmalilik tamoyili:** har bir bo'limda (modulda) yangi tushunchalar, fikrlar va uslublarni tushunarli va eslab qolishni yengillashtiruvchi matnlar hajmi hamda o'lchamlari kichik bo'lgan kadrlarning ketma-ketligidan iborat bo'lishi kerak.

4. **Tarmoqlanish tamoyili:** har bir bo'limlardan (modullardan) gipermatnli xavolalar orqali boshqa bo'limlarni shunday o'zaro bog'lash kerakki, unda foydalanuvchi istalgan boshqa bo'limlarga bermalol o'tishni tanlash imkoniyati mavjud bo'lsin. Tarmoqlanish tamoyili o'rganilayotgan o’quv predmeti materiallarini cheklamaydi, balki fanni birin-ketin, bosqichma-bosqich o’zlashtirib borishni ko'zda tutadi.

5. **Boshqaruvchanlik tamoyili:** o'quvchilar ekran kadrlarining almashuvini o'zları mustaqil boshqara olishlari, istalgan mavzu yoki ma'lumotlarni, tushunchalar va fikrlar, illyustratsiya materiallari va multimedialarni ekranga chiqarish imkoniga ega bo'lishi kerak. O'quvchilarga o'zlarining bilimini nazorat savollari va testlarga javob berib va amaliy mashg'ulotlarni bajargan holda tekshirib ko'rishi kabi imkoniyatlар yaratilgan bo'ladi.

6. **Ko'nikuvchanlik tamoyili:** elektron qo'llanma o’quv jarayonida foydalanuvchining ehtiyojlariiga ko'nikib borishini ta'minlashi, o'rganilayotgan materialning

---

chuqurligi va murakkabligini va uni o'quvchining kelgusi mutaxassisligiga bog'liq hol-da amaliy yo'naltirilganligini o'zgartirib borishga imkon berishi kerak. Foydalanuvchi-lar o'z ehtiyojlariغا ko'ra qo'shimcha illyustrativ materiallarni yuzaga keltira olishlari, o'rganilayotgan tushunchalarni grafik va geometrik jihatdan talqin qila olishi lozim.

7. **Kompyuterli qo'llab-quvvatlash tamoyili:** bu tamoyilda o'quvchilar o'rganish jarayonining istalgan paytida o'quv materialining mohiyatiga diqqatni jalb etishga undovchi topshiriq va masalalarni qarab chiqish hamda ularni bajarishda kompyuterdan foydalanishlari kerak. Kompyuter nafaqat murakkab almashtirish amallarini, turli xil hisoblashlarni va grafiklarni tuzib chiqish, rasm va sxemalarni chizish, balki turli xil murakkab darajadagi amallarni bajarishi lozim. Oldindan o'rganilgan hamda olingan natijalarni nafaqat javob berish bosqichida, balki ixtiyoriy bosqichlarda ham tekshirib ko'rish lozim.

8. **Yig'iluvchanlik tamoyili:** elektron qo'llanma yangi bo'limlar va mavzular, fan-tennika yangiliklari bilan kengaytirib va to'ldirib borishga imkon berishi hamda maxsus va alohida fanlar bo'yicha elektron kutubxonalarini yoki o'quvchilar (u o'qiyotgan mutaxassislik va kursga mos holda), o'qituvchilarning yoki tadqiqotchilarning xususiy elektron kutubxonalarini shakllantirishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, natija shuni ko'rsatadi ki, dars jarayonida o'quvchi-talaba diqqat-markazida bo'lган (interfaol yoki interaktiv) uslublar qo'llanilganda ularning faol ishtirok etishi ta'minlanadi.

Xulosa o'rnida o'quvchi-talaba diqqat markazida bo'lган yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'lishini ta'kidlash mumkin:

- o'quvchi-talabani yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- o'quv jarayonini o'quvchi-talabaning ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- o'quvchi-talabaning tashabbuskorligi va mas'uliyatini qo'llab-quvvatlanishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi;
- o'qishni sog'lom muhitda saqlab qolinishi;
- o'qituvchining yengillik yaratib beruvchi shaxsga aylanishi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Uzluksiz ta'lif tizimi uchun yangi avlod o'quv adabiyoti yaratish konsepsiysi.*  
– T.: Sharq, 2002.
2. *Safarov G'. H. Elektron qo'llanma yaratish uslubiyoti.* – Buxoro, 2012, 110-b.
3. *Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lif resurslarini yaratish metodikasi.*  
Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: F.Zakirova va boshq. – T.: OO'MTV, 2010. 57-b.
4. *Muslimov N. va boshqalar. Web texnologiya asosida elektron axborot ta'lif resurslarini yaratish va ularni amaliyatga joriy etish.* – T., 2015.

---

**Tahririyat:** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan bugungi davrda ta'lif jarayoniga elektron qo'llanmalar, darsliklarni joriy etish, albatta, juda o'rinli. Bu ta'lif sifatini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Muallifning elektron qo'llanmalar yaratishga oid talablari va tavsiyalari inobatga olinsa, elektron qo'llanmalarning sifati, mazmun-mohiyati yanada ortadi.

Mirmuxsin AKRAMOV,  
Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

## O'QUVCHI TASAVVURINI KENGAYTIRISHDA PSIXOLOGIK FENOMENNING AHAMIYATI

### Annotation

Maqolada insonning psixik rivojlanishida ekologik ongning roli hamda ekologik tasavvurlarning psixologik fenomeni ochib berilgan. Shuningdek, tasavvurlarning signal funksiyasi, idora qilish bilan bog'liq bo'lgan funksiyasi, perceptiv tajriba negizidagi roliga katta e'tibor qaratilganligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Ma'nnaviy ekologiya, ekologik ong, tasavvur, idrok, tafakkur jarayonlari, sхемалаштирish, fenomen.

В статье освещаются вопросы о роли экологического сознания в психическом развитии человека. Автором раскрыто психологический феномен экологических представлений. Также уделено большое внимание сигнальной, контрольной функции и перцептивному опыту представлений.

**Ключевые слова.** Духовная экология, экологическое сознание, представление, восприятие, процесс, мышления, схематизация, феномен.

Article highlights the role of environmental consciousness in the mental development of man and also revealed the psychological phenomenon of ecological representations. In the article has paid attention to the signal, control function and perceptual experience of representations.

**Key words.** Spiritual ecology, ecological consciousness, representation, perception, thinking processes, schematization, phenomenon.

Bugungi kunda odamlar ehtiyojlarini hayotga zarar yetkazmaydigan, normal sharoitlarda qondirish masalalari o'ta dolzarb bo'lib turibdi. Bularga nafaqat oziq-ovqat, suv, havo, uy-joy ta'minotiga bo'lgan ehtiyojlar, balki ma'nnaviy-axloqiy iqlim mo'tadilligini saqlash ham kiradi. Tabiiy ekologiyaga loqayd munosabat tana ekologiyasining buzilishiga olib keladi. Psixik, ma'nnaviy ekologiya talablari va qonunlarini inkor etish axloqiy, madaniy, pirovardda intellektual tanazzulni keltirib chiqarishi mumkin. Ayni zamonda odamlar ongi ekologizatsiyasi, ekologik madaniyatni shakllantirish va har tomonlama kamol topgan shaxsni voyaga yetkazish muammolari markaziy muammolardan biri bo'lib turibdi.

Ekologik ongni o'rganar ekanmiz, ong olam to'g'risidagi tasavvurlar yig'indisi ekanini e'tibordan chiqarmasligimiz lozim. Demak, dastlab tasavvurlarning psixologik mohiyatini yoritib berish darkor. Tevarak-atrof, bizni qurshab turgan ham moddiy, ham ma'nnaviy olam xususidagi ma'lumotlarni sezgi va idrok yordamida olamiz. Qo'zg'atuvchilar ta'sirining yo'qolishi sezgi a'zolarimizda vujudga kelgan qo'zg'alish izsiz yo'qoldi

---

degani emas. Taassurotdan keyin o'ziga xos izchil obrazlar paydo bo'lib, ular ma'lum vaqt mobaynida saqlanib qoladi. Undan muhimrog'i shuki, biron-bir predmet, voqeа va hodisani idrok etgandan ancha vaqt o'tgandan keyin ham mazkur predmet, voqeа va hodisaning obrazini xoh ixtiyoriy, xoh ihtiyyorsiz ravishda qayta tiklash mumkin bo'lib, ushbu hodisa "tasavvur" deb ataladi.

Tasavvur – bu ayni damda idrok etilmayotgan, biroq o'tmish tajribadan kelib chiqqan holda obrazi qayta tiklanayotgan predmetlar yoki hodisalarni aks ettiruvchi psixik jarayondir.

Tasavvurlar o'zidan-o'zi hosil bo'lmaydi, ular amaliy faoliyatimiz natijasidir. Tasavvurlar nafaqat xotira jarayoni uchun, balki kishining bilish faoliyatini ta'minlovchi barcha psixik jarayonlar uchun ham o'ta muhimdir. Idrok, tafakkur jarayonlari, yozma nutq ma'lumotlarni saqlovchi va shuning negizida tasavvurlarni hosil qiluvchi xotira singari hamisha tasavvur bilan bog'liqidir.

Tasavvurlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Birinchi navbatda, ularning ko'r-gazmaliligini ayтиб o'tish mumkin. Tasavvurlar – vogelikning hissiy-ko'rgazmali obrazlaridir, ularning idrok obrazlariga yaqinligi shunda namoyon bo'ladi. Biroq perseptiv obrazlar ayni damda idrok etilayotgan moddiy olam obyektlarining aksi bo'lsa, tasavvurlar – bu o'tmishda idrok etilgan obyektlarning qayta ishlanib, tiklangan obrazlaridir.

Tasavvurlarning keyingi xususiyati ularning fragmentarligidir (uzuq-yuluqligi). Tasavvurlarning ayrim qismlari yaqqol, ayrim qismlari xira namoyon bo'lsa, boshqa qismalari umuman mavjud bo'lmasligi mumkin.

Beqarorlik tasavvurlarning yana bir muhim jihatidir. Tasavvurlar juda o'zgaruvchan bo'lib, qayta tiklanayotgan obrazning goh u jihatni, goh bu jihatni birinchi o'ringa chiqaveradi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, tasavvurlar vogelikning shunchaki yaqqol namoyon bo'lishi emas, balki ma'lum ma'noda umumlashma obrazlaridir. Ushbu jihatni bilan ular tushunchalarga yaqindir. Umumlashtirish qator o'xshash predmetlarga taalluqli tasavvurlardagina bo'lmaydi, u aniq predmet va hodisalarda ham mavjud. Bizga tanish har bir predmet yoki hodisani bir martagina kuzatilmaydi, har safar mazkur predmet yoki hodisaning yangi obrazi shakllanadi. Biroq uni ongimizda tiklashga urinar ekanmiz, paydo bo'lgan obraz hamisha umumlashma xarakterga ega bo'ladi.

Tasavvurlar doimo idrok etilgan alohida obrazlarning umumlashgan hosilasi bo'la-di. Tasavvurlarda mujassamlashgan umumlashish darajasi turlicha bo'lishi mumkin.

Tasavvur boshqa psixik jarayonlar singari kishi xulq-atvorini psixik idora qilishda qator vazifalarni bajaradi. Ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan tasavvurlarning uch asosiy funksiyalari farqlanadi: signal, idora qilish va tayyorlash.

Signal funksiyasining mohiyati har bir aniq vaziyatda nafaqat ilgari sezgi organlari-mizga ta'sir ko'rsatgan predmet va hodisaning obrazi, balki ushbu predmet yoki hodisaga daxldor xulq atvorni boshqarayotgan aniq ta'sirlar xususidagi turfa ma'lumotlarni aks ettirishda o'z ifodasini topadi.

Tasavvurlarning idora qilish bilan bog'liq funksiyasi ularning signal funksiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ilgari sezgi a'zolarimizga ta'sir etgan predmet yoki hodisa to'g'risida zarur ma'lumotlarni saralab olishda namoyon bo'ladi. Ushbu saralash jarayoni mavhum bo'lmay, istiqboldagi faoliyatning real shart-sharoitlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Tasavvurlarning navbatdagi funksiyasi kishi faoliyatini tevarak-muhit ta'sirlari ko'ri-nishini inobatga olgan holda yo'naltirishda ifodasini topadi. I.P.Pavlov, ixtiyoriy harakat-

larning fiziologik mexanizmlarini o'rganar ekan, paydo bo'lgan harakatlanayotgan obraz unga xos harakatlar bajarilishini ta'minlovchi xatti-harakat apparatining harakatga tayyorligini kuchaytirishini aniqlagan. Tasavvurlarning tayyorlovchi funksiyasi faoliyatimiz algoritmini shakllanishiga yordam beradigan ma'lum darajadagi harakatga doir tasavvurlarning ta'sir etish samarasini ta'minlaydi.

Tasavvurlar negizida o'tmish perzeptiv tajriba yotar ekan, tasavvurlarning tasnifi sezgi va idrok tasniflariga tayangan holda yaratilishi mumkin.

Shunga ko'ra tasavvurlarning ko'rish, eshitish, harakatlari (kinestetik), tuyish, hid va ta'm bilish bilan bog'liq, haroratni o'lchashga doir hamda organik ko'rinishlari mavjud.

Tasavvurlar tasniflarini quyidagi alomatlarga ko'ra amalga oshirish mumkin:

- 1) mazmuniga binoan (matematik, geografik, texnik, musiqiy va h.k);
- 2) umumlashish darajasiga ko'ra (umumiyligiga xususiy tasavvurlar).

Bundan tashqari tasavvurlarning tasnifini irodaviy urinishlar darajasiga ko'ra ham amalga oshirish mumkin.

Tasavvurlar umumlashish darajasiga ko'ra tasniflanganda: xususiy va umumiyliga farqlanishi e'tirof qilingan edi. Aynan ushbu jihat tasavvur obrazlarini idrok obrazlaridan ajratib olish imkonini beradi: idrok obrazlari doimo o'tkinchi bo'lib, faqat aniq predmet to'g'risidagi ma'lumotlarni beradi. O'tkinchi tasavvurlar – bir predmetni kuzatishga asoslangan tasavvurlardir. Umumiyligiga xususiy tasavvurlar deb esa, qator o'xshash predmetlar xususiyatlарини umumlashtirib ifoda etuvchi tasavvurlarga aytildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, irodaviy zo'riqishga ko'ra farqlanadigan tasavvurlar ixtiyor yoki g'ayriixtiyor bo'ladi. G'ayriixtiyor tasavvurlar deb kishi irodasi va xotirasini faollashtirmasdan, o'z-o'zidan vujudga keladigan tasavvurlarga aytilsa, ixtiyor tasavvurlarga esa qo'yilgan maqsadlar ortidagi manfaatlarni ko'zlab kishining irodaviy zo'riqishi natijasida paydo bo'ladigan tasavvurlarga aytildi.

Barcha insonlar bu ko'rinishdagi tasavvurlarning ular hayotida tutgan o'rni va ustuvorligiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Kishilar o'rtasida tasavvurlar sifatiy farqlarining mavjudligi "tasavvurlar tiplari" to'g'risidagi ta'lilotlarda o'z aksini topgan. Ushbu nazarliyaga ko'ra odamlar ulardagi tasavvurlar ustuvorligiga ko'ra bir necha toifalarga bo'linishi mumkin.

Bu ko'rinishdagi tasavvurlar yaqqol ifodasini topgan odamlar nihoyatda kam uchrashini e'tirof etish lozim. Aksariyat odamlarda tasavvurlarning turli tiplari ma'lum darajada mavjud bo'lib, qay biri yetakchilik qilishini aniqlash mushkuldir. Individual farqlar nafaqat tasavvurlarning muayyan ko'rinishlarining ustuvorligida, balki tasavvurlar xususiyatlarda ham o'z ifodasini topishi mumkin.

Tasavvurlar shakllanishining asosiy sharti – perzeptiv ma'lumotlarning ko'pligi. Mazkur ta'kidning mohiyati shundaki, tasavvurlar ko'p jihatdan idrokning odatiy usuliga bog'liqligidadir, shuning uchun ham aniq masalalarni yechishda ularni inobatga olish zaruriyati bor.

Tasavvurlar shakllanishining muhim bosqichi – tasavvurlarning g'ayriixtiyoriy vujudga kelishidan zarur tasavvurlarni ixtiyor yug'ota olish malakalarini o'zlashtirilishi hisoblanadi. Faqat shu narsani esda tutish kerakki, har qanday tasavvur o'zida umumlashganlik elementini mujassam etadi, tasavvurlarni shakllantirish esa umumlashtirish elementlarini ko'paytirish yo'li orqali borishi kerak. Tasavvurlarning umumlashtiruvchi mazmunini ortishi ikki yo'nalishda olib borilishi mumkin:

1. Sxemalashtirish. Sxemalashtirish natijasida tasavvurlar ma'lum bir andozaga yaqinlashib borar ekan, qator individual xususiyatlарини yo'qotadi.

---

2. Tipik obrazlarni rivojlantirish yo‘li. Bunday paytda tasavvurlar o‘z individualligini yo‘qotmagan holda aniqlashtirib yaqqollashib boradi hamda butun bir predmetlar va hodisalar guruhini ifodalay boshlaydi.

Inson muttasil tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatlarga kirishadi. Har lahzada sezgi a’zolarimizga o‘nlab va yuzlab turfa stimullar ta’sir ko‘rsatib, ularning aksariyati kishi xotirasida uzoq muddatga muhrilanadi. Ushbu fenomenning qiziqarli jihat shundaki, o‘tmish tajriba orqali olingan real olam predmet va hodisalarining taassurotlari nafaqat uzoq muddatga xotirada muhrilanib qoladi, balki muayyan qayta ishlashga duchor bo‘lishidir. Mazkur fenomenning mavjudligi odamlarga atrof muhitga ta’sir ko‘rsatish orqali maqsadga muvofiq ravishda uni o‘zgartirish imkoniyatini ham ohib berdi.

Hayvonot olamining tashqi muhitga ta’siri bilan odamzotning tashqi olamga ta’siri o‘rtasida keskin tafovutlar borligini ham e’tirof etish lozim. Hayvonlardan farqli o‘laroq odam muhitga o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga muvofiq ravishda rejali ta’sir ko‘rsatadi. Mehnat jarayonidagi vogelikni o‘zgartirishning bunday usuli odam o‘z faoliyati davomida nima olmoqchi ekanini ongli holda oldindan tasavvur qilish lozimligini, har qanday mehnat bunday loyihaning ishlab chiqilishini, undan keyingina uni amaliyotga tatbiq qilinishini taqozo qiladi.

Demak, tasavvurlar nafaqat kishi organizmining reguliyativ jarayonlarida, balki uning motivlashgan xulq-atvorini idora qilishda ham muhim o‘ringa ega, degan xulosani berish mumkin.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Botirov B.M., “O‘zbek mentalligining psixologik xususiyatlari” monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2011. 90-b.
2. Гамезо, М.В., Домашенко И.А. Атлас по психологии: информ. метод. материалы к курсу “Общая психология”; учеб. пособие для студентов пед. институтов / М. В. Гамезо, И. А. Домашенко; – М.: Просвещение, 1986, – С. 272.
3. Маклаков, А.Г. Общая психология: учебник для вузов /А.Г.Маклаков. – СПб.; Питер, 2001. – С. 583. – (Серия “Учебник нового века”).
4. Немов, Р.С. Психология: Учеб. для студентов высш. пед. учеб. заведений в трех книгах/Р.С.Немов.. - 2-е изд. – М. Просвещение: Владос, 1995. Книга 1. – С. 576.
5. Общая психология: учеб. для студентов пед. ин-тов / А. В. Петровский, А.В. Брушилинский, В.П. Зинченко и др.; Под ред. А. В. Петровского, - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Просвещение, 1986, – С. 464.
6. Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии / С.Л.Рубинштейн. - СПб.; Питер, 2007. – С. 713 – (Серия “Мастера психологии”).

Xilolaxon TOJIBOYEVA,  
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI katta ilmiy xodimi

## O'QUVCHI-YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH JARAYONINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MOHIYATI

### Annotations

Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayonining pedagogik-psixologik mohiyati olib berilgan bo'lib, unda o'quvchi-yoshlar bilan olib boriladigan ta'lif-tarbiya ishlaring muvaffaqiyati, ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini bilish hamda o'quvchi-yoshlarda ijtimoiy faollikni tarbiyalashga ta'sir etadigan salbiy omillar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** O'quvchi-yoshlar, ijtimoiy faollik, yoshlar siyosati, ta'lif muassasalari, o'smirlilik, psixologik xususiyatlar.

В данной статье раскрывается психолого-педагогическая сущность процесса повышения социальной активности учащейся молодежи. В ней анализируются мысли о взаимосвязи эффективности текущих учебно-воспитательных работ с учащейся молодежью, с знаниями их возрастных и психологических особенностей, а также о негативных факторах, влияющих на воспитание социальной активности у учащейся молодежи.

**Ключевые слова.** Учащейся молодежь, социальная активность, молодежная политика, образовательные учреждения, подростковый возраст, психологические особенности.

Article reveals the psychological and pedagogical essence of the process of increasing the social activity of students. It analyzes the thoughts about the interconnectedness of the effectiveness of ongoing teaching and educational work with students, with knowledge of their age and psychological characteristics, as well as the negative factors that affect the education of social activity among students-young people.

**Key words.** Student youth, social activity, youth policy, educational institutions, adolescence, psychological features.

**R**еспубликамизнинг ijtimoiy hayotida islohotlarning davomiyligini ta'minlash hamda demokratik fuqarolik jamiyatni shakllantirish yoshlarimizga, xususan, ularning ijtimoiy faolligiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonunda quyidagilar belgilangan: ochiqlik va shaffoflik; yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yoga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi; yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi; yoshlarning kansitilishiga yo'l qo'yilmasligi kabilalar<sup>1</sup>.

O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligi o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki munta-zam tarzda maqsadli ravishda olib berilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantirila-

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonuni. 2016-yil.

---

di. O'quvchi-yoshlarga nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o'ziga xos mazmunga ega ekanligi bilan dolzarblik kasb etadi. O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy faoliyotni tarbiyalashga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishda ta'lif muassasalarining o'rni alohida, ya'ni maktabgacha ta'lif muassasalari, umumiy o'rtalim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ta'lif oluvchi o'quvchi-yoshlarda ijtimoiy faoliyot sifatlari tarbiyalanadi. Zero, "Ta'lif – imkoniyatlar tengligini ta'minlaydigan bu-yuk mezon. U jamiyat aql-zakovatining yuksalishi, raqobatbardoshlikning kuchayishi va yutuqlar ko'payishining muhim omili vazifasini o'taydi"<sup>2</sup>.

O'quvchi-yoshlar bilan olib boriladigan ta'lif-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat buriish hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. U psixik jarayonlarning, o'quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlik yoshi o'zaro munosabat shakllari-da, faoliyatni tashkil qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi. O'smirlarga ta'lif-tarbiya berishda goho uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagagi bolalarning psixik rivojlanishi qonuniyatlarini va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor qilish natijasida paydo bo'ladi. Bu davr ijtimoiy faoliyotni tarbiyalash uchun ancha qo'l keladi. Chunki bolaning katta odamga aylanish jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Natijada, undan kattalarning fikrlariga qarshi chiqish yoki rad etish kabi xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Bular esa, bu davrning "qiyin", "murakkab" davr bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'smirlarga ta'lif-tarbiya berishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, bunda o'smir bilan bo'ladigan munosabatlarda uning hayoti va faoliyatini nazorat qilish shakllarini o'zgartirish muhimdir. Ularga ta'sir qilishning qandaydir yangi usullari va vositalarini to-pish lozim bo'ladi. Bunda albatta, har bir o'quvchi-yoshlar bilan alohida munosabatda bo'lish maqsadga muvofiqdir.

O'smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar ularning faoliyatlarida tug'dirgan yangi ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir. Bu qarama-qarshiliklar o'smirlarning ortib borayotgan jismoniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari bilan ularning eski, ilgari tarkib topgan olam bilan o'zaro munosabat shakllari, ular faoliyatining eski qarama-qarshiliklar, jamiyat, kattalar va jamoa tomonidan o'smirga nisbatan ortib borayotgan talablar o'smirlar real xatti-harakatlarning shakllari o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. Bu ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotni, murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsnинг qator yangi psixologik sifatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Buning natijasida o'smirning psixik taraqqiyoti yanada yuksakroq bosqichga o'tishi amalga oshiriladi.

Shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar ijtimoiy faoliyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklar, irodaning bo'shligi, aql-idrokning zaif rivojlangani, hissiyotning kuchsizligi zarur ehtiyoj va

<sup>2</sup> Karuxiko Kuroda. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti: Xalqaro konferensiya materiallari. – T.: O'zbekiston, 2012. 184-b.

qiziqishlarning mayjud emasligi, o’smirning intilishi bilan mayjud imkoniyati o’rtasidagi nomutanosiblik kabi xatti-harakatlarni izdan chiqaradi.

O’quvchi-yoshlarda ijtimoiy faoliyekni tarbiyalashga ta’sir etadigan salbiy omillar: axloqiy hislarning yetishmasligi; o’qituvchi, sinf jamoasi, oila a’zolari bilan noto’g’ri muloqot; ishyoqmaslik; bo’sh vaqtini to’g’ri taqsimlamaslik va boshqa salbiy holatlarni vujudga keltiradi.

Shuningdek, shaxsning o’quv faoliyatidagi kamchiliklari: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik; bilim, ko’nikma va malakalarni egallashdagi uзilishlari; maktab faoliyatidagi: o’qitishdagi nuqsonlar va tarbiyaviy chora-tadbirlardagi xatolar ham shular jumlamasiga kiradi.

Maktabdan tashqaridagi muhit ta’siridagi nuqsonlar, chunonchi oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka berilishi, balog’atga yetmagan tengqurlarining ta’siri, ma’naviy-ma’rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar tarbiyasi qiyin o’smirlar ko’payishiga sabab bo’ladi.

O’quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligi ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirok darajasiga bog’liq bo’lib, shaxsning ijtimoiy borliqqa munosabatini belgilaydi. O’quvchi shaxsining ijtimoiy faolligi quyidagi ikki jihatdan muhim ahamiyatga ega: birinchidan, shaxsning jamiyatda o’z o’rnini topishi uchun zamin yaratadi, ikkinchidan esa, uning bilimi, kuch-quvvati, imkoniyati hamda iqtidori jamiyat rivoji yo’lida mehnat qilishga yo’naltiriladi. O’quvchi-yoshlar ijtimoiy faolliklari ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanadi va shaxs umumiylarni ko’rsatkichi sifatida namoyon bo’ladi.

O’quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllanganlik darajasi quyidagi mezonlar asosida belgilanadi:

- dunyoqarashni boyituvchi va ijtimoiy munosabatlarga oid bilimlarga ega bo’lish;
- ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ishtirok etish;
- ta’lim mazmunini o’zlashtirgan va ulardan amaliy faoliyatda qo’llash borasida yetarli ko’nikma, malakaga ega bo’lish;
- muammoli vaziyatlardan chiqib keta olish va uni baholay olish;
- o’quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligi darajasini aks ettiruvchi shaxsiy sifatlarini namoyon etish (onglilik, g’oyaviylik, qat’iyatlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, insonparvarlik, ishchanlik, tezkorlik, erkin fikr yuritish, ijodkorlik, mas’uliyatni his etish kabi xislatlar);
- ma’lum nuqtayi nazarda tura olish va boshqalar.

Ijtimoiy faoliyk mezonlari intizom talablarini va ularning ahamiyati, mazmunini ochib beradi. Ijtimoiy faoliyekni samarali tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tartibga rioya qilish bo’lib, u nafaqat organizmning fiziologik funksiyalariga ijobji ta’sir ko’rsatadi, balki intizom talablarini bajarish malaka va ko’nikmalarning shakllanishiga ham yordam beradi.

Shuningdek, o’quvchi-yoshlarda ijtimoiy faoliyekni oshirishda darsdagagi axloqiy psixologik muhit ham ahamiyatga ega. Darsning psixologik muhiti yoki mikroiqli-mi – bu o’quvchi va o’qituvchining hissiy emotsiional holatidir. Dars vaqtida o’quvchi va o’qituvchi o’rtasidagi muloqotda xursandchilik, o’quvchilar orasida esa, tetiklik va o’ziga ishonchilik, hamfikrlilik hukm sursa, bu holatni ijobjiy deyish mumkin. Darsning “sog’lom” mikroiqlimi yana shundaki, o’quvchilarda xavotir va o’qituvchi oldidagi qo’rquv mavjud bo’lmay, ular o’zlariga ishonch hissini, o’qituvchi va sinfdoshlari tomonidan qo’llab-quvvatlanishini doimo sezadi, shu bilan birga o’qituvchining o’quvchilariga talabchanligi ham sog’lom muhitdan dalolat beradi. Darsdagagi nosog’lom muhit esa,

---

pessimistik kayfiyat, xavotir, zerikish holatlarini keltirib chiqaradi, bu vaziyat o'quvchilarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ular o'z-o'zidan intizomning buzilishiga olib keladi. Pozitiv mikroiqlim sharoitida o'quvchilar darsda nafaqat mavzuni o'zlashtirish uchun samarali mehnat qiladi, balki namunali xulq bilan ham ajralib turadi va kamroq charchaydi, faolliklari yuqori bo'ladi.

Maktab intizomi o'z ichiga o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan intizom qoidalari ning butun bir tizimini, ularning o'quv va mehnat faoliyatlarini tashkil etish qoidalari qamrab oladi va ularning bajarilishi ongli ravishda amalga oshirilishi lozim. O'quvchilarning ongli intizomi mohiyati xulq-atvor qoidalari va maktabda o'rnatilgan tartibga bo'y sunishdan iborat. Bu tartibga bo'y sunish zarurligini anglash o'quvchida barqaror intizomni shakllantiradi va u ijtimoiy faol shaxs sifatiga aylanadi.

Ijtimoiy faollik masalasi barkamollik mezoni sifatida o'quvchilarda asta-sekin yetilib, uning dunyoqarashi, maqsad sari intilishi va irodasi, xulq-atvor ko'nikmalari va odatlari, tashabbuskorligi va mustaqilligi, prinsipialligining shakllanishi va faoliyatda, munosabatlar va muloqot jarayonidagi kamchiliklarga nisbatan murosasiz ekanligida namoyon bo'ladi. Bu sifat ongning bir elementi sifatida bola shaxsi tomonidan erishilgan muvaffaqiyatlar va yutuqlar tajribasi orqali ifoda qilinib, shaxsiy va jamoaviy harakatlar natijasidir. Shuning uchun bolalarda uning rivojlanish darajasi yosh xususiyatlari va tarbiyaviy ishlarning tashkil etilganlik holatiga bog'liq bo'lganligi uchun turlicha bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lif yoshidanoq bolaning jamoaviy faoliyatida ijtimoiy faollik elementlari yuzaga keladi. Ijtimoiy faollik o'quvchi shaxsini tarbiyalash vositasi va birinchi navbatda ongli intizomlilik xususiyatini shakllantiradi. Ijtimoiy faollik o'quvchida tarbiylilik, anqlik kabi xususiyatlarning namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy faollik xususiyat sifatida inson uchun odatiy bo'lgan xulq-atvor usulidir. Faollikning fiziologik asosi o'zgarishli stereotipdir. Biroq ijtimoiy faollik – bu ijtimoiy sifat bo'lib, unda axloqiy odatlar va insonning talablarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi ijtimoiy faollikning asosini ijobjiy namunaga taqlid qilish tashkil etadi. O'quvchi-yoshlar ulg'aygan sari ijtimoiy faollik hissi irodaviy xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Tashqaridan qaraganda ijtimoiy faollik o'quvchi shaxsida yuqorida xususiyatlarning turg'unligi natijasida mustahkamlanmasa, u holda vaziyat o'zgarishi bilan u ham oson o'zgarishi mumkin.

Uyushgan faoliyat, ya'ni o'qish, mehnat, sportda bola ijtimoiy faolligini namoyon qilish imkoniyatini anglab boradi. Shu bilan birga talablarga rioya qilish zarurligiga ishonch hosil qiladi. O'quvchi faoliyatida talab uning hayotining tashqi jihatni va uning ichki ehtiyojiga aylanadi. Talablarni tashkil etishning tashqi vositasi esa tartibdan iborat va u ma'lum bir gigiyenik va pedagogik asoslarga bog'liq hamda bolaning kun tartibi, mehnat va hordiq, boshqa mashg'ulotlarning almashishini nazarda tutadi. Kun tartibi bola atrofidagi sharoitlarning muntazamligi va o'zgarib turishini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida dinamik stereotiplar (qolip) tarbiyalanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bolalar jamoasiga qo'yildigan talablarning bajarilishini nazorat qilish mantiqan to'g'ridir. Talablarni qo'yish malakasi tarbiyachining turli vaziyat va holatlarga tez va aniq baho berish, dalillarni tahlil qila olish va turli pedagogik vositalarni qo'llay olish qobiliyiga bog'liq. Talablar faqat baland ovozda keskin emas, balki qat'iyat bilan o'quvchining shaxsiga nisbatan hurmat bilan qo'yilishi lozim. O'quvchi buni o'qituvchining ovoz toni orqali sezsa olsin. Agar o'qituvchi bu shartni bajara olmasa, ortiqcha keskinlik va qat'iylik ayniqsa, o'smir yoshida turli nizolarga, bo'y sunmaslikka olib kelishi mumkin.

O'quvchi-yoshlarda ijtimoiy faoliytkni tarbiyalash ularning xulq-atvor madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Biroq axloqiy madaniyat tushunchasi faqatgina o'quvchilarning ijtimoiy faolligi bilan cheklanmaydi. U shaxsnинг axloqiy namoyon bo'lisingining barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu ma'noda axloqiy madaniyat o'ziga xos atama sifatida insonning barcha xatti-harakatlarining yuqori darajadagi puxta va aniqligini bildiradi. Axloqiy madaniyat tushunchasiga pedagoglar tomonidan insonning barcha sifat va fazilatlari deb qaraladi.

Kundalik ijtimoiy tajriba orqali o'quvchilar ijtimoiy faoliyknинг me'yorlarini o'zlash-tiradilar. Axloqiy madaniyat mazmuni insonlar orasidagi muloqotni, nutq va tashqi ko'rinish (kiyim, gavdani tutish, imo-ishora, mimika, qadam tashlash)ni tartibga so-lib turuvchi me'yor va qoidalar majmuyi bilan belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, axloqiy madaniyat – bu muloqot, nutq va tashqi ko'rinish madaniyatidir. Bu madaniyatni tarbiyalash uchun o'qituvchining o'zi yuksak namuna sohibi bo'lishi kerak.

Bolalarda ijtimoiy faoliytkni tarbiyalash tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik tadbir sifatida oilada, mакtabgacha ta'llim muassasasidagi tarbiya jarayonida shakllanadi. Ijtimoiy faoliytk insonning ichki madaniyati, estetik talablari, jamiyatda qabul qilingan an'analar va urf-odatlar bilan bog'liq. Aynan insonning ichki madaniyati orqali uning axloqi belgilanadi, boshqa tomondan esa axloqning tashqi tomoni insonning ichki holatiga ta'sir etadi, ya'ni uni bosiq, vazmin, doimo fikri jamlangan bo'lismga majbur etadi. Tashqi ko'rinishdagi pala-partishlik, qo'pollik asta-sekin shaxsda salbiy sifatlarni shakllantiradi. Shuning uchun ilk yoshdan bolalarga o'zini tutish madaniyati va axloqiy tushunchalar haqidagi bilimlarni singdirish zarurdir. Bolada hali muloqot madaniyati tushunchalari shakllanmagan, jamiyatda qabul qilingan axloq qoidalarini bilmaganligi sababli ko'p hollarda qo'pol muomala qilishi mumkin. Aksariyat hollarda bolalar o'zlar uchun hurmatli bo'lgan ota-onalari, kattalarning o'zini tutishini kuzatib, ularga taqlid qilib, muomala odobini o'rganishadi.

Bolaning xulq-atvori, o'zining xatti-harakatini anglashi ijtimoiy foydali ko'nkmalar ning va axloqiy me'yorlar shakllanishining asosiy shartidir. Mana shunday xulq uchun shaxs ongli ravishda jamiyat, jamoa, boshqa odamlar oldida javob berishi va buni jamiyat uchun foydali va zarur ekanligi nuqtayi nazaridan tushunishi muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy faoliytk, shuningdek, ta'llim olishning ham zaminidir, bir vaqtning o'zida natijasi hamdir. Maktebning o'rta bo'g'inidayoq axloqiy ong orqali ko'pgina muhim qarashlar o'quvchilarning axloqiy tomoniga qarab o'zgara boshlaydi. Ma'naviy me'yorlar, qonun me'yorlari – bu bolalar har kuni to'qnash keladigan va ularga o'zlarining tarbiyalanganlik darajasiga qarab riosa qiladigan yoki odat va intilishlari ko'rinishida mustahkamlangan talablardir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. 2016-yil.
2. Xaruxiko Kuroda. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti: Xalqaro konferensiya materiallari. – T.: O'zbekiston, 2012. 184-b.
3. Franco, Clemente, Amutio, Alberto, Lopez-Gonzalez, Luis, Effect of a Mindfulness Training Program on the Impulsivity and Aggression Levels of Adolescents with Behavioral Problems in the Classroom // Frontiers in psychology. – Switzerland, 2016.

**Dilnoza MUSAYEVA,**

Nizomiy nomli TDPU mustaqil tadqiqotchisi, Toshkent shahar,

Uchtepa tumani 431-IMTM mudirasi

**Maxmuda QOSIMOVA,**

431-IMTM psixonevrologi

## **INFORMATSIYAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA “OILA – MAHALLA – TA’LIM MUASSASASI” HAMKORLIGIDAN SAMARALI FOYDALANISH ZARURATI**

### **Annotatsiya**

Maqolada informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashishda “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligidan samarali foydalanish zarurati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif internetning ma’naviy psixologik zararlari hamda oila, ta’lim muassasalarida bola tarbiyasida ijobji natijalarga erishish jihatlarini ko’rsatib o’tgan.

**Kalit so’zlar.** Informatsiyaviy tahididlар, internet, hamkorlik, zarurat, kiberterrorizm, grifing, ludomaniya.

Статья посвящена необходимости эффективного использования взаимодействия “Семья – махалля – образовательные учреждения” против информационных угроз. Также автор указывает на духовно-психологический вред Интернета и аспекты достижения положительных результатов в воспитании ребенка в семье и в образовательных учреждениях.

**Ключевые слова.** Информационные угрозы, Интернет, сотрудничество, необходимость, кибертерроризм, грифинг, лудомания.

Article is devoted to the need for effective use of the interaction "Family - mahalla - educational institutions" when countering information threats. Also author points out the spiritual and psychological harm of the Internet and the aspects of achieving positive results in the upbringing of the child in the family and in educational institutions.

**Key words.** Information threats, internet, cooperation, necessity, cyberterrorism, griffing, ludomania.

**M**amlakatimizda yoshlar siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri – milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlashda faol ishtirok etadigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Shuning uchun yoshlar tafakkurining shaffofligini saqlash, ularning kayfiyati, orzu, umid, intilishlari mazmun-mohiyatini o’rganish davr talabdir.

Fan va texnika yuksak taraqqiy etgan bu davrda imkoniyatlarni tobora kengaymoqda. Internet – axborot almashinuvining eng tezkor va qulay vositasи sifatida hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Chunki internet qisqa vaqt ichida kerakli axborotni qiyinchiliklarsiz topishda elektron manba bo’lib, shaxsnинг intellektual qobiliyatini os-hirishda yordam beruvchi beqiyos imkoniyatlar eshidigidir. Bugun internet global tarmoq orqali axborot eng qulay usulga aylandi. Yurtimizda internetdan foydalanuvchilar-

ning soni 12 milliondan oshgani, ularning katta foizini yoshlar tashkil qilishi fikrimizning isbotidir. Hozirgi globallashuv jarayonida eng tezkor axborot olish tarmog'i rivojlangan sari yosh avlod hayoti va ongiga ham ijobji, ham salbiy ta'sir etuvchi ma'lumotlar ko'la-mi ham kengaymoqda. Turli tuman ommaviy axborot vositalari: televizor, mobil telefonlar, internetdag'i ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook) yovuz niyatli, yot g'oyalar tarqatuvchi kimsalarning eng qulay vositasiga aylandi.

Gap shundaki, internetning imkoniyatlardan o'zining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanayotgan buzg'unchi guruhlar nafaqat yoshlarni, balki yoshi katta insonlarni ham o'z domiga tortib, buzg'unchilik zo'ravonlik, axloqsizlik, loqaydlik va boshqa turli xil informatsion g'oyaviy kurashlarni targ'ib qiladi. Bunga misol qilib keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda chetdan bizga kirib kelib, keng tarqalayotgan "Zombi", "Ko'k kit", "Tinch uy" kabi o'yinlarni aytish mumkin.

Yosh bola nozik niholga o'xshaydi. Unga o'z vaqtida mehr bilan qarab, tarbiyalab borilsa, kelajakda o'zining sarxil mevasini beradi. Bola bu yoshda ishonuvchan, irodasi sust, fikri beqaror bo'ladi. Unga nimani taqiqlasang, shunga intiladi, chunki taqiqlangan narsa sirli va qiziqarli bo'ladi. Oldi-qochdi o'yinlar tufayli u nafaqat vaqtini behuda sarflayapti, balki shu bilan birga o'ziga jismoni, ruhiy, ma'naviy sog'lig'iga ham jiddiy zarar keltirayotganini sezmay qoladi. Bu o'yinlar bolaning yoshini e'tiborga olgan holda mustaqil fikri, qiziqarli mashg'uloti bo'lмаган, hissiyoti beqaror, beparvo, irodasi sust ishonuvchanlarni o'z domiga tortadi. O'yin moderatorlari bolalarni o'yinga jalb etishda pedagogikaning dolzarb usullaridan: suhbat, tushuntirish, ko'rsatish, qiziqtirish, rag'batlantirish, qo'rqtish kabilalaridan ustalik bilan foydalanishadi. Ular ayni vaqtida ayrim ota-onalarning do'q, po'pisa, jerkish, kamsitish, jazolash kabi usulublariga qarshi o'laroq, bolani teng, samimiy muloqot va dadil gaplari bilan ishonch bildirish, topshiriqlar berish, nazorat qilib maqtash kabi usullarini ishlashmoqda. Bu esa bolada e'tibor va ishonch hissini oshishiga sabab bo'lib, ularga intilishni oshiradi.

Agar voyaga yetmagan bolaga hadeb: "Sen odam bo'lmayсан, noshudsan, bir ish qo'lingdan kelmaydi, axmoqsan" deyaversangiz u o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. O'yin esa "Sen yaxshisan, kuchlisan, sening qo'lingdan keladi, sen buni uddalaysan" deb bolani o'yinga qiziqtirib, hamfikr bo'lib oladi. Ketma-ket amaliy topshiriqlar berib, rag'batlantirib, aldab jar yoqasiga olib boradi.

Monitor qarshisida soatlab o'tirgan bola jangari o'yinlar ta'sirida ba'zan loqayd, odamovi, befarq, xayolparast bo'lib qolsa, ba'zan esa qo'pol, tazovuzkor, jizzaki, qiziqqon, ota-onasi va yaqinlariga qo'pol muomala qiladigan bo'lib qoladi. Uning ruhiyatida salbiy o'zgarishlar, psixosomatik kasalliklar, tushkunlik depressiya alomatlari, xulq-atvorning og'ir buzilishi, hissiy-irodaviy holatning o'zgarishi buzg'unchilik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar avj oladi. Kun tartibiga rioya qilmaslik, kech yotish, erta turolmaslik, uyquning buzilishi oqibatida bola asabiyashadi. Yomon o'ylar, tushkunlik kayfiyati, yaqinlariga sovuq munosabatni sezsak, uning sabablarini o'zimizdan qidirimiz kerak.

Internetning ma'naviy psixologik zararları quyidagilardan iborat:

1. **Kiberterrorizm** – (kompyuter terrorizmi) zamonaliviy, ilg'or texnika, kompyuter va boshqa imkoniyatlardan keng foylangan holda yovuz kishilarning o'z g'arazli maqsadlariga yetishishning bir yo'nalishidir. U insoniyatga hudud, jamiyat, davlat va xalqlarga zarar keltirishni, siyosiy maqsadlarni ko'zlab xavf soladi, tinchligini buzadi.

2. **Kompyutermaniya** – internetdan foydalanuvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Demokratiya niqobi ostida berilayotgan bu o'yinlar bolaning ruhiyatiga

---

salbiy ta'sir ko'rsatadi, kayfiyati o'zgaruvchan bo'lib, stress holatida bo'ladi, o'qish va ishdan ko'ngli sovib, yolg'izlikka intiladi. Uyqusizlik, vahima va qattiq jismoniy char-chash kabi o'zgarishlar kuzatiladi. Oilada o'zaro kelishmovchilik, tanbeh va dashnom-larga qulq solmaydi.

3. **Grifing** – internet orqali ta'qib etish. Bir qarashda qiziqarli tuyulgan bu o'yinlar tashkilotchilari online kafe, forum xonalarida veb tarmoqlarda anonimlikni saqlagan holda yoshlар bilan istagan mavzuda eng yaqin odamlardek suhbat olib borib, oxirida ularni joniga qasd qilishgacha (suiqasd) yetaklaydilar.

4. **Ludomaniya** – o'yinga o'ta berilib ketish, pulli o'yinlarga patologik bog'lanib qolish. Bola o'yinda qatnashish orqali kasb-hunar egallash, moddiy dunyo va oilaviy hayat bilan bog'liq qadriyatlarga, o'z majburiyatlariga e'tiborsiz bo'lib qoladi.

Ota-onalar, pedagoglar, mahalla hamkorligida bolaning muassasaga qatnashi, davomati, bo'sh vaqtini qayerda, kim bilan, qanday o'tkazayotganligi nazoratga olinsa, farzandlarimiz internetning quliga aylanmaydi.

Bolaning bo'sh vaqt to'g'ri tashkil qilinmasa, qat'iy kun tartibiga rioxaloya qilinmasa, ota-onalar va mutasaddi tashkilotlar xodimlari tomonidan bola nazorat qilinmas ekan, uning ongida ma'naviy bo'shliq paydo bo'ladi.

Sog'lom fikrli yoshlarni tarbiyalashda ota-onsa – oila – mahalla – ta'lim muassasasi hamkorligi katta ahamiyatga ega. Virtual olamda faol, hayotda esa sust, beparvo bolaning bilib-bilmay, mudhish, qing'ir ko'chaga kirib qolishining oldini olish, ota-onsa, balki keng jamoatchilikning, mahalla va ta'lim muassasalarining birgalikdagi hamkorligiga bog'liqdir. Oilada, ta'lim muassasasida bola tarbiyasida ijobiy natijalarga erishish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak:

- bola ko'proq nimaga moyil;
- sog'ligi, xarakteri, qiziqishi, ehtiyoji va qobiliyati;
- sezgi organlarini rivojlantirish, kuzatuvchanligini oshirish;
- imkoniyatlarini o'zligini anglatish orqali oshirish;
- erkin tanqidiy fikrlashga o'rgatish;
- ijtimoiy foydalni mashg'ulotlar bilan shug'ullanishiga e'tibor qaratish;
- qiziqishi sust bolalar bilan yakkama-yakka, individual shug'ullanish;
- bolaning alohida shaxs ekanligini esdan chiqarmaslik;
- kichkina bo'lsa ham yutuqlarini rag'batlantirish va rivojlantirish;
- yordam kerak bo'lganda ota-onasi, pedagoglarning doim yordamga tayyorligiga ishontirish.

Yosh avlod tarbiyasida ularni turli zararli yot g'oyalalar, informatsion tahdidlardan himoya qilish, farzandlarimizning qiziqishlarini inobatga olgan holda munosabatlarni mustahkamlashda "Ota-onalar bilan muloqot xona" larining tashkil etilishi ayni mudodaodir. Ota-onalar bilan ta'lim muassasasi xodimlari birgalikda olib boriladigan ish shakllari quyidagilar:

Ochiq eshiklar kuni, turli madaniy-ma'rifiy bayram tadbirlari, onalar maktabi, seminar-treninglar, uchrashuvlar, suhbatlar, anonim so'rovnomalari, sport musobaqalarida faol ishtirok etish shular jumlasidandir.

Bola tarbiyasidagi eng samarali usul – ajdodlarimizning boy tarbiyaviy merosi, ota-bobolarimizning milliy tarbiya usullaridan keng foydalanishdir. Ular yaxshi xulqlarni fazilatlar bilan, yomonlarini illatlar bilan bog'lab, shoshilmay, pishiq qilib o'rgatib, xatolarning oldini olib, keyin ertangi kunga puxta qilib tarbiyalab yo'llashgan. Chunki xalqimizning necha ming yillar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatları, muqaddas

e’tiqodi, ajdodlar merosidagi tarbiya usullari, qimmatli fikrlar mafkuraviy immunitetning asosini tashkil qiladi.

Ota-onaning farzandi bilan ruhiy-hissiy yaqinligi juda ham zarur. Uni erkalab, samimiyat bilan chin dildan tortinmasdan suhbatlashish kerak. Maqsad – bolani tanqidiy fikrlashga o’rgatish, qilgan yaxshi-yomon ishlarini, o’y-hayollarini qayta ko’rib chiqsin, voqealarni, vaziyatlarni to’g’ri baholasin. Taqiq qancha ko’p bo’lsa, uni aylanib o’tish yo’li ham shuncha ko’p bo’ladi. Ota-onaning asosiy vazifasi bolasiga madadkor bo’lish, shunday qilingki, u o’z muammosini yashirmsandan, xatolardan cho’chimasdan birinchi bo’lib sizga aytisin. Agar sizdan tortinsa, u ishonadigan, hurmat qiladigan kishilari, yaqin qarindoshlaridan maslahat so’rasin. Xorijlik olim Benjamin Shayn bolalarda bezovtalik belgilari kuzatilsa, 90 foiz bolani tinglashga, 10 foizni esa unga yordam berishga qaratishni tavsiya qiladi.

Kitobxonlikni targ’ib qilish, kitob mutolaasi natijasida farzandlarimiz yuksak ma’naviyatli bo’lib yetishadilar. Elektron kutubxonalar yaratish, axborot resurs markazlarining faoliyatini kengaytirish, yangi foydali veb-saytlar ochish, ilmiy-pedagogik va o’quv-metodik nashrlar orgali informatsion tahdidlarga qarshi kurash yoshlarning intellektual qobiliyatlarini oshirishga, ma’naviy-axloqiy normalarni yuksaltirishga, umuminsoniy qadriyatlarni oshirishga xizmat qiladi.

Ko’ngilochar maskanlar, internet klublar, kompyuter xonalarida tezkor tadbirlar o’tkazib, ularning faoliyatini nazorat qilib turishi kerak. Yoshlarda kompyuter savodonligini oshirish, mobil telefon, internet, kompyuter, gadjetlardan kerakli paytlarda foydalanish, ularning hayoti va sog’lig’iga salbiy ta’sirlarini tushuntirish, kasb-hunar o’rganishlarini rag’batlantirish, bo’sh vaqtlarida turli to’garaklar, sport seksiyalariga qatnashish foydadan xoli emasligini aytib o’tish kerak.

Bolaning bo’sh vaqtini to’g’ri tashkil etish, qat’iy kun tartibiga rioxqa qilish, ularda kuzatish, tahlil qilish, tanqidiy yondashish qobiliyatlarini oshirish lozim.

Bolani nafaqat ota-onsa ko’zi bilan, balki mutaxassis pedagog, psixolog ko’zi bilan ham kuzatib borish kerak. Unga mehnatsevarlik bilan dangasalikni, mehribonlik bilan bemehrlikni, bilimdonlik va bilimsizlikni, xushmuomalalik va qo’pollikni taqqoslab, fazilatning illatdan afzalligiga ishontirish lozim. Bu sog’lom, himoya instiktini kuchaytiradigan, xatolardan o’zini tiyadigan foydali profilaktik vositadir. Bu bolada o’zini-o’zi himoya qilish orgali ziyraklik va ogohlilikni kuchaytiradi.

Hozirda butun dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy manzarasida katta o’zgarishlar ro’y berayotgan bir paytda fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro maydonda turli siyosiy manfaatlar to’qnashayotgan, ma’naviy ijtimoiy informatsion tahdidlari kuchayotgan bir paytda faqatgina o’zining fikri va hayotiy nuqtayi nazariga ega bo’lgan xalq va uning to’g’ri yo’lni tanlagan barkamol yosh avlodni o’zining porloq kelajagini qurishga qodirdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. G’oziyev E.G’. Umumiyy psixologiya. – T., 2010.
3. Maxmudov S. Y. va b. Ilmiy-Pedagogik va o’quv-metodik nashrlardagi informatsiyaviy tahdidlari monitoringi: tahlil, rejalashtirish va amalga oshirish// uslubiy tavsiyanoma – T., 2015. 116-b.

**Gulchehra FAYZULLAYEVA,**

Samarqand Davlat universiteti katta ilmiy xodim-izlanuvchi

## **ADABIY TA'LIM JARAYONIDA MILLIY ISTIQLOL G'OYASI VA UNI UZLUKSIZ SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

### **Annotatsiya**

Maqola adabiyot darslari jarayonida o'quvchilarda milliy istiqlol g'oyasini uzluksiz shakllantirish omillarini yoritishga, shuningdek, milliy g'oyani singdirishda adabiy ta'larning amaliy ahamiyatini tadqiq qilishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar.** Adabiy ta'lim, milliy g'oya, uzluksizlik, uzviylik, milliylik, jarayon, omil, matn, tahlil.

Статья посвящена описанию факторов непрерывности формирования у учащихся в процессе уроков литературы национальной идеи возрождения, а также исследованием значения литературного образования по внедрению национальной идеи.

**Ключевые слова.** Литературное образование, национальная идея, непрерывность, последовательность, принадлежность к национальности, процесс, фактор, текст, анализ.

Article is devoted to the description of the factors of the continuity of the formation of the national idea of revival among students in the process of literature lessons, as well as to the study of the importance of literary education in the introduction of the national idea.

**Key words.** Literary education, national idea, continuity, consistency, nationality, process, factors, text, analysis.

**M**illiyl istiqlol g'oyasi O'zbekiston xalqining tub manfaatlari, asriy orzu-umidlari, ezgu niyatları, buyuk maqsadlarini ifoda etib, xalqning o'z maqsad muddaolariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat bo'ladigan poy-devordir. Bu jarayon jamiyat a'zolarining tub manfaatlarini ko'zda tutadi, binobarin, har bir fuqaroni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash shu yurt farzandlari uchun muqadas burchdir. Milliy istiqlol mafkurasi o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi hamda butun xalqimizning quyidagi umumiyl manfaatlarini ifodalaydi: mamlakat mustahkamligi, hududiy yaxlitlik, sarhadlar daxlsizligi; yurt tinchligi, davlatning harbiy-iqtisodi, g'oyaviy ekologik, informatsion tahdidlaridan muhofaza etilishi; fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlash; jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o'z-o'zini boshqarish tamoyillaiga amal qilish.

Milliy g'oya – muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi, deya ta'rif beriladi O'zbekiston milliy ensiklopediyasida. Demak, milliy g'oya mustaqillikka erishgan yurt uchun milliy ongni shakllantirish va ma'naviy tiklanish, o'z taqdirini o'zi belgilash

yo'lidagi bir mayoqdir. Darhaqiqat, mustaqillik O'zbekiston hayotining barcha sohalari tub o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Bunday o'zgarishlarning ilk natijasini milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini ishlab chiqilganida ham ko'rish mumkin. Bu tabiiy, zero, "...toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi"<sup>1</sup>.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, jamiyat a'zolarining intilishlari va orzu-umidlarini o'zida mujassamlashtirgan, ularni hayotiy haqiqat bilan qurollantiradigan, ezgu maqsadlar sari safarbar etadigan milliy istiqlol g'oyasi konsepsiyasining ishlab chiqilgani ijtimoiy jarayonlar rivojiga mustahkam mafkuraviy zamin yaratdi. Buning natijasi-da milliy istiqlol g'oyasining o'ziga xos xususiyatlari, uning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy muammoga aylandi va bu borada ko'plab tadqiqot ishlari olib borildi. Bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri – yosh avlodda milliy ruhni mustahkamlashdir, chunki zamon o'zgarishlari chinakam iroda egasini talab qiladi.

"Milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash muammoasi haqida fikr yuritilganda, xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi,... xalq og'zaki ijodi namunalari,... Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi milliy qahramonlarimizning ibratli hayoti milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalar, shuningdek, ...Al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Shayx Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Ogahiy singari sharq mutafakkirlarining komil inson tarbiyasi haqidagi ta'limotlari milliy istiqlol g'oyasining teran tomirlari ekanini alohida ta'kidlash lozim"<sup>2</sup>.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari: vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik singari tamoyillarning amalga oshirilishidir. Bunda, avvalo, insonning ma'naviy kamolotini ta'minlash, shu orqali milliy mafkurani yanada mustahkamlash asosiy maqsad sifatida o'rtaqa qo'yilgan.

Jamiyat taraqqiyotida bashariyat tarixidagi barcha ilg'or mutafakkirlar ham ma'naviy muammolarga katta e'tibor berib, ma'naviyatsizlik insonni tubanlashishi, jamiyatni halokatga olib keluvchi asosiy sabab ekanini ko'rsatib berishgan. Ma'naviyat insonga mehr-muruvvat, rahm-shafqat, insonparvarlikka tayanib amalga oshadigan munosabatdir. Milliy ma'naviyat o'zida milliy birlik tuyg'usini shakllantridi. Milliy birlik tuyg'usi millatni o'zini o'zi anglash xislatisiz sodir bo'lmaydi. O'zlikni anglash tushunchasiga psixologiyada "O'zlikni anglash – bu insonga tug'ma berilgan emas, balki uning rivojlanib borishi bilan bog'liq hodisadir. Inson o'zligini anglab borishi davomida o'zini "Men"-ligini tushunib, anglab boradi"<sup>3</sup>, deya ta'rif berilsa, bugungi kun falsafasida "...milliy o'zlikni anglash o'zining o'ta muhim salohiyati bilan millatning yuragi, qalbi, tomirlarida oqadigan qoni va gavdasini tik ushlab turuvchi jonidir. U avvalo insonga, insondan millatga Alloh tomonidan in'om etilgan ilohiy ruhiy quvvatdir. Shuning uchun ham o'zligini anglashdan to'xtagan yoki undan mahrum bo'lgan har qanday millat ma'nani o'limga mahkumdir. Ma'nani o'lgan millat esa jismonan ham o'lib, olomonga aylanib qoladi"<sup>4</sup> deb ta'riflanadi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurası – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. //Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: O'zbekiston, 2000. 490-b.

<sup>2</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. 47-48-b.

<sup>3</sup> Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – М. 1940. – С. 569.

<sup>4</sup> Otamuratov S. Globalashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. – T.: O'zbekiston, 2015. 373-b.

---

